O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

*Qo'lyozma huquqida*

94(575.1)+631.67(09)

KAMOLOVA NARGIZA PO'LATBOYEVNA

# XORAZMDA DEHQONCHILIK AN'ANALARI BA SUG'ORISH TIZIMI TARIXI

**Magistratura mutaxassisligi: 5A220201 – Tarix**
**(Mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi Raxmonova Yulduz**

**Urganch – 2015**

MUNDARIJA

**Kirish..........................................................................................3**

**I bob. Xorazm irrigatsiya tizimi va sug'orish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari..........................................................................................23**
1.1. Xorazmda ilk davlatlarning tashkil topishi va sun'iy k anallarning barpo etilishi. Ilk Temir davrida bosh kanallarga o'tish..........................................23
1.2. IX- XV asrlarda irrigasiya va sug'orish dinamikasi..........................................28

**II bob. So'ngi o'rta asrlarda Xiva xonligida yer egaligi va sug'orish ishlari..........................................................................................35**

2.1. So'ngi o'rta asrlarda Xiva xonligida yer-suv munosabatlari va dehqonchilik an'analari.......................................................................................... 35
2.2. Xiva xonligida sug'orish tizimining tashkil qilinishi va ulardan foydalanish..........................................................................................42

**III bob. XIX asrda sug'orish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari va qishloq xo'jaligining taraqqiy etishi..........................................................................................54**
3.1. Tuyamo'yin suvombori qurilishining o'ziga xos xususiyatlari..........................54
3.2. Xorazmda dehqonchilik ishlarining taraqqiy etishi..........................................................................................69

**Xulosa..........................................................................................74**

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati..........................................79**

**ILOVALAR..........................................................................................89**

**THE MINISTERY OF HIGHER AND SECONDARY SPEACIAL EDUCATION OF THE REBUPLIC OF UZBEKISTAN**
**URGENCH STATE UNIVERSITY**

**Faculty:** History

**Department:** History

**Academic year:** 2013-2014

**Student of master's degree:** Kamolova Nargiza Po'latboyevna

**Scientific supervisor:** Prof Rakhmanova Y

**Specialty:** 5A20302 History (on directions and countries)

## ANNOTATION OF MASTER'S DISSTERTATION

**Actuality of the theme:** Today in the process of measurements that are being implemented in all corners of social-political, cultural-spiritual life of independent Uzbekistan, the importance of history (as a subject) is increasing more and more rapidly in upbringing members of society that possess creative thinking and engrave national ideology in their mind and heart. History "… is becoming the real educator of the nation. It is shaping a new type of civil thought revitalizing doings and courage of our great ancestors in our historical memory".

The President of the Republic of Uzbekistan stated truly speaking about historical memory: "only when the sense of historical memory is restored completely, the way that the nation passed with its achievements and damage, loss and victims, happiness and pains is learned objectively and just, it will be the real history". The scale of actual problems lying ahead of it is determined as a result of increasing the role of history in the development of society.

The President of the Republic of Uzbekistan I.A. Karimov's meeting, which was held on June 26, 1998, with a group of historians and journalists and on the decree of Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "on perfecting the activity of Institute of History of the Academy of Science of the Republic of Uzbekistan" investigating the history of the Uzbek state organization as one of primary issues lying before historians is projected as a main task. Moreover, the necessity of learning political, social, economic, cultural, and spiritual life issues of the nations lived in the area of Uzbekistan in different stages of state organization is pointed out. Today coming out of this task researches covering different issues of political, economic, and cultural processes underwent from ancient times to the present time in the area of Uzbekistan came in to use.

The period of history of Khanates that was rich in contradictions and consisting of complicated set of affairs can be included here. Deep comprehensive source science doings that have been implemented by historians and the people involved in Asian Studies over the last years and historical sources and the publication of the documents that are relevant to the first half of the 16-19$^{th}$ century enables us to investigate that period of history newly and objectively. However, many issues of this period of history did not see their scientific enough investigations so far.

They may include the development of the main type of activity, peasantry, and the processes connected with irrigation is the factor that works out for its enhancement in the khanates of Central Asia.

Since peasantry and irrigation activities, irrigation buildings being erected was one of the criteria showing the development of their state organization, learning their history, learning special aspects of relationships connected with the land and land ownership (landholding) in the khanates of Khiva in the first half of the 16-19$^{th}$ centuries, types of irrigation buildings in the improvement of peasantry that was regarded as the main income source of the population, main features,

motherland history, especially a lot of problems of state organization can be solved by investigating their process of becoming perfect. This is one of the main features of the theme proving its actuality.

After having gained independence, Uzbekistan has experienced most hard and civic way over the last twenty one years.Knowing it well beforehand, the President of the Republic of Uzbekistan on the first days of independence "our independence and development way- this is not the way covered in flower, this is difficult having a long run way of getting rid of legacy of totalitarianism and becoming purer, settling the damage done by ideological illness", we one more time perceive how much deep vital essence the utterances stated by our president have.

**Briefly generalized expression of conclusions and suggestions:**

With the demand of history coming up to the $19^{th}$ century the states located in Central Asia specifically were the settled states specialized in peasantry and nomadic states mainly engaging in cattle-raising encountered with the focus where there geopolitical, military and economic benefits of great countries (England, Russia, and China) regarded as militarily powerful ones in the world were clashed.

Just at that time here countries weakened militarily and economically owing to feudal disconnectedness, mutual wars, quarreling for throne inside the country and according to other several causes and there was hardly any might that could organize uniting and acting when general problem appears.

The use of self-governing and household account principles in the organization and controlling the jobs of irrigation (utilizing water, repairing and others), establishing "Water or irrigation wards" for the development of water use and transferring to using their job of "Representatives Committee" selected in a democratic way for a certain time with the purpose of controlling them and other

several news like this, is not the experience that inherited down us from our near past.

This experience (organizational and technological ways) how much they were used in their time, how efficient they were. In the late of 19$^{th}$ century different measurements were being implemented in the domain of irrigation, firstly, on using water and controlling it in the far too bottom (farmers, on the peasant household scale) in the countries where irrigation peasantry developed. The main content of the vast majority of the reforms is to involve water users themselves in the job of using water resources and controlling as far as they have their personal facilities and finance.

**Scientific supervisor:** Prof Rakhmanova Y
**Student of master's degree:** Kamolova Nargiza Po'latboyevna

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**Fakultet** ____Tarix___

**Kafedra** ____Tarix___
**O'quv yili** 2013-2014

**Magistratura talabasi** Kamolova Nargiza Po'latboyevna

**Ilmiy rahbar** [illegible]
**Mutaxassislik** [illegible] Tarix
(yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha)

## MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

**Mavzuning dolzarbligi:** Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, erkin tafakkurga ega va milliy g'oya ongi va qalbiga singdirilgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Tarix "... millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda"[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy xotira haqida fikr yuritar ekan: "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi,"[2] – deya haqli tarzda qayd etgan edi.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o'sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyunda bo'lgan uchrashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy

va ma'naviy hayoti masalalarini o'rganish zaruriyati ko'ndalang bo'ldi. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda bugungi kunda O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning [illegible] masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ular jumlasiga qarama-qarshiliklarga boy, murakkab voqyeliklar tizimidan iborat xonliklar davri tarixini kiritish mumkin. So'nggi yillar mobaynida tarixchilar va sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan chuqur, keng qamrovli manbashunoslik ishlari, tarixiy manbalar va XVI – XIX asrning birinchi yarmiga oid hujjatlarning nashr etilishi ushbu davr tarixini yangicha, ob'ektiv, xolisona tarzda tadqiq qilish uchun zamin yaratdi. Biroq, bu davr tarixining ko`pgina muammolari hozirgi kunga qadar o'zining yetarli darajada ilmiy tadqiqini topmagan. Ular jumlasiga O'rta Osiyo xonliklarida asosiy mashg'ulot turi dehqonchilikning taraqqiyoti va uning taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi omil sug'orish ishlari bilan bog'liq jarayonlarni kiritish mumkin. Zero, dehqonchilik va sug'orish ishlari, sug'orish inshootlari barpo etilishi, ularning davlatchilik taraqqiyotini ko'rsatuvchi mezonlardan biri bo'lib, ular tarixini o'rganish XVI – XIX asrning birinchi yarmida O'rta xonliklarida yer va yer egaligi bilan bog'liq munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini o'rganish, aholining asosiy daromad manbai hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotida sug'orish inshootlarining turlari, asosiy xususiyatlari, ularning takomillashib borish jarayonini tadqiq etish orqali Vatan tarixi, xususan davlatchilik tarixining ko'pgina muammolariga oydinlik kiritish mumkin. Bu o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilovchi muhim jihatlardan hisoblanadi.

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston o'tgan yigirma bir yil ichida o'ta mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va [illegible], mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq da'vom etadigan yo'lidir", deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur siyosiy ma'no borligini

yana bir bor [illegible] anglaymiz.

**<u>Ishning maqsad va vazifalari:</u>** Dissertatsiyada [illegible] maqsad – Xorazmning sugorilish tarixi, ilk Temur davridan X[illegible] asrgacha Xiva xonliklarida sug'orish ishlari, sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimin, er- suv munosabatlari, XVI - XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida sug'orish ishlari, sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimini o'rganishdan iborat [illegible] shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar [illegible]

- Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklarida suhorish [illegible] vujudga kelishi [illegible] taraqqiyotidagi o'zgarishlar va ularning o'ziga [illegible]

- tadqiqot qamrab olgan davriy chegara doirasida Xorazm (O'rta Osiyo)ning suhorish ishlari va tarmoqlarini holati tasvirlargan manba va [illegible] tahlil etish orqali xonliklarning sug'orish ishlarini boshqarish va soliq [illegible] er- suv munosabatlari, suv bilan bog'liq davlatchilik an'analari tarixiy [illegible] berish;

- Xiva , Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklarining sug'orish ishlari boshqarish va soliq tizimin, er- suv munosabatlari tiziminingbir-biridan farqli tomonlarini aniqlash;

-Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklarida sug'orish va [illegible], er- suv munosabatlari bilan bog'liq davlat lavozimlar va ularning [illegible] ko'rsatib berish;

-Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklari iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishda sug'orish ishlari va inshootlarini o'rnini tahlil etilishi Xorazm (O'rta Osiyo) [illegible] Xorazm davlatchiligi asosida o'zbek davlatchiligi [illegible] yangi [illegible] to'ldirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish

- Xorazm xonliklarida suv yo'llari, ular holatida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish;

- Xorazm xonliklarining sugorilish va irrigatsiya tizimining ayrim o'ziga xos xususiyatlarini bugungi kundagi irrigatsiya tizmi bilan qiyosiy tahlil etish;

**Tadqiqot obyekti va predmeti:** Tadqiqot ob'ektini Xorazm xonliklarining XVI - XIX asrning birinchi yarmidagi sug'orish tizimi va inshootlar qurilishi bilan bog'liq masalalari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti Xorazm sug'orish tizimi, uni yo'lga qo'yish va boshqarish usullari, suv bilan bog'liq Xorazm xonliklari soliq siyosati o'rganiladi.

**Tadqiqot uslubiyati va uslublari:** Tarixiylik, ilmiylik, xolislik, izchillik tamoyillari asosida, milliy mafkura o'zagidagi yangicha fikrlash, haqqoniy ilmiy tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Dissertatsiyada ilk bor O'rta Osiyo xonliklarining sug'orish tizmi va inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati boshqaruvi hamda soliq siyosati yoritildi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, undan o'lkaning XVI - XIX asr boshlarigacha bo'lgan davr xo'jalik tarixiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrlari uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Ishining tuzilishi va tarkibi:** Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va taqdimot ishidan iborat. Ma'lumotlarning laks etishi ilmiy manbalar va yangi ma'lumotlar asosida o'rganish, tahlil qilish xulosa chiqarish hamda amaliy taklif, tavsiyalar berishdan iborat.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** Tadqiqot ishi "Tarix" kafedrasi yig'ilishida muhokamadan o'tgan hamda tadqiqot yuzasidan ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

**Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilishi:** [illegible] mavzusi bilan XIX asrga kelib O'rta Osiyo hududida joylashgan davlatlar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq davlatlar va asosan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi davlatlar jahondagi harbiy jihatdan [illegible] hisoblangan yirik davlatlar (Angliya, Rossiya, Xitoy)ning geopolitik, siyosiy va iqtisodiy manfaatlari to'qnashgan fokusga ro'baro' bo'ladilar. Ayni shu vaqtga kelib bu yerdagi davlatlar

feodal tarqoqlik, o‘zaro urushlar, mamlakat ichkari [illegible] va boshqa qator sabablarga ko‘ra harbiy va iqtisodiy jihatdan [illegible] umumiy xavf paydo bo‘lganda bir yoqadan bosh [illegible] qilishni uyushtiradigan kuchlar esa yo‘q darajada edi.

Irrigatsiya (suvdan foydalanish, ta'mirlash va [illegible] qilishda va boshqarishda o‘z-o‘zini boshqarish va [illegible] hisob prinsipini qo‘llash, suvdan foydalanishni takomillashtirish [illegible] yoki irrigatsiya okruglari»ni tashkil qilish va ularni boshqarish maqsa[illegible] yo‘li bilan saylanib qo‘yiladigan «Vakillar kengashi [illegible] o‘tish va shunga o‘xshash boshqa qator yangiliklar ya[illegible] bo‘lib qolgan tajribalar emasmi? Bu tajribalar (tash[illegible] vaqtida qay darajada qo‘llanilgan, [illegible] samara bergan [illegible]

XIX asr oxiriga kelib sug‘oriladigan [illegible] mamlakatlarda irrigatsiya sohasida, birinchi galda [illegible] boshqarishning eng quyi pog‘onasida (fermerlar, dehqon xo‘jaliklari [illegible]) islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko‘pchilik islohotlarning [illegible] mohiyati suv resurslaridan foydalanish va boshqarish ishiga suvdan [illegible] ularning shaxsiy imkoniyatlari va mablag‘larini [illegible] iborat.

**Ilmiy rahbar:** [illegible]

**Magistratura talabasi:** [illegible]

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, erkin tafakkurga ega va milliy g‘oya ongi va qalbiga singdirilgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Tarix “... millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy xotira haqida fikr yuritar ekan: “Tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi,”[2] – deya haqli tarzda qayd etgan edi.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o‘sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko‘lami aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyunda bo‘lgan uchrashuvi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o‘rganish zarurligi ko‘rsatib berildi[3]. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda bugungi kunda O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ular jumlasiga qarama-qarshiliklarga boy, murakkab voqeliklar tizimidan iborat xonliklar davri tarixini

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent., Ma’naviyat, 2008.

[2] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халк сўзи. 1998 йил 28 июль.

kiritish mumkin. So'nggi yillar mobaynida tarixchilar va sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan chuqur, keng qamrovli manbashunoslik ishlari, tarixiy manbalar va IX – XIX asrning birinchi yarmiga oid hujjatlarning nashr etilishi ushbu davr tarixini yangicha, ob'ektiv, xolisona tarzda tadqiq qilish uchun zamin yaratdi. Biroq, bu davr tarixining ko'pgina muammolari bugungi kunga qadar o'zining yetarli darajada ilmiy tadqiqini topmagan. Ular jumlasiga Xorazmda asosiy mashg'ulot turi dehqonchilikning taraqqiyoti va uning taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi omil sug'orish ishlari bilan bog'liq jarayonlarni kiritish mumkin. Zero, dehqonchilik va sug'orish ishlari, sug'orish inshootlari barpo etilishi, ularning davlatchilik taraqqiyotini ko'rsatuvchi mezonlardan biri bo'lib, ular tarixini o'rganish IX – XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonliklarida yer va yer egaligi bilan bog'liq munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini o'rganish, aholining asosiy daromad manbai hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotida sug'orish inshootlarining turlari, asosiy xususiyatlari, ularning takomillashib borish jarayonini tadqiq etish orqali Vatan tarixi, xususan, davlatchilik tarixining ko'pgina muammolariga oydinlik kiritish mumkin. Yuqorida qayd qilingan muammolar o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydigan muhim jihatlardan hisoblanadi.

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston o'tgan yigirma bir yil ichida o'ta mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir"[3], deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz[4].

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqot ob'ektini Xorazm xonliklarining IX–XIX asrlarning birinchi yarmidagi sug'orish tizimi va inshootlar qurilishi bilan

[3] Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

bog'liq masalalari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti sifatida dehqonchilik an`analari va sug'orish tizimlari, uni tashkil qilish, boshqarishning o`ziga hos usullari, suv bilan bog'liq bo`lgan qadimgi Xorazmdagi boshqa masalalar o'rganiladi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Dissertatsiyada belgilangan asosiy maqsad – Xorazmning sugorilish tarixi, ilk Temur davridan XX asrgacha Xiva xonliklarida sug'orish ishlari, sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimin, yer - suv munosabatlari, XVI - XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida sug'orish ishlari, sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimini o'rganishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar rejalashtirildi:

- Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklarida suhorish isharining vujudga kelishi ular taraqqiyotidagi o'zgarishlar va ularning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish;
- tadqiqot qamrab olgan davriy chegara doirasida Xorazm (O'rta Osiyo)ning suhorish ishlari va tarmoqlarini holati tasvirlargan manba va adabiyotlarni tahlil etish orqali xonliklarning sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimin, er- suv munosabatlari, suv bilan bog'liq davlatchilik an'alarini tarixiy ildizlarini ochib berish;
- Xiva xonliklarining sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimin, er- suv munosabatlari tizimining bir-biridan farqli tomonlarini aniqlash;
-Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklarida sug'orish va irrigatsiya tizimi, er- suv munosabatlari bilan bog'liq davlat lavozimlar va ularning vazifalarini ko'rsatib berish;
-Xorazm (O'rta Osiyo) xonliklari iqtisodiy imkoniyatlarini oshishida sug'orish ishlari va inshootlarini o'rnini tahlil etilishi Xorazm ( O'rta Osiyo)ning tarixi va Xorazm davlatchiligi asosida o'zbek davlatchiligi tarixini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish;
- Xorazm xonliklarida suv yo'llari, ular holatida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish;
- Xorazm xonliklarining sugorilish va irrigatsiya tizmining ayrim o'ziga xos xususiyatlarini bugungi kundagi irrigatsiya tizmi bilan qiyasiy tahlil etish;

**Tadqiqotning yangilugi.** Dissertatsiyada ilk bor Xorazm xonliklarining dehqonchilik an`analari, yer-suv munosabatlari, sug'orish tizmi va inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati, boshqaruvi hamda soliq siyosati yoritildi.

**Tadqiqotning gipo`tezasi:** Xorazmda dehqonchilik an`analari, yer-suv munosabatlari, sug'orish tizmi va inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati ko`xna tariximizda o`ziga hos hususiyatlari bilan ajralib turishi kutiladi

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusi hozirgacha alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shu davrgacha e'lon qilingan manba va adabiyotlarda ushbu mavzuga doir ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsada, biroq ular ushbu mavzuni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida umumlashma tarzda o'rganilmagan.

O`rta Osiyoning eng qadimgi sug'orish manbalari va hudud aholisining sug'orish ishlari haqidagi ilk ma'lumotlar qadim davrga mansub bo'lib, "Avesto" kitobida, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, Gerodot, Ktesiy va boshqa mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan[4].

Xiva xonliklaridagi sug'orish ishlari va uning holati haqidagi ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar juda kam. Mavjud adabiyotlarda ham ushbu masalaga dahldor ayrim ma'lumotlar berilgan, xolos. Xiva xonliklarida sug'orish tizimi va uning ahvoli mavzusi tarixshunosligiga oid adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratib, ularni alohida-alohida bo'lib o'rganish mumkin.

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida chop etilgan adabiyotlar.
2. Sovet davri olimlari tamonidan o'rganilgan va nashr qilingan adabiyotlari.
3. Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan mavzuga doir nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijiy davlatlar olimlarining ilmiy ishlari asosida nashr qilingan asarlar.

Birinchi guruh adabiyotlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, asosan, rossiyaliklar mualliflik qilgan birinchi guruhga mansub asarlarda O'rta Osiyoning iqtisodiy taraqqiyotiga, xalq xo'jaligiga umumiy tasnif berilganligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlarga P. Golubkov, F. F. Bobыlev, S. O. Gulishambarov, A. Gubarevich-Radobilskiy, M. V. Dovnar-Zapolskiy, B. G. Kurs asarlarini kiritish

---

[4] Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.

mumkin[5].

Sharqshunos olim N. I. Veselovskiyning O'rta Osiyo va Eron, xususan, Xiva xonligiga bag'ishlangan asarlarida xonlikning tashqi savdo aloqalarini yoritish bilan birga, unda davlatning suv yo'llari va sug'orish inshootlari bilan bog'liq siyosati haqidagi ma'lumotlarni ham qayd etgan[6].

Birinchi guruhga oid adabiyotlarda O'rta Osiyo xonliklarining irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlari, sug'orish ishlari haqida umumiy, qisqa ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu ma'lumotlardan xonliklar davlat boshqaruvida sug'orish ishlari bilan bog'liq sohaga alohida e'tibor berilganligini bilib olish mumkin.

Ikkinchi guruhga mansub sovet davrida nashr etilgan asarlar, risolalar, amalga oshirilgan tadqiqotlar va e'lon qilingan maqolalar mavzu tarixshunosligining yangi bosqichini boshlab beradi. Bu davr adabiyotlarida mustamlakachilik g'oyalarining ta'siri sezilib tursada, o'rganilayotgan mavzuning ayrim qirralarini ochib beruvchi ma'lumotlar berilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Xususan, Ya. C'.G'ulomov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot Xorazmda yer-suv munosabatlari, sugorish inshoatlari va xonliglarning iqtisodiy taraqqiyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda Xorazmning tashqi savdosida muhim rol o'ynagan mahsulotlar, ularni yetishtirish yo'llari, Xorazm xalqining sug'orma dehqonchilikdagi tajribalari haqidagi ayrim ma'lumotlar berilgan[7].

G'. A. Mixalevaning bir qator asarlarida O'rta Osiyo xonliklarining savdo-iqtisodiy taraqqiyoti, dexqonchilik asosi bolgan suv yo'llari va sug'orish tarmoqlari bilan bog'liqlig xususidagi ma'lumotlarga asosiy e'tibor qaratilgan[8].

Rossiyada fan-texnika taraqqiyoti tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari ustida olib borilgan tadqiqotlarda ham O'rta Osiyo xonliklarining suv yo'llari, sug'orish manbalarni va inshootlari haqida ayrim ma'lumotlar berilgan[9].

Bu davrda o'zbekistonlik tarixchi olimlar tomonidan ham o'rganilayotgan

---

[5] Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.

[6] Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб.

[7] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

[8] Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII– первой половине XIX века. Ремесло, торговля, пошлин. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.

[9] Веселовский Н. И.. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – СПБ., 1890. Т.1. – 453 с.

mavzuning ayrim jihatlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Ya. G'. G'ulomovning Xorazmning sugorish tarixii asarining nashr qilinishi XVI asrda Xivada mavjud bo'lgan arxeologik qazishmaqlar, arxeologik ekspedisiyalar hunarmandchilik tarixini o'rganish jarayonida suv inshootlarini qurish bilan bog'liq hunarmanchilik turlarining ayrim qirralarini ochib berishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni keltiradi. Olim o'z tadqiqotlari jarayonida Xiva hunarmandchiligi an'analari va tajribasi sug'orish ishlarini olib borish va sug'orish inshootlari qurilishida muhim rol o'ynaganligini keng yaritgan, aniq ma'lumotlar asosida sugorish inshoatlarining o'zigta xosligini isbotlab bergan[10].

Bu davrda amalga oshirilgan Xiva xonligining Rossiya bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi munosabatlariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlarda xonliklarda mavjud hunarmandchilik sohalarini sug'orish ishlari taraqqiyotiga ta'siri xususidagi ayrim ma'lumotlar berilgan[11].

Xususan, taniqli olimlar M.I.Yo'ldoshev, Ya.G'.G'ulomov va A.Juvonmardievlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqot adabiyotlarida, Xorazmning Xiva xonliklarida qadimdan to XX asr boshlarigacha bo'lgan yer egaligi, sug'orish manbalari va tarixiga oid ma'lumotlar tarixiy manbalarni chuqur o'rganish natijasida va arxiv materiallari asosida keng yoritib berilgan[12].

B.V.Lunin tomonidan to'planib nashr etilgan "Istoriya Uzbekistana v istochnikax (Uzbekistan v soobsheniyax puteshestvennikov i uchyonix 20-80-ye godi XIX v.)" asar mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, asarda O'rta Osiyoda bo'lgan rus sayyohlarining esdaliklari asosida xonliklar davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyasiy axvoli va ulardargi o'ziga xos sug'orish ishlari bilan bog'liq sohalarning rivoji ma'lumotlar berilgan[13].

Qadimgi zamon Xorazm olimlarining qalami bilan yozilgan barcha asarlar saqanib qalmagan, ammo ularning ishnni davom etgirgai olimlarning asarlarida

---

10 Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

11 Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б.

12 Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент., 1959. – 350 б.

13 Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных 20-80-е годы XIX в. – Ташкент.: Фан, 1990. – 192 с.

qisman bizgacha etib kelgan ma'lumotlar: Muhammad biya Muso Xorazmiy, Abuabdulloh Xorazmiy va Aburayxon Beruniylar feodal fanining taraqqny etishiga ancha yordam berdilar. Biroq bular o'z asarini Xorazm tilida emas, arab tilida yozdilar. Qadimgi O'rta Osiyo fanining Farg'oniy va Muhammad bin Muso Xorazmiy kabi vakillara Bog'dodga, abbosiylarning birinchi xalifalari saroyiga chaqirnb olindi. Bu erda ular ilmiy ishlarga rahbarlik qildilar va o'z nomlarini jahon fani tarixida mangu yoznb qo'ddirdilar;
Abuabdulyaoh Xorazmiy (X asr) Myftox-al-ulum (fanlar kaliti) degan o'z lo'g'atining maxsus bir bobini Marv vohasnning irrigatsiyasi hamda irigatsion texnikasiga bag'ishladi. Irrigatsiya haqidagi bu juda qiziq bobdan biz bu erda keng foydalana olmadik, chunki Abuabduloh tomonidan keltirilgan juda boy irrigatsion terminologiya Marv vahosiga xos bo'lib, Xorazm irrigatsion terminologiyasidan butunlay farq qiladi. Masalan, «faykal» termini Marv vohasida suvdan foydalanishdagi navbatchilikni anglatsa, Movarounnahrning bir qancha rayonlarida, Xorazmda bu so'zning o'rniga «asvoq» termini ishlatiladi; yuqoriga suv chiqaruvchi charxpalak Marvda «do'lova» deb atalsa, Xorazmda. u «chiqir» (chigir) deb ataladi va hokazo.

Xalqaro tovar almashishning juda ham jonlanib ketishi va IX-X asrlarda SHarq. mamlakatlarida bo'lgan iqtisodiy yuksalish o'rta asr fanining, shu jumladan geografiya va tarix fanining ham tez taraqqiy qilishiga turtki bo'ldi. Haqiqatan ham, biz bu davrda (IX-X aerlar) turli mamlakatlarni va bu mamlakatlarga olib boradigan yo'llarni, shuningdek bu: mamlakatlarda yashovchi xalqlarning iqtisodiy va madaniy darajasini tasvirlagan bir qancha asarlar vujudga kelganini ko'ramiz. Bu O'rta Osiyo fani tarixida katta burilish davri edi, chunki bu davrdan bashlab geografik va tarixiy ma'lumotlar to'plana va ro'yxatga olina boshlandi. Geograf va tarixchi Ibn Rusta, Istahriy, Maqdisiy, Tabariy, Narshahiy, Belazuriy, YAqubiy, Ibn-al-Faqih, Ibn-Xordod-Somoniy, Ibn Fadlan, Aburayhon Beruniy, Gardiziy, Ibn-al-Asir, YOqut, Somoniy, Nasaviy va boshqalarning asarlari shuningdek «Xudud al olam» kitobi CHingizxon istilosigacha bo'lgan O'rta Osiyo tarixini va

geografiyasini o'rganishda har doim umummajburiy va tengi yo'q manba hisoblanadi.

Mustaqillik davrida muammoni o'rganish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. G. A. Agzamova, H.N.Bobobekov, H. Z. Ziyoev, D. H. Ziyoeva, A. Ziyo, Y.Qosimov, Z. A. Saidboboev, O'. M. Mavlonov, E.Qobulov, U.Abdurasulov, Z.Is'hoqov va boshqa[14]larning tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining sug'orish tizimi va uning boshqaruvi bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar mavjud. Ularda O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, ularning tashqi aloqalari masalalarini o'rganish asnosida sug'orish ishlariga oid muhim ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, G. A. Agzamova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyoning tashqi va ichki savdo faoliyatida muhim rol o'ynagan suv yo'llari, bu yo'llarda ishlatilgan transport vositalari, xonlik hukumatlarining suv va sug'orish inshootlari bunyod etish bilan bog'liq siyosatini ko'rsatib berishga harakat qilgan[15]. Bu davrda O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini chuqurlashtirgan H. Z. Ziyoev masalaning ayrim jihatlariga oydinlik kirituvchi bir qator asarlarini e'lon qildi[16]. D. H. Ziyoeva maqolasida esa XIX asrda O'rta Osiyoga kelgan sayyohlarning o'lka shaharlari tasviri, ichki va tashqi savdosi, iqtisodiy hayoti va sug'orish inshootlari haqida ma'lumotlari tahlil etilgan[17].

O'. Mavlonovning tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining, xususan, Buxoro va Xiva xonliklarining suv savdo yo'llari va sug'orish manbalari chuqur o'rganilgan. Ammo, tadqiqotda sug'orish inshootlari faqat savdo munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganilganligi bois, bu inshootlarni kim va qanday mavsadda qurdirganligi, qaysi mintaqalar bu inshoot orqali sug'orilishi haqidagi ma'lumotlar berilmagan[18].

Bu davrda o'rganilayotgan muammoning ayrim masalalariga oydinlik

---

[14]Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистан. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.

[15] Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.

[16] Зияева Д. Ҳ. Важные сведения по истории Бухары в мемуарах зарубежных путешественников XIX века. // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. – Т., 2008. – Б. 175–178.

[17]Зияева Д. Ҳ. Важные сведения по истории Бухары в мемуарах зарубежных путешественников XIX века. // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. – Т., 2008. – Б. 175–178.

[18] Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б.

kirituvchi bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, Z. A. Saidboboev tadqiqoti esa XVI - XIX asrlar yevropadagi O'rta Osiyoga doir tarixiy xaritalarga bag'ishlangan bo'lib, ularning manbaviy ahamiyati ilk bor keng tahlil etilgan. Shuningdek, bu ilmiy ish asosiy e'tibor O'rta Osiyoning suv manbalari, suv yo'llarini o'rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega[19].

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda mavzu yoritilishiga xizmat qiluvchi ma'lumotlar va ilmiy fikrlar mavjud. Biroq, bevosita O'rta Osiyo xonliklari irrigatsiya tizimi va inshootlarini to'liq ko'rsatib berishga erishgan tadqiqot yo'qligini qayd etish darkor. Mavzuga oid xorijiy mualliflar asarlari xususida shuni ta'kidlash lozimki, XX asr 90- yillaridan so'ng Markaziy Osiyo respublikalarida ham O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtiodiy va madaniy hayotiga doir e'tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi.

S. Gorsheninaning risolasi yevropada fransuz tilida gaplashuvchi aholi tomonidan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid to'plangan ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Bu ma'lumotlar 1848 - 1932 yillarda O'rta Osiyoga kelgan 160 dan ziyod sayyohlarning kundalik va xotiralari asosida tuzilgan. Risola bevosita yevropaning muzey va arxivlarida saqlanayotgan qo'lyozma asarlar va sur'atlar asosida yozilgan bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo xonliklari tarixi bo'yicha yangi ma'lumotlarni beradi[20].

O'rganilayotgan mavzuga oid barcha adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, Xorazm xonliklarida suv va sug'orish ishlari bilan bog'liq davlat siyosati doimo birinchi o'rindagi muhim dolzarb masala bo'lib kelgan. Xonliklarda amalga oshirilgan sug'orish ishlari bilan bog'liq yangiliklar davlat hukmdorining shaxsiy tashabbusi, davlat amaldorining o'z hisobidan yoki aholining tashabbusi bilan hashar kuchi bilan bunyod qilingan. Adabiyotlarda bu jarayon xon hukumatining tashabbusi bilan amalga oshirilganligi ko'rsatilib, uning boshqaruvi va soliq tizimi aholining xizmatlari hisobga olinmay davlat foydasiga undirilganligi ta'kidlangan.

---

[19] Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.

[20] Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.

Shuningdek, tadqiqot qamrab olgan davriy chegara oralig'ida xonliklar davrida sug'orish ishlari holatiga oydinlik kirituvchi ba'zi ilmiy qarashlar ilgari surilgan, ayrim ma'lumotlar ilk bor muomalaga kiritilgan.

**Tadqiqotning manbaviy asoslari.** Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. 1) IX – XIX asrlarda mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan tarixiy asarlar; 2) Rossiyalik elchi, sayyoh, savdogarlar, olimlar boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlari va tarixiy asarlari.

Birinchi guruh manbalarini IX – XIX asrlarda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar tashkil etadi. Ularda asosiy e'tibor O'rta Osiyoda kechgan siyosiy voqyealarga qaratilib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xususan, xonliklarning xo'jalik masalalarini yoritishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar ozchilikni tashkil etadi. Xususan, Zayniddin Vosifiyning "Badoi ul vaqoe", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Muhammad Yusuf Munshining "Tarixi Muqimxoniy", Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Abduraxmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxoniy", Muhammad Hakimxon To'ra qalamiga mansub "Muntaxab ut-tavorix" va Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy" asarlarida O'rta Osiyo xonliklaridagi ayrim sug'orish inshootlari, davlat boshqaruvi haqida ayrim ma'lumotlar mavjud, xolos[21]. Ammo, Xiva xonligining yer-suv munosabatlari, sug'orish ishlari bilan bog'liq Shermuhammad Munisning "Arnalar" g'azali xonliklar davri sug'orish ishlari bo'yicha eng nodir manba sanaladi[24].

Ikkinchi guruhga O'rta Osiyoga savdo-tijorat ishi, rus hukumatining alohida topshirig'i asosida kelgan elchilar, rasmiy shaxslar, shuningdek, savdogarlar, sayyohlar, olimlarning O'rta Osiyo haqidagi esdaliklari, rasmiy xabarlari, ilmiy asarlari kiradi. Rossiya davlatining O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatishga va rivojlantirishga bo'lgan harakatlari natijasida Rossiya imperiyasi vakillari o'lkaning tabiiy mitaqalari, suv manbalari, sug'orish inshootlari, ularning ishlash prinsiplari haqida ham muhim ma'lumotlarni qayd etgan[22].

[21] Моргуненков Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

[22] Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Tadqiqot uchun davriy chegara qilib ilk Temur davridan – XIX asrning birinchi yarmi olindi. Ushbu davrda Xorazmda murakkab siyosiy jarayonlar kechgan. Mustaqil davlatlar sifatida tashkil topgan Xiva xonliklari bu jarayonlarda muhim rol o'ynaganlar. Xonliklar o'rtasidagi qarama-qarshi xarakterga ega munosabatlar ularning davlat boshqaruvida, xalq xo'jaligini yuritish sohasida ham o'z aksini topgan. Bu davlatlar mintaqada kechgan murakkab siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash, diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishni turli yo'llar, xususan, qishloq va xalq xo'jaligini rivojlantirish, xususan, sug'orish ishlari va inshootlarini taraqqiy ettirish vositasida hal etishga harakat qilganlar. Magistrlik ishida Rossiyada O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar to'plash jarayonida nashr etilgan ko'pgina elchi, sayyohlarning kundalik va esdaliklarini o'rganish orqali, o'zaro iqtisodiy aloqalari tarixini ochib berish uchun yuqorida qayd etilgan davr asos qilib olingan.

Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va markazlashgan davıatlarning paydo bo'lishi natijasida qishloq xo'jaligi, xususan, sug'orish ishlari nufuzli tarmoqqa aylandi. Ushbu sohaning taraqqiy etishida dehqonchilik taraqqiyoti va hashar muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun IX – XIX asrning birinchi yarmida Xorazm xonliklarida dexqonchilik an'anlari va sug'orish tizimlarini o'rganish ushbu davrni tavsiflaydigan muhim omillardan biri sanaladi.

**Tadqiqotning uslubiy va nazariy asoslari.** Mavzuni yoritish jarayonida tarixiy yondashuv va qiyosiy tahlil, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning konseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqyealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

**Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyada ilk bor Xorazm xonliklarining yer-suv munosabatlari, sug'orish tizmi va inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati, boshqaruvi hamda soliq siyosati

yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, undan o'lkaning IX - XIX asr boshlaridagi qishloq xo'jaligi va irrigasnua tizimi tarixiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrlari uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy xulosalari tadqiqotchi tomonidan Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qaraqalpoqiston respublikasi xamda qator respublika ilmiy-amaliy anjymanlari to'plam va tezislarida, Rossiya davlati ilmiy jyrnallarida nashr qilingan va jamoatchilikka yetkazilgan. Jami- 7 ta, jumladan, 2 ta ilmiy maqola chet davlatlarda, 4 ta ilmiy maqola respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida, 1 ta ilmiy maqola viloyat gazetasida chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 103 betda bayon qilingan. Unda asosan kirish, uchta bob, xulosa, 3 ta rasmiy adabiyotlar, 35 ta ilmiy adabiyotlar,8 ta manbalar, 3 ta dissertasiya va avtoreferat-lar, 33 ta Internet saytlari, 12 ta chizma va rasm 23 ta ilovalar asosida ma'lumotlar keltirilgan.

> **"Qadimgi Xorazm O'rta Osiyoning Misridir"- Insoniyat sivilizatsiyasining ko'hna makonlarini o'rgananuvchi arxeologlar uıkan yutuqlarga ko'hna Xorazm zaminidagi makonlar, qabriston, qal'a va qo'rqonlarni izlab topish va o'rganish jarayonida erishdilar. Xorazm tarixi, madaniyati va san'atini betakrorligiga yana bir marta amin bo'ldilar "**
>
> **S.P.Tolstov**

## Qadimgi Xorazmning - Markaziy Osiyoga tutgan o'rni va geografik joylashishi.

Xorazm -Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida, Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o'lkadir. "Xorazm" so'zi dastlab "Avesto"da uchraydi, "Avesto" Sharq yozma adabiyotimizni eng qadimgi manbasi sifatida alohida axamiyat kasb etadi. "Avesto"da qadimgi Turon o'lkasi va Eronning o'ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. "Avesto" Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiyqabilalarning ijtimoiy tuzumi, diniy qarashlari xamda jamiyatda ro'y berayotgan tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Uz fuqarolarini qattiq ekspluatatsiya qilishga qaramay, erlari sug'oriladigan SHarq mamlakatlarining hokimlari iqtisodiy majburiyat ostida sun'iy sug'orishning barcha ahamiyatini yaxshi tushunganlar va sug'orish sistemasini boshqarish, xuddi dehqonchilik masalasining mehnatini tashkil etishdek (chunki bu mehnat ne'matini hokimlar egan) qadim-qadim zamonlardan ularga qarar edi va ularning asosiy vazifasi edi. Masalan, Xorazmda qadim zamonlardan beri bir odat bo'lgan. Bu odatga binoan har bir dehqon har yili oliy hokimiyat foydasiga

o‘n ikki kun mehnat qilishga majbur bo‘lgan. Hokimiyat mehnatkash ahali kuchidan bosh kanallarni tozalash, to‘g‘on, damba qurish va shu kabi boshqa mamlakat obodonligini ko‘zda tutgan jamoat ishlarini bajarishda foydalangan. Ammo hamma hokimlar xam bu majburiyatdan shu tariqa foydalanish kerakligini tushunmaganlar; tez-tez suyi iste’mol qilish hollari ham bo‘lib turgan, ayniqsa so‘nggi Xeva xonlari davrida, bu umum foydali xalq mehnatidan hokimiyat tepasida turgan bir guruh kishilarning shaxsiy ishlari uchun foydalanilgan. Ba’zan xalqning uzoq va og‘ir mehnatining samarali natijasi hokimning o‘z foydasini ko‘zlab, xalqqa qarshi tutgan siyosati tufayli yo‘q qilinib tashlangan. 1809 yilda Xeva xoni Muhammad Rahimhon Xeva xonlirining Orol bo‘yi erlarini Qo‘ng‘irot shahri bilan birga xonlikdan ajralib chiqqanligi uchun Qo‘ng‘irot rayonini suvdan mahrum qilmoqchi bo‘ldi. Xonlikning harbiy Kuchlari bir necha yillar davomida qo‘zgalonchilar harakatini bostira olmadi. SHunda xon Qo‘ng‘irot rayoniga beradigan suvni bekitib qo‘yishga qaror qildi. Xonning o‘n mingli qo‘shini Amudaryoning ikkita kuchli tarmog‘ida bahaybat to‘g‘onlar qurib,suvni boshqa tomonga burib yubordi. Qo‘ng‘irot rayoni-fachat Daryo suvining to‘g‘onlarni buzib, eski o‘zanlardan oqa boshlashi tufayli halokatdan qutilib qoldi.

Boshqa bir misol keltiraylik: Xonobod rayonidagi qadim zamonlarda sug‘orilgan katta territoriyadan iborat bo‘lgan erlar keyinchalik shu erga zo‘rlik bilan haydab keltirilgan Qoraqalpoq Dehqonlari tomonidan sug‘orilgan va obod qilingan edi. Biroq Muhammad Aminxon (1846-1855) bu rayonnn sug‘orish va obod qilish ishini tugatgach, bu erga qoraqalpoqlarni emas, balki xonga harbiy xizmat qilib berish sharti bilan turkmanlarni o‘tkazdi. Bu og‘ir harbiy xizmat turkmanlarni faqat o‘z xo‘jaliklaridan ajratibgina qo‘ymay, balki ularni Janubiy Turkmanistonda va SHimoliy Eronda yashovchi qarindosh qabilalar bilan bo‘lgan urushlarda, shuningdek Buxoro va Xeva xonlarining harbiy nayranglarida ishtirok etishga majbur etardi; turkmanlar bu urushlardan hech bir manfaatdor emas edilar. Horazm turkmanlari bu siyosatdan norozi ekanliklarini ochiqdan-ochiq bildirdilar, Bu norozilik ularning o‘z qabiladoshlariga qarshi urushdan bosh tortishlarigacha borib etdi. Sayid Muhammad (1855 - 1865) degan ikkinchi bir xon davrida

Xorazm turkmanlari unga bo'ysunmaydigan qudratli harbiy kuchga aylandi. Turkmanlarga jazo berish maqsadida qilingan barcha yurishlar muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi. SHundan keyin xon turkmanlar yashayotgan yashnab turgan Xonobod rayoniga boradigan suvni bekitib qo'yishga qaror qildi; «...janob oliylari (xon) ularga boradigan suvni yopishga qaror qildi va bu bilan ularning xo'jaligini vayron qilib, o'zlarini har yoqqa tarqatib yubormokchi bo'ldi».

SHu tariqa vahshiyona yo'l bilan Xonobod territoriyasi cho'lu biyobonga aylantirildi. Turkmanlar o'rtasida ochlik boshlandi. Kyoyinchalik turkmanlar bo'ysunishdan sal bosh tortsalar ham xon kanalni bekitib, ularning ekinlariga suv bermay qo'yish haqida buyruq berardi, shunda turkman- boshliqlari xon huzuriga «yig'lab va o'z qilmishidan pushaymon eb» xon qoshiga kelar va uning yangi, yanada shartlariga rozi bo'lar edilar.

X asrda geografik va tarixiy adabiyot keng kuloch yoygan bo'lishiga qaramay, mana, shu mahalliy manbalarning yo'qligi arablar hukmdorlik qila boshlagan davrgacha. bulpan ko'p asrli Xorazm - tarixining qorongi pardasini ochishga xalaqit beradi. Muhammad bin Muso Xorazmiy, Abuabdullox Xorazmiy, Aburayxon Beruniy va boshqalardan ilgari o'tgan, xorazmshoxlar saroyida astronomiya, matematika, meditsina tarix, irrigatsiya va fanning boshqa sohalari bilan shurullangan juda ko'p olimlarning ko'lyozmalari, hisoblari, jadvallari va boshqa asarlari yo'qoldi. Ammo Xorazm irrigatorlari kalendarida baliqlarning nomi bilan (masalan, Oq baliq toshuvi), yulduzlar to'plami nomi bilan (masalan, «Hulkar toshuvi») bog'liq bo'lgan Amudaryoda bo'ladigan mavsumiy toshqinlarning nomlari hozirgacha saqlanib qolgan. Bular o'rta asr olimlarining yulduzlar osmonini va vegetatsion davrda daryoning toshuvini oldindan bildaruvchi tirik maxluqlarning hulk-atvorini uzoq vaqtlar davomida aniq kuzatib borishlari natijasida vujudga kelgandir. O'sha davrlarda jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, boylar va sinflari paydo bo'la boshlagan. "Avesto" ruxoniylar, jang aravalarida yuruvchi harbiylar, dehqon-chorvadorlar, hunarmandlar, qullar mavjudligi haqida xabar beradi. Jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida dastlabki davlatchilik ham vujudga keladi.

"Avesto"da bayon qilingan voqealar asosan, "Arianam Vayja" mamlakatida, ya'ni olimlar tomonidan "Katta Xorazm" deb atalgan davlatda ro'y beradi. Bu davlat Prourata (Parfiya), Mouru (Marv), Gava (Suqdiyona), Xvayrezm (Xorazm)ni o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan xududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan erlarda (Shimoliy g'arbiy O'zbekiston, Shimoliy g'arbiy Turkmaniston) xududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlatlar vujudga kelgan (Ilova1). Baqtriya va Xorazm davlatining xududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi erlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari miloddan avvallgi VI-V asrlarga oiddir. O'lkada yashagan aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qadimgi yozma va arxelogik manbalarni o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, qadimgi xorazmliklar ilm-fan sohasida o'z davri uchun ilg'or bo'lgan yutuqlarga erishganlar va hayotga tadbiq qila olganlar. Xorazmliklar astronomiya va matematikadan yaxshi xabardor bo'lib, burchak o'lchovi uskunalarini yaratganlar va ulardan foydalanganlar. Osmon jismlarini o'rganish, tabiat hodisalarini kuzatishga ixtisoslashgan falakkiyot fani ko'hna Xorazmda taraqqiy qilib, shu davrda qurilgan inshootlar bizning kunlarimizgacha etib kelgan. Ana shu inshootlardan biri ko'hna Xorazmning madaniy yodgorligi Qo'yqirilgan qal'asidir, eramidan avvalgi IV asrda bunyod etilgan bu qal'a To'rtko'ldan 22 km shimoli sharqda joylashgan. Qal'a faqat ibodatxona sifatida emas, balki astronomik kuzatishlar olib borish uchun ham mo'ljallab qurilgani, bu erda yana arxeologlar tomonidan eramizning uchinchi asrga oid dastlabki taqvimnoma hujjat, ya'ni "Xorazmliklarning kalendari" topilgan. Bu topilmalar qadimda xorazmliklarning o'z kalendari bo'lganligidan

guvohlik beradi. "Miloddan avvalgi VI asr va milodiy XIX asrlar oralig'ida Xorazm o'zining iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy yuksalish jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasida o'ziga xos o'rin egallagan o'lka sifatida tanildi. Chunki Xorazm xududida qadimgi "Dasht yo'li" va "Buyuk Ipak yo'li"ning shimoliy-g'arbiy tarmog'i, maxalliy axamiyatga ega bo'lgan qadimgi Baqtriya va Xorazm, So'qdiyona va Xorazm savdo yo'llari orqali Eron va Hindistonga o'tadigan janubiy savdo yo'llari kesishardi. Xorazm bu yo'llarning chorraxasida joylashgan bo'lib, bu erga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar. Natijada Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi. Buyuk Ipak Yo'li faqat karvon yo'li bo'lbgina qolmasdan, Evroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning xar tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan yo'l ham edi[23](Ilova 2).

# I bob. Xorazm irrigatsiya tizimi va sug'orish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari

## 1.1. Xorazmda ilk davlatlarning tashkil topishi va sun'iy kanallarning barpo etilishi. Ilk temir davrida bosh kanallarga o`tish.

Xorazm makonini suv bosganligini va uning ustida allyuvial bo'z tuproqli ikkinchi taqirsimon po'stloq hosil bo'lganligini manbalardan aniqlagan edik. Mana shu ikkinchi qatlamda yorg'uchoq idishlari va hakozolarning siniqlari YA. G`ulomovning arxeologik qazishmalarida topilgan. Ikkinchi makonning kulolchilik materiali, oldingi o'rganilgan makon № 6 ga nisbatan, ibtidoiy madaniyatning rivojlanishida uning kelgusi bosqichi ekanligini xarakterlovchi ko'plab ashyoviy buyumlar topilgan va bu manbalar uni xarakterlab beradi." Taqir usti" madaniyatining kulolchilik buyumlari asosan makon № 6 uchun xos bo'lgan tashqi ko'rinishni saqlab qolgan. Biroq bunda insonlarning taomlarni pishirish

---

23 Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.

mahoratining va sifatining bir oz yaxshilanganligi, loy qorilmasining bir oz dag'allashganligi, chizma va o'yma naqshning soddaligi va ayniqsa yaltiroq bo'yoqli kulolchilik idishlarning Anov tipiga kiruvchi umuman yaltiroq idishlarning yo'qligi kuzatiladi[24].

Taqir usti madaniyati o'zining mana shu belgilari bilan unga muvofiq bo'lgan Tozabog'yop va Suvyorgan madaniyatlaridan farq qiladi. Idishlar sirtiga ishlangan chizma va o'yma naqshlar o'zining soddaligi jihatidan Anov III oxiri va Anov IV madaniyatining shu tipdagi sopol idishlariga juda ham o'xshaganligi bilan ajralib turadi. Idishlarga asosan boshoqsimon naqsh berilganligini, devorchalari yumoloq-qabariqligi, tubi faqat yassi qilib ishlanganligini kuzatish mumkin. SHu bilan birga idish tubining chetlari Tozabog'yop idishlariga qaraganda tashqariga ko'proq chiqib turadi. Bular bilan bir vaqtda og'iz tomoni to'g'ri va past qilib ishlangan yoki tashqari tomonga keskin qayirilgan idishlarni ham uchratish mumkin. Umum an olganda, bu davrda ilk qadimgi Xorazm idishlarining prototiplari yaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu madaniyat qadimgi sug'orilgan erlarning barcha territoriyasida tarqalgan bo'lib, Amirobod madaniyati deb ataladi[1]. Jonbosqal'adan janubi sharq tomonda Amirobod madaniyati yodgorliklari taqirsimon allyuvial soz tuproqlar ustida keng polosa bo'ylab tarqalganligini uchratish mumkin. Amirobod madaniyati yodgorliklarini o'rganish natijasida uning so'nggi bronza davridan boshlab, to sun'iy kanallar barpo etilish davrigacha rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu davrda, ya'ni ilk temir davrida Xorazmning ibtidoiy dehqonlari turmushida, aftidan, katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa kerak: yangi Amirobod madaniyatining namoyandalari qadimgi sug'orilgan erlarning deyarlik hammasiga va chap sohil Xorazm periferiyasining janubi-g'arbiy qismiga joylashadilar. Garchi qish-loqlar Suvyorgan, Dovdon bo'ylaridagi toshqin suvlari bosadigan rayon-larda va uzun «uylar» bo'yidagi pastlik joylarda joylashgan bo'lsa ham, ammo bu vaqtda aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. SHuning uchun ham suv

---

[24] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

rejimining o'zgaruvchanligi endi dehqonchilik jamoasi a'zolarini suv yoqasi bo'ylab goh yuqoriga, goho pastga ko'chib yurishga majbur qilolmas edi.

Qadimgi bosh kanallarning deyarlik hamma asosiy o'zanlari mana shu uzun «uylarga» yonma-yon joylashgan. Bosh kanallarning saqlanib qolgan qirg'oq ko'tarmalarida Amirobod madaniyati yodgorliklaryning tipik namuna lari tez-tez topilib turadi. Biz ana shu faktlarga asoslanib sun'iy sug'orishniig vujudga kelishi va rivojlanish tarixiy protsessining ba'zi bir qonuniyatlari haqida tasavvur hosil qila olamiz.

Dehqonlarning ijtimoiy taraqqiyoti shu darajaga bornb etganki, tabiiy oqar suv mikdori kamaygan sari, jamoa a'zolari tashkiliy ravishda o'z dalalariga suvni sun'iy yo'l bilan kelgirish choralarini ko'ra boshlaganlar. Kanallar soni, Misrda O'rta podsholik[25] tarixida yuz Syorganidek qonuniy ravishda orta borgan. Natijada kanallarning boshi borgan sari yuqoriga surila borib, daryogacha borib etgan. Bu esa, o'z navbatida, ayrim kanal sonlarining juda kamayib ketishiga va yagona bosh kanal barpo etishiga olib kelgan. Beruniyda «Mazdubast» nomi ostida tilga olingan tarmoqni hozir «Tunudaryo» yoki «Zaykash» nomi bilan yuritilgan ko'llar tizimining va undan oqib chiqadigan o'zanning qadimgi nomi deb taxmin qilishga imkon beradi.

XIX va XX asrda o'tkazilan geologik tekshirishlar Pitnak va Xorazm vohalari bir-biridan uchlamchi davrda paydo bo'lgan balandlik relьef bilan ajralib turganligini ko'rsatadi. Bu hol ulariing har ikkalasi bitta qadimgi o'zan orqali qo'shilgan bo'lishi mumkin emasligini aniq ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, u erdagi mavjud ko'llarni bir-biri bilan bog'lagan hech qanaqa qadimgi o'zan izi yo'qligini kuzatish mumkin.

Garchi, avtor bu tekshirilayotgan masalani aniqlash maqsadida 1936 va 1937 yillarda bu joylarga borgan bo'lsa ham, ammo hech qanday natijaga erisha olmadi.

---

[25] Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – СПб., 1849 – 282 с.

Zaykashning, Zaykash nomli ko'ldan oqib chiqqandan keyin, o'zansi-mon xarakterda bo'lishi — allyuvial qatlamlardan ilgari mavjud bo'lgan pastliqda[26] vujudga kelgan ko'lning ortiqcha suvlari shimolny Dovdonning kuchli toshqinlari hosil qilgan janubiy dara orqalali o'ziga yo'l ochganligi bilan yoki bu darani ana




1-chizma, Xorazmda suniy sugorish rivojlanishining ikkinchi etapi sxemasi.Eramizga qadar IV-II asrlar.

shu suv oqimining o'zi asta-sekin vohaning tabiiy chegarasi bo'ylab sizib o'tib hosil ettanligi bilan ifodalash mumkin. Joyning relьefi SHimoliy Qorakum qismida oqimni o'ziga bo'ysundirgan va Xorazm pasttekisligining umumiy nishobiga muvofiq g'arb tomonga yo'l olgan va o'z yo'lida bir qator tizma ko'llarni vujudga keltirgan. Bu ko'llar irrigatsion loyqalarning sug'oriladigan

[26] Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.

erlarda[27] to'planib qolishi tufayli asta-sekin toraygan, chunki ortiqcha suvlar ichidagi loyqalar asosan ko'lning voha tomonidagi qirg'og'iga cho'kkan. Loyqali cho'kmalarning to'planishi va kulrangli yirik zarrachali Amudaryo qumlarining yo'qligi bu erda qadimgi o'zanniig izlari yo'q ekanligiyan ko'rsatuvchi ishonchli dalil bo'lsa kerak[28].



2-chizma. Xorazmning III—VI asrlardagi irrgatsiya tarmoqlarining sxemasi. SHartli belgilar;a— suv oqib turgan kanalar, *S*— Amudaryoningusha davrdagi o'zani; v — botqoq va toshqinlar; g— suvsiz o'zanlar; d —shaharlar.

SHunday qilib, hozirgi fan Amudaryoning voha chekkalari bo'ylab- joylashgan Tunudaryodai Sariqamish rayoniga oqqanligini tasdiqlamaydi[29], shu sababdan «Mazdubast» o'zani afsonaviy o'zandir. Eski daryo —«Dovdon»ga

[27] Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. - С. 42.

[28] Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. - С. 42.

[29] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

kelganda ish boshqachadir; bu haqiqiy daryo o‘zani bo‘lib, bunda daryoning yoki uning tarmog‘ining avvalgi oqimi haqidagi barcha xarakterli belgilar mavjuddir. Amudaryoning o‘z qirg‘oq bo‘yi polosasidagi qatlamlardan so‘ng Dovdonning boshlangan joyi aniqlangan emas. Lekin, V. V.ssinzerling uni SHohobod kanali boshlangan joyda o‘rnashgan deydi[30], D. A. Arxangelьskiy esa u YAngi Urganch va Xonqadan bir orqaroqda, CHatko‘pir punktidan taxminan 20 *km* janubi-sharqda *deb* takmin qiladi[31], A. V. Kaulьbars esa G‘oziobod va SHohobod kanallarini rilishida Dovdon o‘zanidan foydalanilgan deb hisoblaydi[20] (1-2 chizmalar)

## 1.2. XORAZMNING IX-XIII ASRLARDA SUG‘ORILISH DINAMIKASI

Ibn al-Asirning yozishiga qaraganda, arablar Xorazmda o‘z hukmronliklar 712 yilda, keyinroq batamom o‘rnatib bo‘lgan. Qutayba Xorazmdan qaytib kelgach, u erda siyosiy tushkunlik boshlandi. Bundan foydalangan Qutayba Mug‘ayra bin Abdullaga Xorazmni uzil-kesil zabt etishni topshiradi. Mug‘ayra ko‘p kishilarni qirib tashladi, ko‘plarini asir oldi, qolganlarini juzya to‘lashga rozi qildi [32]. SHu vaqtdan beri qariyb bir yarim asr davomida tarixiy va geografik adabiyotlarda Xorazm haqida hech qanday to‘la-to‘kis ma’lumotlarni uchratish qiyin.

X asr boshlaridan boshlab, musulmon SHarqining hamma mamla-katlarida bo‘lganidek, Xorazmdagi ahvol arab va Eron geograflari Ibn, Rusta, Al Istaxriy, Ibn Xovqal, Maqdisiy, Xudud-al Olam avtori va boshqalar tomonidan yoritila boshladi. Bu davrda Amudaryo etaklarining umumiy geografik o‘rni, shaharlari, kanallari, madaniyati, turmush tarzi yo‘llari va xalqlarining tavsifi hamma vaqtdagiga nisbatan ham mukam-malroq tarzda manbalarda yozilgan. Lekin, Amudaryoning qanday oqqanligi haqida hamma avtorlar ham aniq ma’lumot beravermaganlar. Masalan, IX asr oxiri X asr boshlaridagi olim va ulomalardan Ibn Xordadbex, YAqubiy va Ibn Faqixlar bu to‘g‘rida chalkash ma’lumotlar berganlar. Amudaryoning oqimi haqida eng ishonchli va mukammal ma’lumotni

---

30 Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 89.

31 Б. М. Георгиевский, Южный Хорезм, Ташкент, 1937, 20-бет.

32 В. И. Масальский, Туркестанский край, Россия, т. XIX, СПб., 1913

Ibn Rusta o'zining yozma manbalarida berganligini ko'rish mumkin. U bunday yozgan: «Qeyin u (Jayxun daryosi) Zamm (Karki)ga qarab oqadi, bundan so'ng ul Amul (CHorjo'y)ga, u erdan Xorazm tomon oqib, uning poytaxti (Kat) yaqinidan o'tadi. Poytaxtdan o'tgach, undan o'ng va so'l tomonlarga kanallar va shaxobchalar ajralib chiqqan. Ana shu suv asosida Xorazm shahridan to'rt farsax quyiroqda botqoqlik, chakalakzorlar va o'tloqlar paydo bo'lgan. SHundan so'ng daryo Xorazmdan to'g'ri chiqib Jurjoniya va Mazdaxqon o'rtalaridan o'tadi. Jurjoniya undan g'arbda, Mazdahqon esa sharqda qoladi. Jurjoniya poytaxtdan 24 farsax quyida joylashgan Mazdaxqon yonida, daryoning sharqiy qirg'og'ida Xarvoz deyiladigan qishloq bor, bu qishloqdan quyiroqda birin-ketin yana ikki qishloq mavjuddir.

(Jayxun) shu erdan oqib o'tayotganda undan so'l tomon qarab shaxobchalar ajrab chiqadi, daryo Jurjoiiyadan to'rt farsax quyida joylashgan Varag'deh nomli joyga qarab yo'naladi. Varag'deh va Siyoko'h tog'lari yonidan o'tib Barayoiz qishlog'iga oqib tushadi. SHu qishloqdan pastroqda Holijon deb ataluvchi ko'pgina botqoqliklar paydo bo'lgan. U erlarda baliq ovlanib, ular Xorazmdan tashqariga chiqariladi, uning o'zi (Jayxun) ko'lga quyiladi, ko'lning aylanasi 80 farsaxga yaqin. Uning g'arbiy qirg'og'ida Siyoko'h tog'lari, sharqida bir-biriga chirmashib ketgan daraxtlardan iborat chakalakzor joylashgan. Bu erdan na piyoda, na ot-aravada o'tib bo'ladi. U erda so'qmoq, baland-past yo'l bo'lib, unda qobonlar bo'ladi; (sharqiy) qirg'oqning shimoliy chegarasiga yo'nalgan (yo'l) orqali ham o'tib bo'ladi, «YAngi qishloq» deb ataluvchi qishloqning podshosi ham shu yo'ldan o'tadi[33].

Biz Ibn Rusta ma'lumotidan X asr boshlarida Amudaryo qadimiy-poytaxt yonidan o'tib, shimoli-sharqqa Ko'hna Urganch tomon oqqanligini ko'ramiz. Amudaryoning o'ng tomonidan ajrab chiquvchi shaxobcha, XX asr boshidagi Istamas ko'liga o'xshash chakalakzorln suv havzasi paydo qilib, Sulton Uvays tog'i tomon oqqan[34]. Amudaryo bu erdan hozirgi o'zanidan birmuncha g'arbroqda, Xo'jaylidan taxminan 20 kilometr g'arbroqda oqqan. Mazdaxqon va Jurjoniya

[33] А. Архангельский, Геологические исследования в кизовьях Аму-Дарьи, -М.—Л., 1931, 144-бет.

[34] В. В. Ц и н з е р л и н г, Орошение на Аму-Дарье, М., 1927, 89-бет

shaharlari Xorazm tarixida birinchi' marta Ibn Rusta tomonidan tilga olingan. Mazdaxqon Xo'jaylidan 8 kilometr janubi-g'arbda joylashgan. «Mazlumxon suluv»ning hozirgi harobalariga, Jurjoniya esa, hozirgi Ko'hna Urganch bilan unga yondashgan qadimgi shahar o'rniga to'g'ri keladi.

Amudaryo shu shaharlar o'rtasidan o'tib, Ustyurt qirlarining janubi-sharqiy tomoniga yo'nalgan, lekin Varag'deh qishlog'ining shunday (to'g'onqishloq) deb yuritshgashiga qaraganda, shu erda oqimning asosiy qismi to'g'on yordamida o'ngga qarab burilgan, Ustyurtning sharqiy qirlari atrofidagi katta-katta pastliklar esa, uncha qatta bo'lmaga shaxobcha (yoki shaxobchalar) bilan sug'orilgan.

V. V. Bartolьd Ibn Rusta qayd qilgan Holijonni Oybo'g'irda bo'lgan deb to'g'ri aytgan[35]. Ibn Rustaning so'zlarini Varag'deh qishloqidagi to'g'on suvning bir qismini Ustyurt qirlariga burish uchun xizmat qilgan deb tushunsa bo'ladi. Bu erlar X asrda ham sug'orilgan va suv toshqinlariga uchrab turgan bo'lishi mumkin[36]. Istaxriyning qoldirgan yozma manbalaridagi bu erdagi ko'l butun qish bo'yi muzlab yotardi[37] degan ma'lumoti, bu erda Orol dengizi bilan qo'shilmagan katta suv havzasi bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimiy Holijonning hozirgi Mo'ynoq rayoniga to'g'ri keluvchi shimoliy qismi shu kungacha ham baliq sanoatining yirik markazi bo'lib hisoblanadi.
Daryoning asosiy oqimiga kelganimizda, Ibn Rusta ta'kidlashicha u Varag'deh qishlog'i yonidan o'tib, hozirgi Qo'ng'irot shahridan anchagina shimolroqda Qushqanot tog'i va Qiziljar adrlari o'rtasida Orol dengizi tomon oqqan.

Istaxriy Xorazmning sug'orish tarmoqlari haqida yozar ekan, Xorazmning Amul (CHorjo'y) tomonidagi chegara punktini Tohiriya deb atalganligini aytib o'tadi. Jayxunning janub tomonida (so'l qirg'og'i- *YA. G'.)* aholi yashagan, uning shimoliy (o'ng qirg'og'i -YA. G'.) tomoni, G'arabxashna qishlog'igacha[10] bo'lgan erlarda aholi yashamagan. G'arabxashnadan 6 farsax yuqoriroqda Amudaryodan o'ng qirg'oq tomon «Govxo'ra» deb atalgan katta kanal qazib chiqarilgan. Uning kengligi besh tirsakka yaqin bo'lib, chuqurligi ikki kishi

---

[35] В. В. Бартольд, К истории орошения Туркестана СПб., 1914. 71-бет
[36] В. В. Бартольд, К истории орошения Туркестана СПб., 1914. 71-бет
[37] В. В. Бартольд, Сведения об Аральском море, 8-бет.

bo‘yiga to‘g‘ri kelgan[38]. Garchi tarixchilar Govxo‘ra kanali katta uzunlikka (12 va undak ko‘proq farsax) ega bo‘lgan deb qayd qilib kelayotgan bo‘lsalarda, yuqorida ko‘rsatilganidek uning kengligi tor bo‘lganligi uchun kemalar qatnay olmaganligini ko‘rsatadi.

Govxo‘ra kanalining boshidan 5 farsax quyiroqda Kerix yoki Kirya[12] kanali ajrab chiqib, u o‘ng qirg‘oqning ba’zi bir maydonlarini sug‘organ.
Amudaryoning chap qirg‘og‘ida uning etaklarining oxirigacha daryo poymasi yotqiziqlaridagi aholi yashaydigan joylar, ekin maydonlari (Darg‘on, Jigarband, Sadvar va boshqalar) uncha katta bo‘lmagan mahalliy kanallar orqali sug‘orilgan.




3-chizma. X asrdagi Xorazmning irrigatsion tarioqlarining skemasi. SHartli belgilar: a-suv oqib turgan kanallar; b-Amudaryoning o‘sha davrdagi o‘zani; v-botqoq va toshkinlar; g-shaharlar.

[38] Я. Гулямов, К истории возникновения ирригации в низовьях Аму-Дарья » о археологическим данним, Сборник материалов научной сессии АН УзССР. Ташкент, 1947.

Xorazmning so'l qirg'og'idagi joylar ko'pgina qadimiy va qazilganiga uncha ko'p bo'lmagan kanallar bilan sug'orib kelingan. Ular ichida eng janubiysi Xazorasp kanali bo'lgan. Istaxriy uni Xorazmning Amul tomonidagi (janubda-YA.G'.) eng birinchi kanal sifatida ko'rsatib o'tadi.

Istaxriyning aytishicha, Xazorasp kanalining kengligi Govxo'ra kanali kengligining yarmiga to'g'ri kelgan[39]. Xazorasp kanali shunday kichik bo'lganligi sababli, Istahriyning shu kanaldan kema qatnar edi degan gaplari haqiqatdan uzoqdadir. Xazorasp bilan Tuyamo'yin oralig'idagi joy toshloq bo'lib, kanal o'tkazish uchun yaroqsiz bo'lganligi tufayli, kanalning bosh qismini Tuyamo'yin darasi va Toshsaqo balandligining g'arb tomonidan qidirmoq maqsadga muvofiqdir.

Xazorasp ikki farsax nariroeda Xazorasp kanalidan kattaroq Kardaronxos kanali bo'lgan. Kardaronxos[40] shu nomdagi shahar yoki qal'aga olib kelingan




4- chizma. CHingizxon istelosidan oldin (XIII asr) Xorazmning sug'orish tarmoqlari va gidrografiyasining sxemasi.

---

[39] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.
[40] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

bo'lsa kerak. Maqdisiyning aytishicha, Qardaronxos qal'asi Xazoraspdan uch farsax g'arbroqda, Xazorasp- Xevaning katta yo'lida bo'lgan. Kardaronxosni biz Qal'ajiqning harobalariga o'xshatamiz.




5-chizma. Xorazmning XIV asrdagi sugorish tarmog'i va gijrografiyasiniig sxemasi.

X asr olim va ulomalaridan Istaxriy, Maqdisiy va "Xudud al Olam" qo'lyozmasi YA. G'ulomovning ma'lumotiga ko'ra, Kardaronxos Xeva bilan Xazorasp o'rtasida bo'lgan(3-chizma). Xazoraspdan Kardaronxosgacha uch farsax, Xevagacha besh farsax masofa bo'lgan. Bu uch punkt o'rtasidagi masofaga qariyb

to‘g‘ri keladi. X asrda Xazorasp va Kardaronxos shahar bo‘lmay, darvozalari va xandog‘i bor qal’a bo‘lgan[41]».

Abulg‘ozi XVI asr voqealari munooabati bilan bu punktni “Kardan xast» nomi bilan ataydi[42]. Murozalardan so‘ng yangi geografik[43] va arxeologik[44] tekshirishlardan keyin ham, XIII asrlarda Daryoliq bo‘yicha bo‘lgan oqimning hajmi va xarakteri aniqlanmay qoldi. A Кesь va S. P. Tolstovning kuzatishlari[45] tarixiy davrda Uzboy bo‘ylab oqim bo‘lmaganligiga va Amudaryo XIII-XIV asrlarda faqat Sariqamish chuqurligigacha oqqanligiga bizni bir qadar ishontirdi. Ammo shu munosabat bilan Amudaryoning ortiqcha suvıari qaerga oqqan degan savol tug‘iladi. Sirtdan qaraganda manzara ochiq oydinday tuyiladi. Qutlug‘ Temurning 1349 yilda yozilgan vaqf hujjatida ko‘rsatilishiga ko‘ra, Bag‘dod shoxobchasi sun’iy qazilgan kanal bo‘lib, ikki tomonida balandlik (rosh) bo‘lgan va X asrdagi Kurdar kanaliga to‘g‘ri keladi. 1333 yilda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab sayohat qilgan Ibn Botuta mo‘g‘ullar istilosi davrigacha Amudaryoning birorta tarxobchaei bo‘lganligi haqida gapirmaydi. 1221 yillardan so‘ng va umuman XIII, XIV va XV asrlarda suvning kanallarga taqsimlanishi ko‘paymagai, aksincha kamaygan; Govxo‘ra, Vadok hamda Buva kanallari harakatdan to‘xtagan(4-5- chizmalar).

Injener-irrigator F. P. Morgunenkovning hisoblab chiqishiga ko‘ra, Amudaryoning suvi shunchalik ko‘p bo‘lganki, 1911-1914 yillardagi maydonlarga sarf qilingan maksimal suv miqdoridan foydalanilganda, Sariqamish ko‘lini to‘rt yilda to‘ldirish mumkin bo‘lar edi. Beshinchi yilga kelib suv O‘zboy tomonida shoxobcha yaratishi kerak edi[46]. Ammo, Amudaryo Sariqamishga to‘rt yil emas, balki 300 yildan ortiqroq oqdi. O‘sha vaqtlarda suv irrigatsiya uchun 1911-1914 yillarga nisbatan ancha kam sarf qilinar edi. SHunday qilib, har qanday tadqiqotchi quyidagi ikki hoiga rozi bo‘lishga majburdir:

---

41 A.M.Mamedov. Razvitiya irrigatsii v Uzbekistane-T. Fan, 1967, 239 bet.

42 Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

43 Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

44 Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

45 С. П. Т о л с т о в, Новые материали по истории культуры Древнего Хорезма М ВДИ, 1946, N6 1.

46 Моргуненков Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

1. Amudaryo XIII-XVI asrlarda yagona kuchli oqim bilan Sariqamishga borib quyilgan va u erdan Uzboy orqali o'tib Kaspiy dengiziga quyilgan

2. SHu bilan bir vaqtda, uning asosiy oqimi Urganch bilan Mazdaxqoi o'rtasidan o'tadigan Eski Ukuz (Amudaryoning mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan oqimi) bo'ylab ham oqib o'tgan.

# II bob. So'ngi o'rta asrlarda Xiva xonligida yer egaligi va sug'orish ishlari. Dehqonchilik an'analari.

## 2.1. So'ngi o'rta asrlarda Xiva xonligida yer-suv munosabatlari va dehqonchilik an'analari.

Orol-Kaspiy havzasining qadimiy aholisi bo'lgan turkman g'uzlar Xorazmda qadimdan yashovchi asosiy xalqlardan biri bo'lgan. O'rta asrlarda ular Xorazm vohasi chekkalarida, Mang'ishloqda, Qoraqumda yashaganlar. Ular chorvachilik va qisman Adoq rayonida dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Xorazm turkmanlari o'zlarining hayotiy manfaatlarini Xorazm bilan bog'lab olib borganlar, Xorazm hukmronlarining xazinasi uchun soliqlar to'laganlar, harbiy kuch sifatida shoxlarga sodiq xizmat qilganlar. Ular Xorazm o'zbeklari bilan birga Janubiy Turkmaniston (Murg'ob vadiysi, Tajan, Atrek, Gurgav vodiysi) da yashovchi o'zlarining urug'doshlariga qarshi bir necha marta urushga chiqqanlar. Ular bu kurashni Xorazm shohlariga sadoqatliklari yuzasidan emas, Xorazmning qoloq aholisiga shohlarning qilgan «g'amxo'rligi» tufayli emas, balki siquv ostida qolmaslik, erdan, suvdan va ona o'lkaning yaylovlaridan ajrab qolmaslik uchun qilganlar. SHunday bo'lsada, so'nggi o'rta asr davrida ko'p o'rinlarda «turkmanlarning Xorazmdan haydab chiqarilganligi»[1] haqidagi ma'lumotga egamiz.

Abulg'ozining bayon qilishiga ko'ra, 1537 yilda Xorazmning o'zbek shahzodalari Buxoro xoni Ubaydulla bilan uzil-kesil jang qilmasdan oldin Adoq hizir eli boshlig'ini chaqirib, unga shunday so'zlar bilan murojaat qilganlar: «Vatanni talab qilish uchun ketayotirmiz; agar siz yordam bersangiz, dushman ustidan g'alaba qozonguday bo'lsak, sizning urug'ingizni o'zbeklarning eng imtiyozli urug'lari bilan tenglashtiramiz va taxtning chap tomonidan o'rin beramiz, hamda sizning

urug'ingizni «tarxon» deb e'lon qilamiz»[47]. Bunday va'daga ishongan turkmanlar Xorazm shahzodalariga haqiqiy yordam berdilar va mamlakatni buxoroliklardan qutqarib oldilar, ammo keyingi voqealar haqiqatan ham xizireli turkmanlari shahzodalar tomonidan va'da qilingan huquqni olganliklari haqida guvohlik bermaydi.

Xorazmliklarning bu g'alabasidan keyin bir necha o'n yillar o'tgach, Ko'hna Urganch, Bazir, Adoq rayonlari suv qurib qolganligi sababli sahroga aylangan; xizireli va boshqa urug'lar uchun Janubiy Xorazm kanalining oxirgi uchastkalariga ko'chishdan boshqa chora qolmadi. Ali sulton ham Arabmuhammad kanali orqali sug'oriladigan Oybo'g'ir erlari esa[48], qo'ng'irot va qiyotli, shu kabi o'zbek urug'lari bilan butunlay band edi. Qalmoqlar (jung'orlar) tez orada Mang'ishloqdan turkmanlarni siqib chiqarganlar[49], turkmanlar, aftidan, Xorazm vohasi atrofiga ko'chgan bo'lsalar kerak.

Janubiy Xorazm rayonlari XVII asrning birinchi yarmidai boshlab[50], o'zbek va turkmanlar o'rtasida er, binobarin, suv uchun kurash maydoni bo'lib qoldi. Turkmanlar hamda o'zbeklar o'rtasida juda muhim, iqtisodiy manfaatlar uchun bo'lgan bu kurashdan Arabmuhammadning o'g'illari Abulg'ozi va Asfandiyor o'z maqsadlari taxt uchun kurash yo'lida foydalandilar. Asfandiyor turkmanlarga tayanib otasining taxtini egalladi. Uzbek urug'lariga suyangan Abulg'ozi faqat Asfandiyorxon o'lgandan so'ng, shunda ham birdaniga emas, xonlikni o'z qo'liga olgan. 1643 yilda avvalo uni Orol xoni qilib sayladilar. Hokimsiz qolgan Xiva turkmanlari Xivani tabelikka olish va bu erga noib yuborishni so'rab Buxoro xoni Nodirmuhammadga (1642- 1645) murojaat qilganlar. Abulg'ozi Orol o'zbeklariga tayanib Xivaga qarshi urush boshladi. U 1645 yilda Xivani ishg'ol qildi va turkman larni Xorazmdagina emas, balki Janubiy Turkmanistongacha bo'lgan erlarda ham qira boshladi. Abulg'ozi turkmanlarni siqib qo'yib va kuchsizlantirib, Buxoroning shimoliy va g'arbiy oblastlarini xona-vayron qilib, Buxoro xonligiga

[47] Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон / Сўзбоши ва изохлар Ш. Вохидовники, араб ёзувидан табдил Ш. Вохидов ва Р. Холикова, кўрсаткичлар Ш. Вохидов ва Д. Сангирова. –Т., Янги аср авлоди, 2008. – Б. 5.
[48] А. Архангельский, Геологические исследования в кизовьях Аму-Дарьи, -М.—Л., 1931, 144-бет.
[49] А. Архангельский, Геологические исследования в кизовьях Аму-Дарьи, -М.—Л., 1931, 144-бет.
[50] Б. М. Георгиевский, Южний Хорезм, Ташкент, 1937, 20-бет

qarshi kurash boshladi. Abulg'ozi o'zi lodsholik qilgan davrda Buxoroga qarshi etti marta qirg'in keltiruvchn hujum qilgan. Uning vorislari ham shu siyosatni davom ettirganlar. N. Veselovskiy bu hujumni «Xazinani to'ldirish uchun qilingan talon-tarojlik»[51] deb qaraydi. Ammo bu, masalaga bir tomonlama qarash edi, masalaning ikkinchi, asosiy tomoni bu jiddiy raqibni kuchsizlantirish uchun Buxoro xonligining ichki kelishmovchiliklaridan foydalanish edi. Abulg'ozi o'zbek urug'larini qo'llab-quvvatlab, ularga sug'oriladigan erlarni olib berdi; masalan, Darg'ondan to Orol dengizigacha bo'lgan Amudaryoning chap va o'ng qirg'og'idan olingan kanal atrofidagi erlar ular o'rtasida taqsimlangan edi. O'zbek urug'larining oqsoqol feodallariga davlatning yuqori mansablari berilgan edi.

Abulg'ozi davrida xonlik iqtisodiy va siyosiy jihatdan Movaro-unnaxr va Xurosonga intildi. Bu, yangi markaz boshchiligida Janubiy Xorazmdagi «Beshqal'a» besh shaharning[52] salmog'ini kuchaytirdi. 1646 yilda, ya'ni Abulg'ozi Xeva taxtiga o'tirgandan keyin bir yil o'tgach, u yangi Urganch (hozirgi Urganch shahri) istehkomini qurdi va u erga o'rta asr Xorazmning markazi - Urganchdan aholini ko'chirib keltirdi. Eski Urganchning xarobalari o'sha davrdan boshlab Ko'na (Ko'hna) Urganch deb atala boshladi. O'rta asrdagi Vazir shahri xarobaligicha qolib ketdi. Eski Vazir shahrining aholisi ko'chirilgan Kichik Vazir Gurlandan 12 *km* shimoli-g'arb tomonga joylashgan. Yangi Vazir shahri XIX asrda aholisi ancha zich shaharga aylangan.

Qiyotjorg'an qadimgidek Qo'ng'irot shahari yaqinidan shimol tomonga qarab oqqan, u Ko'nadaryodan ajralib chiqqan va Qo'ng'irot bilan Ustyurt qirlari o'rtasidan oqib o'tgan[53]. Xon qo'shinlari bu erdan o'tgan vaqtda yoz toshqinlari davri edi; delьtaning Qo'batovdan Bo'zg'ulgacha bo'lgan markaziy qismiga suv toshgan edi va otliqlar suv kechganlar. Xiva xronikalarida SHo'rqochuv faqat so'nggi etti-sakkiz yil ichida, ya'ni taxminan 1850 yildan boshlab kuchayib

---

[51] Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. -Т., 1957. - 326 с.

[52] Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлок. - Тошкент.: Ёзувчи, 1993.

[53] Ғуломов Я.Г. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. - Т.: Фан. 1959. - 249 б.




6-chizma. XIX asrning ikkinchi yarmida Xorazm irrigatsnya tarmog'ining sxemasi.

ketganligi qayd qilinadi. Ogahiyning so'zlariga ko'ra, bu vaqtda Mųhammad Amii quyi delьta bo'ylab sayohat qilib, Qo'ng'irot rayoni҉a kelgan, shu davrda Qo'ngirotning janubida Amudaryo suvi katta tarmoqlarni vujudga keltirgan edi. Bu tarmoqlar etti joydan g'arbga tomon urib ketgan. Ular kengligi 70 va 140 metrgacha bo'lgan. Xon bu tarmoqlarning hammasini bekitib tashlashni buyurgan

va u erda shunday buyuk to'g'onlar qurganlarki, go'yoki bu to'g'onlarni «kishilik tarixida hech kim ko'rmagan, va hatto hayolga ham keltirmagan» emish"[54].

Qo'ng'irotdagi Ko'nadaryo suvi eski Quyg'un erlarini bosib o'tib, g'arb tomonga urib ketgan bo'lishi mumkin. Suv tarmoqlari to'g'onlar bilan bekitilgandan so'ng, bu erdan bir oz yuqoriroqdan, sharq tomondan SHo'rqochuv suvi urib ketgan. Amudaryoning uchdan ikki qism suvi SHo'rqochuv orqali oqqanligi tufayli markaziy delьtadagi kuchli suv toshqinini ko'z oldimizga keltarishimiz mumkin.

Qiyotjorg'an o'zining joylashish o'rniga ko'ra XIX asrdagi CHumanoyga mos keladi. CHumanoy nomi unda uzoq muldat saqlanib qolgan va ko'pgina kartalarda shunday (CHumanaviy yoki SHumanoy) deb beriladi(6-chizma). Qiyotjorg'an qadimgi tarmoq bo'lishi kerak. XVII asrda o'zbek qabilalarini joylashtirish davrida qiyotlar qo'ng'irotlar bilan birgalikda bitta to'parni tashkil qilganlar va o'zbeklar bilan Quyg'unning eng unumdor erlariga joylashganlar. Qo'ng'irotning janubi-sharqida Qnyot qal'asi bo'lgan. Qiyotjorg'an (qiyotlar qazigan) kanali ularning ekin maydonlarini sug'orish uchun qazilgan bo'lishi mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda Qo'ng'irot shahri rayonida ikkita kanal bo'lgan: Xonjop (Xonyop) va Begjop (Begyop)[55](7-chizma). Qadimdan Qo'ng'irotda yashab kelayotgan kishilarning hikoya qilishiga qaraganda, Ko'nadaryo XX asrning so'ngi choragida ikki marta qurib qolgan, uning sharqida esa CHo'lan deb ataluvchi kuchli tarmoq vujudga kelgan. Qoraboylining etagidagi suvi ham CHo'langa qo'shilib ketgan. XIX asrning 80 yillarida Qoraboylini qaytadan tiklaganlar, ammo bu safar suvni kanaldan chiqarganlar. Qoraboylidan tashqari u Evmutyop deb ham yuritilgan. Bu kanalning quyi oqimi Qo'ng'irot shahri territoriyasidan o'tgan. Kanal Xeva xoni Muxammad Rahimning ijozati bilan qurilganligi uchun uni Xonyop deb ataganlar.

---

[54] Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1957. – 326 с.
[55] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.




7-chizma. Xorazmning 1956 ynldagi irrigatsiya tarmoqlarining sxemasi

Qo‘ng‘irotliklarning bir ovozdan tasdiqlashiga ko‘ra, Begjop kanali dastlab Toldivdan o‘tkazilgan va dengizgacha etkazilgan. Uning qurilishini 1857 yilgi qo‘zg‘olondan oldin Qo‘ng‘irot shahri istehkoklarini mustahkamlagan Qushbegibekka taqoza qiladilar (u qo‘zg‘olonchi sifatida Xeva xonligining boshqa amaldorlari bilan birgalikda o‘ldirilgan). Qo‘ng‘irotliklarning hikoya qilishiga ko‘ra, Begjopning boshi dastlab Qoratovning janubida bo‘lgan. SHo‘rqochuvning urib ketishi munosabati bilan Begjopning so‘nggi oqimi Qo‘ng‘irotgacha etib

bormagan. 50 yil davomida (1946 yilgacha) Begjopning boshlanishi «qismi olti marta goh Amudaryo tarmog‘iga, goh Xonyopga qo‘shilib turgai. Sonyopning boshlanish qismi shu tartibda o‘zgarnb turgan[56].

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo‘lib, XVII asrdan boshlab mustaqil mamlakat sifatida tanilgan. Xiva xonligida 1763 yildan boshlab qo‘ng‘irot urug‘i vakillari – inoqlar hukmronlik qila boshlagan[57]. 1873 yilda Xiva xonligi ruslar istilosidan keyin Rossiyaga qaram bo‘lib qolgan. 1920 yilda esa bolsheviklar tomonidan davlat sifatida butunlay Xiva xonligida ichki va tashqi savdo ancha rivojlangan edi. Ichki savdoda, asosan mahalliy mollar (qishloq xo‘jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari) katta o‘rin tutgan. Chetga aksariyat hollarda hunarmandlarning nafis buyumlari va dehqonchilik mahsulotlari sotilgan. Xivaliklar savdogarlarning mamlakat orqali olib o‘tadigan yuklaridan ham boj olgan[58]. Xonlik hududi orqali Rossiya, Buxoro kabi davlatlardan o‘tadigan savdo kar-vonlaridan olingan to‘lovlar saroy xazinasiga katta daromad keltirgan[59]. Bu yerlarda aholidan asosan xiroj, zakot, boj, juz'ya kabi qo‘shni musulmon davlatlaridagi kabi soliqlar undirilgan. Ular shariatda ko‘zda tutilgan miqdorda bo‘lgan. Soliqlardan tashqari, aholi turli majburiyatlarni bajarishi shart bo‘lgan. Erta bahorda ariq va soylarni tozalash, yangilarini qazishda o‘z yeriga ega bo‘lgan har bir xonadondan bir kishi 15 kun ishlab berishi zarur bo‘lgan. Xiva xonligida davlat yerlarida yashagan dehqonlar arabcha ushr solig‘ini to‘lagan. Chig‘iriq yordami bilan sug‘oriladigan yerlardan hosilning o‘ndan bir qismi, chig‘iriqsiz sug‘oriladigan yerlardan esa, hosilning beshdan bir qismi olingan.

Xonlikda qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik), savdo-sotiq va hunar-mandchilik iqtisodning asosiy tarmoqlari hisoblanardi[60].

---

[56] А. Архангельский, Геологические исследования в кизовьях Аму-Дарьи, -М.—Л., 1931, 144-бет.

[57] Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Пер. и примеч. И. В. Пьянкова. – Душанбе.: Дониш., 1975.

[58] Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII–первая половина XIX в.) – Т., Фан, 1982. – 92 с.

[59] Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1990. – 195 с.

[60] Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 83-89;

Mamlakatning asosiy boyligi yer bo'lib,Shayboniylar davrida yer egalarining quyidagi asosiy tarmoqlari avjud edi:
1. Mulki sultoniy-davlatga qarashli yerlar.
2. Mulki xolis-xususiy shaxslarga tegishli yerlar.
3. Vaqf-diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlarga, qabristonlarga qarashli yerlar.
4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.

Dehqonchilik asosan sug'oriladigan hosildor yerlarda va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan adirlar, tog' va tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Yerda mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yer maydoniga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda lehqonchilik qilib kun kechirgan.

Manbalarda keltirilishicha, bu davrda bug'doyning o'n xil navi, arpa, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, kunjut, beda, suli, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan. Texnik ekinlardan sholi, paxta va boshqalar ekilgan. Sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va ipakchilik yuksak taraqqiy etgan.

Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hosildor yer maydonlari, bepoyon yaylovlar xon va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma'muriy amaldorlarga qarashli edi. Bu davrda xususiy yer egaligining o'rta asrlarda mavjud bo'lgan iqtl', suyurg'ol va tanho shakllari ham keng tarqalgshan. Harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan yersiz kambag'al dehqonlar yollanib ishlaganlar.

## 2.2.Xiva xonligida sug'orish tizimining tashkil qilinishi va ulardan foydalanish

XIX asr o'rtalarida, hozirgi O'zbekiston hududida Xiva xonliklari, ularga tegishli yarim mustaqil ma'muriy hududlar (bekliklar) mavjud edi. Bu mustaqil davlatlarda 3,5 mln.ga yaqin aholi istiqomat qilgan. Aholining 90 foizdan ko'progi

qishloq xo'jaligi - dehqonchilik va chorvachilik bilan band edi[61]. XIX asr o'rtalarida va undan keyinroq ham dehqonchilikda yetishtirilgan ekinlarning ustivor joylanishi quyidagicha bo'lgan: birinchi o'rinda don ekinlarini yetishtirish turgan. Boshoqli ekinlar (bug'doy; arpa) asosan lalmikor yerlarda yetishtirilgan[62]. Sug'oriladigan yerlarda sholi, jo'xori, tariq, dukkakli ekinlar (mosh, loviya) ekilgan. Don maxsulotlari bilan qishloq aholisi o'z ehtiyojlarini va shahar aholisi ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, yetishtirilgan hosilning bir qismi qo'shni, chorva bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi davlatlarga eksport qilingan, buning evaziga chorvachilik maxsulotlari keltirilgan. Ikkinchi o'rinda bog'dorchilik va uzumchilik turgan, bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlarining bir qismi, asosan quritilgan xolda (turshak, mayiz) tashqi savdoga chiqarilgan. Uchinchi o'rinda sabzavot va poliz ekinlari turgan. To'rtinchi o'rinda chorvaga kerakli bo'lgan beda va boshqa ozuqa ekinlari va nihoyat, beshinchi o'rinda, paxta ekini bo'lgan. Paxtaning mahalliy navi (g'o'za) ekilgan va u asosan ichki ehtiyojlarni qondirish uchun yetishtirilgan.

Tabiiyki, ekin turlari va ularni joylashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan biron-bir ma'muriy mahkama yoki maxsus tayinlangan shaxslar bo'lmagan. Bu masala talab va ehtiyojlarni hisobga olgan. holda bozorgir mahsulot yetkazishga intilishlar ta'sirida o'z yechimini topgan. Shu sababli ayrim mahsulotlar bir yili «serob» bo'lsa, kelasi yili «taxchil» bo'lgan...[29] Sug'oriladigan yerlar jamoa mulki bo'lib, ularga qabila yoki urug'lar egalik qilganlar. Bora-bora ana shu jamoa mulklari chegarasida yerga egalikning yangi ko'rinishlari – yerga shaxsiy mulk sifatida egalik qilishning formalari yuzaga kelgan. Xiva xonligi hududida yerga egalik qilishning quyidagi turlari mavjud edi:

- jamoa mulki (ba'zi joylarda «sanoqli yerlar» deb atalgan) - yuqorida aytganimizdek qabila, urug' yoki keyinroq biron-bir qishloq aholisiga tegishli yerlar ko'pincha muayyan bir qishloqda ma'lum qabila yoki urug'ning vakillari qadimdan istiqomat qilganlar. Ko'p xollarda bunday yerlar lalmikor yerlar bo'lib,

---

61 Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент., 1959. – 350 б.

62 Моргуненков Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

ularni «sanashli yerlar» deb atalishining sababi bor, albatta. Bunday yerlar odatda xar yili qabila yoki qishloq aholisi o‘rtasida yil boshida (Navro‘z oldidan) yangidan taqsimlangan. Bu maqsadda ko‘rsatilgan kun va joyda qabila yoki qishloq aholisi o‘z qo‘shlari (qo‘sh ho‘kiz va omoch) bilan to‘planishgan. Kuchi yetgan xonadonlar bir nechta qo‘sh bilan, kuchi yetmaganlar ikki-uch xonadon bir bo‘lib bitta qo‘sh bilan kelgan... Qishloq oqsoqoli va miroblar bor yerni yig‘ilgan qo‘shlarning soniga qarab taqsimlashgan. Jamoa a'zolariga yer taqsimlashdagi bu usul yil bo‘yi shu jamoada sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va oilaviy o‘zgarishlarni inobatga olishga yordam bergan va shu nuqtai nazardan u demokratik usul deb tan olinishi mumkin.

– xususiy mulk – yerga egalik qilishning xususiy mulk «ko‘rinishidagi turi jamoa yerlari hisobiga yoki o‘z kuchi bilan suv chiqarib, masalan, suvsiz yerda korizlar yoki quduqlar qurish yordamida, «o‘lik yerlar»ni o‘zlashtirish hisobiga (Shariat ko‘rsatmalariga binoan bunday yerlar va qurilgan koriz yoki quduq suvi bilan xususiy mulk hisoblangan) shakllangan. Zamonlar o‘tishi bilan jamoaga qarashli «sanoqli yerlar» chegarasida hosil bo‘lgan bog‘-rog‘lar, uzumzorlar ularni barpo qilganlarga rag‘batlantirish maqsadida bir umrga foydalanishga berilgan, bular chegarasida esa qo‘rg‘onlar, turar-joylar yuzaga kelgan;

- amlok yerlar - amir, xonlar va hukmdorlarning yaqinlariga tegishli yerlar, ularning xususiy mulki hisoblangan;

- vaqf yerlar xususiy yer egalari tomonidan (hukmdorlar, katta yer egalari va boshqalar) Madrasa va masjidlarga, din va shariat arboblariga bir umrga foydalanishga hadya qilingan yerlar, vaqfnoma asosi-da hujjatlashtirilgan. Bunday hujjatlar-hamma tomondan istisnosiz tan olingan va shariat tomonidan himoyalangan[63].

Ko‘rinib turibdiki, o‘tgan asrning o‘rtalarida yerga egalik qilishning qanday atalishidan qat'iy nazar, asosan ikki turi mavjud ekan: jamoa (sanoqli) yerlari va shaxsiy mulk ko‘rinishidagi turlari. Faqat vaqfnoma asosida hadya

[63] Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 83-89; Вакфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.

qilingan yerlar, kimga berilganiga qarab, ba'zan jamoa mulki, ba'zan esa shaxsiy mulk sifatlariga ega bo'lgan. Sug'oriladigan dehqonchilik maqsadlariga xizmat qilgan sug'orish inshootlarining asosiy qismi mahalliy qurilish materiallari – tuproq, tosh, yog'och, qamish, shox-shabbalar yordamida oddiy tuzilishda qilib, boshqacha aytganda, tez va arzon qurilgan, sug'orish kanallarining o'zanlari tuproqda (grunt) kovlangan. Bu narsa o'z navbatida inshootlarning suv ta'siriga chidamsiz bo'lishiga sabab bo'lgan. Pirovard natijada suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar deyarli butun yil davomida sug'orish tarmoqlarida qurish, ta'mirlash, tozalash (kanal va ariqlarni qum-loyqalardan) ishlari bilan band bo'lishga majbur bo'lganlar. Aniq, bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, har bir yeri bor dehqon sug'orish ishlariga yiliga hashar yo'li bilan kamida 10– ish kuni sarf qilgan. Bu miqdorni ma'lum darajada tasdiqlash uchun xorazmlik dehqonlarning bizdan uncha olis bo'lmagan 30–40-yillarda yirik va xo'jalixlararo kanallar tarmoqlarida kishi boshiga yili 40–50 $m^3$ tozalash ishlarini bajarganliklarini ko'rsatib o'tmoqchimiz. Bundan tashqari, ko'plab ta'mirlash va qayta qurish ishlarini bajarganlar.

Qabila yoki urug' a'zolari dehqonchilik, keyinchalik sug'oriladigan amalda sug'orish ishlarini tashkil qilish, uni boshqarish sohasida yangidan-yangi ehtiyojlar tug'ila boshlagani aniq, va bu fikrga shubha qilmasa ham bo'ladi.

XIX asrning o'rtalariga kelganda yerga egalik qilishning, u qanday atalishidan qat'iy-nazar, ikki shakli – jamoa mulki va xususiy mulk ko'rinishidagi shakllari mavjud bo'lgan. Ularni asosan 3 ko'rinishda ta'riflash. mumkin: o'z yerida o'z kuchi bilan dehqonchilik qilish dehqon xo'jaliklari ko'rinishida, chetdan ish kuchi yollab dehqonchilikdilish va ortiqcha yoki tasarrufida bo'lgan yerlarni boshqalarga ma'lum shart-sharoitlarda foydalanishga berish (pudrat usuli) orqali dehqonchilik qilish. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilar yerga nisbatan, undan olinadigan, foydaga nisbatan turlicha munosabatlarda bo'lganlar va tegishli haq-huquqlarga ega bo'lganlar. Shu bois ko'pchilik kuchi va mablag'lari evaziga bajariladigan sug'orish ishlarida hammaning bir xilda qatnashishi nafaqat insof yuzasidan, o'sha zamon shariat

qonun-qoidalari va odatlari nuqtai nazaridan ham adolatdan emas edi[64].

Sug'orish tizimi boshqaruvining «Xorazm modeli»[65] boshqacha bo'lgan. Xorazm voxasida sug'orish tizimlari boshqaruvining «pog'onalari» mahalliy shart-sharoitlar moxiyatidan kelib chiqib boshqacharoq bo'lishi tabiiydir. Yuzlab kilometrga cho'zilib ketgan yirik sug'orish kanallari, ularning «ko'p boshli», ixota to'g'on (damba)lari bilan himoyalangan boshlanish qismidan foydalanish, ekspluatatsiya qilish, kanallarda har yili bajariladigan bir necha millionlab kubometrga teng qazuv;tozalash ishlari xamda sug'orish tizimining o'ziga xosligi (yirik kanallarning boshlanish qismi «soqqa» deb atalgan, toshsoqqa, magistral kanal – «arna», Paxta-arna, bo'luvchi kanal – yob, «Sovet-yob», kanal tarmoqlari yoki shoxobchalari – «bedaklar» xamda dalaga suv keltiruvchi doimiy ariqlar «solmalar», kanal bosh inshooti – bedrov» va xokazolar) boshqaruv ishini tashkil qilishda va amalga oshirishda ma'lum aniqlik va mustahkam intizom bo'lishini taqozo qilgan. Shu bois yaxlit va murakkab sug'orish tizimiga kirgan uning tarkibiy qismlaridan foydalanish, ishlarni tashkil qilish va nazorat o'rnatish mas'ul shaxslarga topshirilgan. Xon devonida ham bu ishlarga mutasaddi qilib yuqori lavozimli mansabdor shaxslarni yoki ularning oga-inilari tayinlangan[66].

Agar sug'orish tizimlari boshqaruvining Zarafshon va Xorazm «modellari»ga yana qaytadigan bo'lsak, ular o'z moxiyati va ma'nosi bilan biz hozir biladigan va uzoq o'n yilliklar davomida ko'nikma hosil qilgan irrigatsiyada boshqaruvning «ma'muriy-hududiy» prinsiplarda tuzilgan ko'rinishi emas, balki «texnologik hududiy» asoslarda tuzilgan ko'rinishi edi. Bu detal so'z – boshqaruv rninghududlarining chegaralari, binobarin boshqaruv pog'onalari aniqlanganda ana shu hududlarning ma'muriy-siyosiy chegaralari, balki biron-bir-sug'orish tizimi suv bilan ta'minlaydigan hudud chegaralari va uning bo'laklari asos qilib olinadi[67].

Qizig'i shundaki, bu lavozimlarni egallash uncha-muncha odamning qo'lidan

[64] Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 83-89; Вакфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.

[65] Мухамаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

[66] Мухамаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

[67] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

kelavermasdi. Masalan, mirob lavozimiga, biron-bir qishloq dehqonlarining yoki urug‘ vakillarining yig‘inida o‘z oralaridan ishbilarmon, sofdil va insofli odam (odamlar) nomzod qilib ko‘rsatilib, demokratik usulda (ya'ni ovoz berish yo‘li bilan) saylanardi va u ana shu qishloq aholisi oldida javobgar hisoblanardi. mirobning vazifasiga manba (daryo, soy, anhor va h.)dan kanalga suv chiqarish, uni ariqlar yordamida dalalarga haydab kelish va dehqonlarga bo‘lib berish bilan bog‘liq barcha ishlarni (ariq kovlash, inshoot qurish, tozalash va ta'mirlash ishlari, suvni bo‘lish kabi) bajarishda suvdan foydalanuvchi, ya'ni dehqonlarga yaqindan yordam berish, ularni shu ishlarga tashkil qilish kiradi. Demak, mirob maxsus amaliy bilim va tajribadan tashqari, shariat-odat qonun-qoidalaridan xabardor, odamlarning boshini qovushtirib ishlatish qo‘lidan keladigan ish boshi ham bo‘lishi kerak. Agar mirob o‘z ishining uddasidan chiqmayotgani ayon bo‘lib qolsa, qishloq yoki urug‘ yig‘ilishi uni boshqa miroblikka da'vogar kishi (dehqon) bilan demokratik usulda almashtirish imkoniyatiga bo‘lgan.

Ariq oqsoqoli odatda, bir nechta qishloq yerlari suv beradigan yirik kanal (ariq) boshida turgan, uning qo‘l ostida bir nechta miroblar o‘z ariqlari ishiga boshchilik qilganlar. Ariq oqsoqollari lavozimi dastlabki davrlarda miroblar ichidan eng obro‘li ishbilarmonlari tanlab olingan va saylangan. Bu ham qishloqlar aholisi yoki ularning vakillari ishtirokida yoki roziligida amalga oshirilgan[68]. Ariq oqsoqollarining vazifasiga asosiy kanal uning boshlanishida bajariladigan barcha ishlar ( inshoot, to‘g‘on qurish yoki uni ta'mirlash, bosh kanal tozalash, ta'mirlash va h.lar)ning vaqti va xajmlarini aniqlash, har qaysi mirob boshchiligida bajariladigan ishlarning hajmi, vaqti, kerakli qurilish materiallari, ulov vositalari va boshqalarni aniqlash va miroblar zimmasiga taqsimlab berish, bu ishlar bajarishda yordam ko‘rsatish, barcha janjalli va niizoli ishlarni tezda bartaraf qilishda ularga ko‘maklashishlar kirgan. Xullas, ariq oqsoqollari yoki qishloqlar yoki urug‘lararo darajadagi lavozim bo‘lgan ular shunga yarasha obro‘-e'tiborga ega bo‘lganlar. Замonlar o‘tib ayrim hududlarda ariq oqsoqoli mirob lavozimlari otadan bolaga meros bo‘lib qoladigan lavozimga aylangan, ularning bir nechta avlod

[68] Гулямов Я.Г. История орошения ... 1957. – С. 74.

bo‘g‘inlaridan iborat shajaralari (dinastiyalari) ham paydo bo‘lgan. Lekin ularning ishlariga jamoa ishtirokida baho berish, nazorat qilish hamma hollarda ham asosan saqlanib qolavergan. Manbadan chiqarilgan suvni suvdan foydalanuvchilar (dehqonlar)ga bo‘lib berishda mayda hududiy qishloq, jamoalari muhim rol o‘ynagani ma'lum. Bunday jamoalarni Xorazmda «jabdi», Zarafshon vodiysida «qo‘sh», Farg‘ona vodiysida «ketmon», Qashqadaryoda «paykal», Toshkent vohasida «tup» va hokazo deb atalgani ma'lum. Bunday jamoalarning bajargan ishlari va olinadigan suv miqdorlari o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan[36].

Har qaysi birlashgan jamoa o‘z rahnamosi yoki oqsoqoliga (jabdiboshi, qo‘shboshi, tupboshiga.) ega bo‘lgan va u miroblar bilan hamkorlikda ishlagan, hashar ishlarini tashkil qilishda yordam bergan, shunga o‘xshash ishlarni tashkil qilishda yuqori ma'muriyat oldida javobgar hisoblangan. Lekin bunday vertikal bo‘yicha yuqori ma'muriyat oldida javob berish mas'uliyati qay darajada keng tarqalganligi to‘g‘risida aniqroq ma'lumotlar yo‘q. Shunday qilib biron-bir sug‘orish tizimi (kanallar va inshootlar majmuasi)ni qurib, uning ish faoliyatini tashkil qilish vazifasini «ariq oqsoqoli miroblar – to‘g‘onchilar»dan iborat irrigatorlar guruhi bajargan «to‘g‘onchilar» orasida «sepoyachilik». «chorpoyachilik» ishlarini yaxshi egallagan va shu ish bilan doimiy shug‘ullanuvchilar ham bo‘lgan). Irrigatorlar guruhi suvdan foydalanuvchilar bilan birgalikda ularning kuchi va mablag‘i hisobiga, suvni manbalardan kerakli vaqtlarda haydab kelib ularga bo‘lib berish maqsadlarida xizmat qilganlar(1 ilova). Biz bu yerda sug‘orish ishlarining tashkiliy tomonlarini shu tarzda hal qilinishiga zamdu sanolar o‘qish niyatida emasmiz, boz ustiga ariq oqsoqollari, miroblar va to‘g‘onchilar guruhlari turli-tuman toifadagi. va xarakterdagi odamlardan tashkil topgani, ular orasida ko‘proq o‘z manfaatini o‘ylaydigan va noinsoflari ham bo‘lgani shubhasiz. Lekin baribir, agar o‘sha davr jamiyat taraqqiyot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar va shart-sharoitlar majmuini nazarga olsak, ent ko‘p tarqalgan qiyin sug‘orish ishlarini tashkil qilishda mubolagtamoillarga asoslangan bunday ma'muriy-tashkiliy boshqaruv usulining keng qo‘llanishi sug‘oriladigan dehqonchilikning rivoj-lanishida rag‘batlantiruvchi

omil bo‘lib xizmat qilgan deyishga xamma asoslarimiz bor[69].

Shu o‘rinda asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib bizgacha yetib kelgan ajoyib qadriyatlarimizdan biri to‘g‘risida so‘z yuritmoqchimiz. Gap shundaki, sermashaqqat; va keng ko‘lamdagi sug‘orish ishlarini qisqa muddatlarda va faqat qo‘l kuchi bilan bajarishga to‘g‘ri kelgan. Ayniqsa, ariqlarga suv chiqaruvchi inshootlar (2-3 Ilovalar ) suv buzib ketganda yoki ayni sug‘orish ishlari eng qizigan paytlarda loy-qumga to‘lib qolgan ariqlar tozalash kerak bo‘lganda, bunday ishlarni bajarish uchun suvdan foydalanuvchilar ixtiyorida oylar emas kunlar, hatto soatlar bo‘lgan, xolos. Bunday paytlar odamlar bir yoqadan bosh chiqarib mirob va to‘g‘onchilar rahbarligida lozim bo‘lgan ishlarni tez va sansalarsiz bajarganlar, shunga ularni sharoit majbur qilgan. Bora-bora sug‘orish kanallari va inshootlarida: barcha ishlarni (qurish, ta'mirlash, tozalash va xokazo hatto, oila, qarindosh-urug‘, mahalla - ko‘ylarda bajariladigan shaxsiy va ommaviy ishlarni bajarish ham, birgalashib hshar yo‘li bilan bajarish hamma tan oladigan odat tusiga kirgan, Shariat va Odatlar qonun-qoidalari qoidalarida o‘z aksini topgan[70].

Baxtga qarshi o‘sha davrda hshar yo‘li bilan bajrilgan sug‘orish ishlarining miqdoriy ko‘rsatgichlari (umumiy hajmi, kishi boshiga bir kunda yoki bir gektar (desyatina) boshiga bajarilgan ishlar to‘g‘risida bizda aniqroq. ma'lumotlar yo‘q.. Bu «hashar usuli» to‘g‘risida aytilgan barcha iliq so‘zlar umumiy gap darajasida qolaveradi.

1828 yilda Polvonyob kanalining yangi boshini qurish uchun Xiva xoni Olloqulixon o‘z lashkarlari bilan 40 ming kishini haydab keltirdi[71].

Yuqorida keltirilgan raqam va dalillardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, bugungi O‘zbekiston chegaralari bilan aniqlanuvchi hududda o‘tgan asr o‘rtalarida ham undan oldin va xatto, sho‘rolar hukmronligining dastlabki o‘n yilliklarida ham,

---

69 Девятилетнее странствование Филиппа Ефремова (70-е годы XVIII века) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, учёных и географов XVI-первая половина XIX в. –Ташкент., 1988.

70 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 137.

71 Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.

katta-kichik hajmda sug'orish ishlariga o'n minglab, yuz minglab suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar jalb qilingan va ular hashar usulida, ya'ni hyech kimdan sariq chaqa ham olmay, o'z kuchlari va mablag'lari hisobiga juda katta hajmdagi ishlarni bajarib keldilar va bu ular uchun qon-qoniga singib ketgan tabiiy bir narsa, odat tusga kirgan va vijdon amri hamda turmush taqozosi bilan bajariladigan barcha uchun barobar bir ish edi. Ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlar vaqt va chegarilarni pisand qilmay davom etaveradi. Ularning paydo bo'lishi va shakllanishi to'g'risida donolarning aytgan fikr-o'ylari biz uchun juda muhimdir. Rus pedagogi S. Makarenko bola tarbiyasi to'g'risida gapirar ekan, «biz bolalarni jamoa ichida, jamoa yordamida va jamoa uchun tarbiyalashimiz kerak» degan g'oyani ilgari surgan edi. Binobarin, inson bolasining tarbiyasida nafaqat uning bolalik yillarida, mubolag'asiz, butun umri davomida, jamoaning, jamoa bo'lib bajarilgan ishlarning o'rni benihoya kattadir. Ota-bobolarimiz sermashaqqat va katta hajmdagi sug'orish ishlarini yil davomida birgalashib hashar yo'li bilan jamoa nazoratida bajarar ekanlar, o'zlarini tanigandan- boshlab katta hayot maktabini o'taganlar, oliyjanob insoniy fazilatlar o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, birovlarga pand bermaslik, tartib va intizom, o'zidan kattalarni, shu jumladan, boshliqlarni hurmat qilish) egasi bo'lishga intilganlar. Bugun biz o'zbek, millatining o'ziga xos mentaliteti, ichki dunyosi bilan turmush tarzi haqida gapirganimizda, ana shu o'ziga xoslikning paydo bo'lib shakllanishida kundalik hayotda uchraydigan barcha ish, to'siq va qiyinchiliklarni birgalashib, ko'plashib, hashap usuli bilan yengish va bartaraf qilishga asrlar davomida odatlanganimiz katta rol o'ynaganini unutmasligimiz kerak va yana musulmonlarning muqaddas sinalmish kitoblari Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda keltirilgan ko'rsatma va hikoyatlar hukmdorlar va boshliqlarga itoat qilishlik, farzandlarning ota-onalari oldidagi burchi va vazifalari, insonlarning jamiyatdagi burchi va vazifalari va boshqalar) hamda Shariat va Odatning yozma va og'zaki ko'rsatmalari, qonun-qoidalari kundalik hayotda bexisob takrorlanar va amalda qo'llanilar ekan, o'zbek millati turmush tarziga chuqur ta'sir qilgani shubhasizdir[72].

[72] Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ёзувчи, 1993.

Sug'orish ishlarini bajarishda tashkiliy-boshqaruv masalalari to'g'risida aytgan gaplarimizga yakun yasar ekanmiz, quyidagilarni ta'kidlamoqchimiz: o'tgan asr o'rtalarida bugungi O'zbekiston chegralarida 1,5 mln. gektardan ortiq. yerlar sug'orilg Bu yerlarni sug'orish uchun garchi juda oddiy, arzon binobarin, suv oqimi ta'siriga uncha chidamli bo'lgan, lekin yetarli miqdorda sug'orish kanal va ariqlari, gidrotexnika inshootlari, ya'ni sug'orish tizimlari bo'lgan; Bu sug'orish tizimlari son jihatid juda ko'p o'zaro tashkiliy va funksional bog'liq bo'lmaganlar va eng muhimi, bu tizimlarda sermashaqqat katta hajmdagi sug'orish ishlarini qo'l kuchi bilan bajarishga to'g'ri kelgan; lekin sanab o'tilgan shart-sharoit va qiyinchililarga qaramay, ota-bobolarimiz sug'orish ishlari tashkil qilish va boshqarish sohasida eng sodda, mavjud sharoitlarga moslashuvchan, demokratik prinsiplarga asoslangan «tashkiliy-boshqaruv tizimi»ni yarata bilganlar; ariq oqsoqoli – mirob – to'g'onchilar o'z faoliyatlarida asosan suvdan foydalanuvchilar – dehqonlarning shaxsiy kuch va mablag'lariga tayanganlar, ishlar tashkil qilib, ularni bajarishda esa jamoa bo'lib hashar yo'li bilan amalga oshirish asosiy texnologiya usuli bo'lgan.

Xorazm dehqonchiligida eng qiyin muammo tuproqni ishlash va uning hosildorligini saqlash muammosi bo'lgan. Xorazm sharoitida yerni sug'orish ham qiyin muammo edi. Xorazmda ko'p yer bo'lishiga qaramay, har bir dehqon Amudaryoga tutashgan yerning har bir qarichi uchun qattiq kurash olib borar edi[73]. Daryo chetidan uzoqlashgan sari yer ishlanmas va ekilmasdan qola berar edi. Bunday yerlarga faqat suv jon kirgizishi mumkin edi. Xorazmda yerlar ikki usul bilan chig'iriq (1rasm ) bilan va chig'iriqsiz(ilova 5) sug'orilar edi. Chig'iriqsiz sug'oriladigan yerlarga suv daryolardan ariqlar orqali chiqarilar, ariq suvlari yerlarning nishabiga qarab oqar edi. Yerni chig'riq (chig'ir) bilan sug'orilgan taqdirda buning uchun daryoga katta chig'iriq o'rnatilar, bu chig'iriqni suvning oqishi harakatga keltirmay, balki ot, ho'kiz yordami bilan harakatga keltirilar, kichikroq chig'irlarni esa odamlarni o'zi aylantirib, harakatga keltirar edi.

---

[73] Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.



1-rasm. Chiqirlar

Tabiiyki, sug‘orish inshootlarini muttasil ta'mirlab turish va yangi inshootlar qurish, katta sug‘orish tizimlarini qurishda ishni tashkil etish uchun juda ko‘p mablag‘ va kuch sarflash zaruriyati tug‘ilar edi. Shu sababli Xorazm vohasida davlat hokimiyati qanchalik barqaror bo‘lsa, sug‘orish tizimi shu qadar keng miqdorja olib borilar va foydalaniladigan yerlar ham shunchalik ko‘payar edi[74].

1860 yillarda qurilgan Daryoliq kanalining Yormish va Qilichniyozboy ariqlari oralig‘idan Amudan chiqqan suvni butun o‘zani bo‘ylab, Ko‘hna Urganchdan yuqorida Lavzan ariqqa quyilgan joyigacha uchta to‘g‘on qurilgan. Birinchi yuqori to‘g‘on mayli janganl mavzesida joylashgan edi. Bu joyda suv to‘g‘on orqali dam qilinib, hozirgi xonning amakisi (Muhammad Rahimxon Feruzning amakisi) amirulumaroga qarashli yerlar aynan shu yerdan sug‘oriladi. Shu sababdan ham to‘g‘onning nomi ham Amirulumaro to‘g‘oni deb ataladi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida davlat hokimiyatining markazlashuvi bilan Xiva xonligida irrigatsiya qurilishiga yanada e'tibor kuchayadi. “Firdavs ul-iqbol” asarida qayd qilinishicha xonlikda yangi yerlarni o‘zlashtirish munosabati bilan 1808-1815 yillarda Qilichniyozboy, 1838-1839 yillarda Toshsoqa kanallari qurilgan.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishi, yirik sanoatning mutlaqo yo’qligi oqibatida G’arbiy Yevropa davlatlarida yersiz dehqonlar shaharga

[74] Мухамаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг кадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.

ish izlab borishdek imkoniyatga ega bo'lmagan. Oqibatda, ular qishloqda qolishga majbur boiganlar. Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu boisdan Amudaryodan suv chiqarishga e'tiborberildi. XVIII asr 70-yillarida Davkor koli yonida kanal, XIX asr boshlarida esa Lavzan kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Katta Xonobod kanali qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug'orish holatini yaxshilashga ko'maklashdi. Xiva xonligida soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko'p bo'lgan. Asosiy soliq salg'ut, ya'ni yer solig'i edi. Bundan tashqari, salgut (bir yo'la to'lanadigan soliq), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig'iladigan jarima), arava oluv (aholining qo'lidagi aravalarini davlat Ishlariga safarbar etish), uloq tutuv (aholining qo'lidagi otlar va tuyalarni safarbar etish), qo'nalg'a (elchilar va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish), so'ysun (qo'nalg'a chog'ida amaldorlarni mehmon qilish uchun mol so'yish), chopar puli (soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to'lash), tarozuyona (tarozibonga to'lov haqi), mirobona (mirob uchun yig'im), darvozabon puli (yukni o'tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to'lanadigan haq), mahalliy hukmdorga haq to'lash, qorovulga haq to'lash, pul solig'ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to'lash, qo'riqbonga (o'rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to'lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to'lash), afanak puli (begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq), chibik puli (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq), ruhoniylarga to'lanadigan haq. Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va boshqa to'lovlar to'lagan. Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar zakot to'lashgan.

## III bob. XIX asrda sug'orish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari va qishloq xo'jaligining taraqqiy etishi

### 3.1. Tuyamo'yin suvombori qurilishining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki Xorazm qadimiy dehqonchilik o'lkasi xisoblanadi. Xali ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichlarida Xorazm vohasida istiqomat qilgan

ajdodlarimiz termachilik, keyin esa chorvachilik va ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. O`troq dehqonchilikka o`tish taxminan mil.avv. 1 ming yillikning birinchi choragiga to`g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, Xorazmda dehqonchilik ikki yo`nalishda olib borilgan: dehqonchiligi va sug'orma dehqonchilik.

Mil.avv. 2 ming yillik o`rtalarida Xorazm dehqonlari erlarini sun'iy sug'orishga o`tganlar. Shundan keyingi dehqonchilik tarixining barcha davrlarida sun'iy sug'orishga asosiy e'tibor berib kelingan. Tuyamo`yin gidrouzuli Qoraqum va Qizilqum tutashgan va 100 km radiusga cho`zilgan oraliqda joylashgan Tuyamo`yin darasida qurilgan."Tuyamo`yin darasi oxak va boshqa tog' jinslardan paydo bo`lgan. Amudaryo 103 km lar bepoyon qumlar va cho`llar bag'ridan oqib Zaunguz tepaliklarigakelganda burilib, tuyaning bo`yniga o`xshash shakl xosil qilib, tog' jinslari bilan ikki tomondan siqilgan darani yorib, Xorazm voxasi tomon o`z suvlarini oqiza boshladi. Xalq bu joyni Tuyamo`yin deb atagan.

Amudaryo. Xorazm voxasining obi-xayot manbasi bo`lmish bu daryo beshta (Panj, Vaxsh ,Qunduz, Kafirnigan va Surxon) daryolarining qo`shilishidan paydo bo`ladi. Vaxsh, daryosi bilan birgalikda Amudaryoning uzunligi 2500 km ni, Panj daryosi boshidan to Orol dengiziga 1437 kmni tashkil qiladi[75] .

Amudaryo suvni Pomir, Tyanshan va Xindiqush tog'lari muzliklaridan oladi. Amudaryoning quyi oqimi Tuyamo`yindan boshlanadi. Tuyamo`yin gidrouzeli 30 ta qurilish inshootlaridan iborat. Bu inshootlarni 3 ta asosiy guruxga ajratish mumkin: daryo ustiga qurilgan gidrouzel, suv omborlari xamda o`ng qirg'oq va so`l qirg'oq kanallari undan tashqari ishlab chiqarish bazasi, quruvchilar shaxarchasi va boshqa ob'ektlar.

O`zbekiston KR MK va ministrlar Sovetining 1969 yilda chiqarilgan qaroriga muvofiq Amudaryoning o`rta oqimida Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishi boshlandi. Loyixada 3-bosqichda qurish mo`ljallangan. Birinchi bosqichda daryoning o`ng qirg'og'iga Kaparas suv ombori (xajmi 2,62 $km^3$, umumiy suv satxi 373 km $^2$), ikkinchi bosqichda daryoning chap qirg'og'iga Sulton Sanjar va

[75] A.M.Mamedov. Razvitiya irrigatsii v Uzbekistane-T. Fan, 1967, 239 bet.

Qo`shbuloq suv omborlari (umumiy xajmi 2,65 $km^3$ suv sathi 241 $km^2$), uchinchi bosqichda Qo`shbuloq nasos stansiyasi qurilishi mo`ljallangan. Nasos stansiya bir suv omboridan ikkinchi suv omboriga suv chiqarib turish uchun xizmat qiladi.

Gidrouzelning birinchi navbat inshootlariga umumiy uzunligi 1740 m, balandligi 23 m bo`lgan tuproq, uzunligi 160 m bo`lgan beton to`g'onlar kiradi. Bundan tashqari, yuqori qismida umumiy uzunligi 32 km, eng baland qismi 17 metrni qum tuproq, ko`tarma dambalar, baliq o`tkazadigan, kema qatnaydigan maxsus gidrotexnik inshootlari, umumiy quvvati 150 MWT bo`lgan 6 agregatli GES quriladi.[76] Gidrouzelning to`g'oni 12 darvozadan iborat bo`lib, xar qaysi darvoza sekundiga 54 $m^3$ suv o`tkazadi. Chap qirg'oqdagi suv taqsimlash inshooti sekundiga 500 $m^3$ o`ng qirg'oqdagi ana shunday inshoot esa 90 km suv o`tkazadi. Daryo ustiga qurilayotgan asosiy inshootlar beton suv o`tkazgich to`g'on 150 MWT quvvatga ega bo`lgan gidroelektrostansiya, paraxodlar o`tuvchi shluz mustaqil ravishda suv oluvchi so`l va o`ng qirg'oq kanallari, avtomobil yo`li. Gidrouzelda qurilayotgan daryo o`zani suv xavzasi va yana 3 ta suv omborlari (Karapas, Sulton Sanjar, Qo`shbuloq) tabiiy chuqurliklarda joylashgan bu suv omborlarining umumiy suv sig'dirish xajmi 7,2 milliard km.[77] Balandligi 28 metr, uzunligi 41 metr bo`lgan temir beton to`g'onning ikki tomonidan ikkita kanal- Qoraqalpog'iston erlarini suv bilan ta'minlovchi sekundiga 200 $m^3$ suv o`tkazadigan o`ng qirg'oq kanali va Xorazm xamda Shimoliy Turkmaniston erlarini sug'orishga mo`ljallangan sekundiga 500 $m^3$ suv o`tkazuvchi so`l qirg'oq kanali ko`rish ko`zda tutilgan edi.[78] Ishlab chiqarish bazasi qator ob'ektlardan iborat bo`lib, uning tarkibiga: remont-texnik xo`jaligi, ombor xo`jaligi, qurilish bo`limlari, maxsus ixtisoslashgan bazalar "Tuyamo`yin" temir yo`l stansiyasi va unga tutashgan boshqa temir yo`l shaxaobchalari, qurilishini elektr energiyasi bilan ta'minlash xo`jaligi va boshqalar kirgan. Quruvchilar shaxarchqsi 200 gektar maydonni egallab qurilishdan 12 km uzoqda joylashgan. Bu erda katta xajmda

[76] O`zbek Sovet ensiklopediyasi. 2 tom, 428 bet.
[77] Xorezmskaya pravda, 1974 yil 26 fevral.
[78] Gidrostroitel gazetasi 1975 yil 10 iyul

turar joylar, bolnitsa, oshxona, madaniy va oqartuv muassasalar, savdo-sotiq ob'ektlari qurilishi ko`zda tutilgan.

Tuyamo`yin qurilishida 110 million kilometr er qazish va tog' qazish ishlari, 1,3 million km beton va temir beton yotqizish ishlari zarur edi.[79] Undan tashqari to`g'onni qurish, GES binosini tiklash uchun 2 million km tosh va maydalangan tosh (sheben) kerak edi[80]. Tuyamo`yin gidrotexnik inshootini qurib bitkazish smeta baxosi 334 million (O`sha davrdagi pul xisobida) so`m deb belgilandi[81].

Tuyamo`yin gidroinshootni qurish uchun 1970 yilda maxsus "Tuyamo`yingidrostroy" boshqarmasi tashkil qilindi. Boshqarma tarkibida 6 ta qurilish montaj bo`limlari, yordamchi xo`jaliklar kombinati, moddiy-texnika ta'minlash kontorasi, remont-txnika ustaxonasi va boshqa yordamchi xo`jaliklar tashkil qilindi.

Tuyamo`yin avto xo`jaligi zamonaviy texnika bilan ta'min qilindi. Avto xo`jalik ixtiyorida 250 avtomashina , 40 ekskavator, 56 buldozer, 18 skreper mavjud bo`lib, qurilish ishlarini mexanizattsiyalashga imkoniyat berdi[82]. Tuyamo`yin zarbdor qurilish deb e'lon qilindi. Mamlakatning turli respublika va viloyatlaridan yuzlagan gidroquruvchilar, ishchilar, injener-texnik xodimlar kela boshladi. Qurilishning dastlabki bosqichida Tuyamo`yinda 250 injener-texnik mutaxassislar, 2 mingdan ziyod quruvchilar ish boshladilar. Qurilishning keyingi bosqichlarida quruvchilarning umumiy soni 5 mingga etdi.[83] Tuyamo`yin qurilishi xaqiqatdan xam baynalminal qurilishga aylandi. Bu erda o`zbeklar, ruslar, tatarlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, koreyslar, nemislar, ukrainlar, beloruslar xullas 30 dan ortiq millat vakillari yonma-yon turib mexnat qildilar. 1970 yilda qurilishda partiya, komsomol va profsoyuz tashkilotlari tuzilib, ular quruvchilarni zarbdor mexnat qilishga safarbar qilishda katta rol o`ynadilar. Respublika komsomol tashkiloti Tuyamo`yin qurilishini otaliqga olib, uni doimiy ravishda yosh quruvchilar bilan ta'minlab turdi.

---

[79] Xorezmskaya pravda, 1973, 11 iyul
[80] Pravda Vostoka, 1970, 27 yanvar
[81] Xorezmskaya pravda, 1974, 26 fevral
[82] Xorezmskaya pravda 1973 yil 11 aprel.
[83] O`sha gazetada.

O`zbekiston komsomoli Markaziy komitetining yo`llanmasi bilan "Gidrostroitel" deb nomlangan quruvchilar otryadlari tuzilib, qurilishga safarbar qilinib turdi. Masalan, shunday 100 ta qiz va yigitlardan tuzilgan ixtiyoriy otryad Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona viloyatlaridan qurilishga yuborildi. Xorazm davlat pedagogika instituti komsomol tashkiloti mexnat semestri vaqtida Tuyamo`yinda ishlash uchun 250 talabyua yoshlardan iborat otyard tuzib tuyamo`yinga jo`natdi.

"Men shuni guvohi bo`ldimki,-deydi Tuyamo`yin qurilishi veterani, qizil bayroq, ordeni kavaleri, O`zbekiston Respublikasi Oliy kengashining deputati Iskandar Ollayarov,-yoshlardan eng tartib intizomlilari va mexnatsevarlari tanlab olinib, Tuyamo`yinga yuborilar edi". 1974 yilda Toshkent oliygoxlaridan 500 dan ortiq ixtiyoriy otryadlar tuzilib, Tuyamo`yinga jo`natildi[84]. Tuyamo`yin gidrotexnik kompleksi qurilishiga respublikaning barcha vazirliklari, tashkilotlari va korxonalari yaqindan yordam ko`rsatdilar.

Sobiq O`zbekiston KR markaziy komiteti va Ministrlar Soveti o`zining 28-dekabr 1973 yil xamda 2-oktabr 1974 yildagi Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini jadallashtirish xaqidagi qarorlari bilan bosh general pudradchilik vazifasini Respublika melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligi zimmasiga yukladi. Xamda barcha qurilish, loyixalash, melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligi, Gosplan, Glaskob, Selxoztexnika va boshqa vazirlik va tashkilotlar oldida Tuyamo`yin qurilishini muntazam ravishda qurilish materiallari ishchi kuchi, oziq-ovqat maxsulotlari, meditsina yordami va boshqa zarur ashyolar bilan ta'minlab turish vazifasini qo`ydi.

Tuyamo`yin qurilishida bosh pudratchilar bilan yonma-yon turib 40 ga yaqin yordamchi pudratchilar[85] katta ishlarni bajardilar. Shular jumlasidan "Soyuzvzrivprom" boshqarmasi, montaj va maxsus qurilishlar vazirligi, "Sredazttransstroy" tresti, Respublika qurilish ishlari vazirligi, "Ko`priksozlik" tresti, gaz sanoati vazirligi, energetika montaj tresti O`zbekiston suv qurilishlari bosh boshqarmasi va boshqalar.

---

[84] Pravda Vostoka, 1974, 2 oktabr

[85] Ro`zimboy Jumanazarov, Abdulla Sobirov Tuyamo`yin va Tuyamo`yinliklar-Urganch,2003 10 bet.

Partiya va xukumat qarorlariga qurilish muddatlarida bosh xamda yordamchi pudratchilar bajarishlari lozim bo`lgan vazifalar aniq belgilab berildi.

O`zbekiston SSR Gosrlanida melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligiga Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishiga 1971-1975 yillarda 158 million so`m kapital mablag'lar ajratish topshirildi. Bosh pudratchi "O`zglavvodstroy" bajarilishi lozim bщlgan iurilish montaj ishlarining xajmi tasdiqlandi. Bu ishlarni bajarishga quyidagi qurilish-montaj tashkilotlari jalb qilindi. Sobiq SSSR transport qurilish vazirligining "Sredastranstroy" xamda "Mostroy" trestlari, "Sredazelktrosetstroy" tresti, "Elektrosibmontaj" trestining 9- chi montaj boshqarmasi, "Gidroselstroy" trestining O`zbekiston boshqarmasi, "Gidromontaj" trestining O`zbekiston montaj uchastkasi, Sobiq SSSR energetika va elektrlashtirish vazirligi "Gidromexanizatsiya" trestining O`rta Osiyo boshqarmasi, Sobiq SSSR Montaj va maxsus qurilish ishlari vazirligi-«Soyuzizriiprom» trestining Toshkent ixtisoslashtirilgan boshqarmasi, O`zbekiston SSR avtomobil yo`llari qurilishi va undan foydalanish vazirligi xamda O`zbekiston SSR aloqa vazirligi. Sobiq O`zbekiston SSR melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligi, bosh loyixachi-Gidroproekt intitutining O`rta Osiyo bo`limiga, O`zbekiston SSR suv xo`jaligi qurilishi bosh boshqarmasi bilan birgalikda 1971 yil 1-dekabrgacha Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishining ishga tushiriladigan kompleksining, shuningdek ushbu kompleksiga zarur bo`lgan loyixa-smeta xujjatlarini ishlab schiqish va tasdiqlash ishi topshirildi.

Sobiq O`zbekiston SSR-"Gidrostroy" melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligi, suv xo`jaligi qurilish bosh boshqarmasi, "Gidroproekt" institutining O`rta osiyo bo`limi, Sobiq Xorazm viloyati partiya komiteti va viloyat ijroiya komitetining Sobiq SSSR melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligi bilan kelishilgan xolda Tuyamo`yin quruvchilar uchun Pitnak qishlog'ining g'arb qismida bo`sh yotgan erlar xisobiga aloxida shaxarcha qurish taklifi qabul qilindi. Bu shaxarcha uchun 200 gektar er maydoni ajratildi. Shaxarchani (posyolkani) loyixalashtirish "O`zgosproekt" loyixa institutiga topshirildi.

Sobiq O`zbekiston SSR qurilishi vazirligiga 1972-1974 yillarda Urganchuysozlik kombinatining 2,2 million so`mlik xajmdagi montaj ishlarini bajarib, 16 yirik panelli uylarni montaj qilish, topshirildi. “Sredastransstroy” trestiga 1972 yil mobaynida Tuyamo`yin temir yo`li stansiyasi xamda uning sanoat vazasi inshootlariga olib keladigan shaxobchalarini qurish topshirildi. Sobiq, O`zbekiston SSR avtomobil trasporti vazirligiga 1971-1975 yillarda zarur bo`lgan xajmdagi yuk tashish ishlarini amalga oshirish vazifasi topshirildi. Shu jumladan: 1972 yilda 2,84 million tonna, 1973 yilda 3 million tonna, 1974 yilda 3,25 million tonna, 1975 yilda 3,58 million tonna yuk tashish ishlarini bajarish topshirildi. O`ZSSR go`splaniga , O`ZSSR “Glavshab” ga va “Uzselxoztexnika” birlashmasiga 1972 yilda Tuyamo`yin suv omborini qurish uchun 25 ta KrAZ-651 avtobusi, 2 ta suv sepadigan mashina va boshqa texnikalar ajratib berish vazifasi topshirildi.

Xorazm viloyat partiya va ijroya komitetlariga qurilishni malakali injener texnik xodimlar va zarur ishchi kuchi bilan ta’minlab turish (1971 yilda 300, 1972 yilda 500 ishchini yuborish), qurilishda zarur madaniy va maishiy sharoitlarni yaratish, quruvchilarga savdo va trasport, meditsina xizmatlari ko`rsatish vazifalari topshirildi[86].

Xullas, barcha vazirliklar, boshqarmalar, trestlar va tashkilotlar Tuyamo`yin qurilishiga xar taraflama yordami qo`rsatishlari zarur edi. Xorazm viloyati, Qoraqalpog’iston respublikasi, Turkmaniston Respublikasi Toshxovuz viloyatidan yuzlagan kolxozchilar Tuyamo`yin qurilishida faol qatnashdilar. Partiya va xukumatning bu qarorlari qurilish-montaj ishlarini jadallashtirish va quruvchilarning yangi mexnat zafarlariga safarbar qilishda katta axamiyat kasb etdi.

Xorazm viloyati partiya tashkilotiga, viloyat ijroya komitetiga Tuyamo`yin qurilishiga doimo raxbarlik qilish qurilish ishlarini nazorat qilib borish va zarur materiallar, oziq-ovqat maxsulotlari, ishchi kuchi bilan ta’minlash vazifasi yuklatildi.

---

[86] Sovet O`zbekistani gazetasi, 1971, 17 noyabr.

Tuyamo`yinda ulkan gidrotexik inshootining bunyod etilishi btun quyi Amudaryo voxasi obi-xayot va elektr energetika manbasiga aylandi. Bu gigant inshootning xalq xo`jalik axamiyati beqiyosdir. Sultonsanjar O`rta Osiyodagi ulkan gidrotexnik kompleksining uchinchi suv omboridir. Unga suv qo`shni Uzan ombori va Kaparas suv ombori bog'laydigan yangi kanaldan kela boshladi. Bu suv omborlarida jami uch milliard kibometrga yaqin yig'ilgan. Tuyamo`yin irrigatsiya energetika kompleksining birinchi navbati ishga tushirildi. Bugungacha gidrouzelning sun'iy dengizlarida 3,6 milliardan ziyod suv to`plandi. 130 ming gektar erning suv ta'minoti oshirildi. GES ning uch agregati sutkasiga 1,5-2,0 million kilovat soat arzon elektr quvvati ishlab chiqarildi, boshqa qurilishlarining ko`lami katta tassirot xosil qiladi 16,3 ming kv metr turar joylar.1052 o`rinli maktab, Xazarasp cho`chkachilik kompleksining birinchi navbati ekspluatatsiyaga topshirildi. Qurilish Amudaryoning o`ng qirg'og'iga qadam tashladi. Qizilqum massivida "Xiva", "Xazarasp", "Xonqa", "Gurlan" don chorvachilik sovxozlari barpo etilib ularda fermalar, turar joylash, maktablar, bolalar bog'chasi va yaslilar xamda boshqa ob'ktlar qad ko`taryapti. Shuningdek Drujbadagi sut zavodi qurilishida xam oxirgi arxitektura va bezak ishlari amalga oshirilmoqda.

Tuyamo`yin gidroquruvchilari O`zbekiston SSR va O`zbekiston kompartiyasining 60 yilligi sharafiga suv omborlarida 5,3 milliard kilometr obi-xayot jamg'armasiga qaror qildilar. Bu tashabbus O`zbekiston tomonidan qizg'in ma'qullandi. Bu yuksak vazifani bajarish uchun 31 million so`mlik qurilish montaj ishlarini uddash, 146 ming kibometr monolit, yig'ma temir-beton quyish, 195 kibometr tosh yotqizish, 8,4 million kibometr tuproq ishlarini bajarish ko`zda tutilgandir. Bunday vazifalarni amalga oshirishda 14 sex partiya tashkiloti va 17 partiya gruppasi ish olib bormoqda. Kollektiv qurilish-montaj ishlari uch yillik planni muddatdan oldin 1983 yil 9 dekabrda iddaladi. Qurilish montaj ishlari 82114 ming so`mlik, ya'ni plan topshirig'idan 4 million so`m ziyod qilib bajarildi. 1983 yilda xam barcha texnikaviy-iqtisodiy ko`rsatgichlar uddalandi. Bu esa suv omborlarida 3,6 milliard kibometr obi-xayot to`plash va gidroelektrostansiyasining umumiy quvvati 100 ming kilovatt-soat bo`lgan to`rt agregatni topshirish imkonini

berdi. 17 ming kvadrat metrdan ziyod turar joylar, maishiy-madaniy binolar qurilib foydalanishga topshirildi.

"Tuyamo`yingidrostroy" qurilish boshqarmasi ishchilari montajchilari va injener-texnik xodimlar kollektivi XXVI s'ezdi, O`zbekiston Kompartiyasi XX s'ezdi tarixiy qarorlarini xayotga tadbiq qila borib, 1983 yilda 3,6 milliard kibometr suv jamg'armasiga qarata gidrouzelning asosiy inshootlarini tayyorladi. Gidroquruvchilar o`z imkoniyatlarini xisoblab va chamlab ko`rib, KRSS Markaziy Komiteti iyun (1983 yil) Plenumi qarorlariga amaliy ish bilan javob berib, O`zbekiston SSR va O`zbekiston Kompartiyasi tashkil topganining 60 yilligi sharafiga suv omborlarida 5,3 milliard kibometr obi-xayot jamg'arish uchun asosiy ishlarni tugallash tashabbusi bilan chiqdilar.

1984 yilda zimmalariga oshirilgan Sotsialistik majburiyatlar qabul qildilar:

-Qurilish-montaj ishlari yillik pudrat planini muddatdan oldin; 20 dekabrda bajarish;

-Yillik plandan tashqari 400 ming so`mlik qurilish-montaj ishlarini bajarish;

-Quyidagi ob'ektlarni ekspplüatatsiyaga topshirish;

A)GES dagi 50 ming kilovat quvvatiga ega bo`lgan 3 va 6 agregatlarni to`rtinchi kvartalga topshirish;

B)2 gektarlik teplitsa kombinatini to`rtinchi kvartalda topshirish;

V)600 o`quvchi o`rinli maktabni 20 avgustga topshirish;

G)Qizilqum ixtisoslashtirilgan ko`chma mexanizatsiyalashgan kolonnasida 90 o`rinli bolalar bog'chasini to`rtinchi kvartalga topshirish;

-Mexnatni tashkil qilishni yaxshilash, ishlab chiqarishning yangi texnologiya va texnikani joriy qilish, unumdorlikni va mexnatni ilmiy asosida tashkil qilishni oshirish yuzasidan tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni joriy qilish; mexnat unumdorligi yuzasidan topshiriqni 1 protsentga oshirib bajarish;

-tugallanmagan ishlab chiqarish xajmini yil oxiriga borib, planga nisbatan 100 ming so`mga kamaytirish;

-ish tushiriladigan ob'ektlarning kamida 95 protsentini "yaxshi" baxo bilan, 5 protsentini garantiyali pasport bilan topshirish;

-mexanizatsiyalashtrilgan tuproq ishlari yillik planini 20 dekabrga bajarish;

-er qoziydigan texnikaning unumdorligini ekskavatorlar bo`yicha-4,7 protsentga;

-buldozerlar bo`yicha-8,6 protsentga;

-skreperlar bo`yicha-2,3 protsentga oshirish;

-245 tonna sement;

-58 tonna metall;

-250 kibometr yog'och-taxta materiallari;

-100 ming kilovat-soat elektr quvvati;

-310 tonna (shartli birlikda) yoqilg'i;

-260 shartli tonna issiqlik energiyasi iqtisod qilish;

-60 kvartiraning kapital remontini o`tkazish;

-115 ming shartli yillik tejamli 10 ta ratsionalizatorlik taklifini ishlab chiqarishga joriy etish;

-N.Zlobin va paxta metodi bo`yicha qurilish-montaj ishlari xajmining kamida 63 foizini o`z kuchi xisobida bajarish;

-asosiy kasblar bo`yicha 150 ishchini tayyorlash, 500 ishchining injener-texnik xodimlar va xizmatchilarning malakasini oshirish;

-ishchilarning turmush sharoitlarini, madaniy va savdo xizmati ko`rsatishni, mexnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlarni davom ettirish;

-ishchilar ta'minoti bo`limi bo`yicha tovar oboroti planini 25 dekabrgacha bajarish, axolida plandan tashqari 115 ming so`mlik tovar realizatsiya qilish;

-yordamchi xo`jalik bo`yicha;

-1984 yilda 35 tonna go`sht;

-25 tonna meva olish;

Tuyamo`yin gidrouzel qurilish boshqarmasi ishchilari, injener-texnik xodimlari kollektivi O`zbekiston SSR suv xo`jaligi ministrligining "Gissarikgidrostroy" kollektivini sotsialistik musobaqaga chiqaradi.

Sotsialistik majburiyatlar Tuyamo`yin gidrouzeli qurilish boshqarmasi partiya-xo`jalik aktivi yig'ilishida 1984 yil 26 yanvarda qabul qilingan. Tuyamo`yin gidrouzeli, qurilishida mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, qurilish-montaj ishlari sifatini yaxshilashga, intizom va uyushqoqlikni mustaxkamlashga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirildi. O`n birinchi besh yillikning uchinchi yilida pudrat ishlari xajmi plandagi 28 million 1777 ming so`mlik o`rniga 30 million 341 ming so`mlik qilib 108 foizga bajarildi. O`z kuchi xisobiga qurilish-montaj ishlari plani 27 million 116 ming so`mlik qilib 110 foizga uddalandi.

Gidroelektrostantsiyaning umumiy quvvati 50 ming kilovat soat bo`lgan ikkita agregati ekspluatatsiyaga topshirildi. 10 ming gektar erning suv ta'minoti oshirildi. Gidrouzel suv omborlarida erning suv ta'minotini oshirildi. Gidrouzel suv omborlarida 3,7 milliard kibometr obi-xayot jamg'arildi. GES quvvati 100 ming kilovatga etkazildi.

Sulton-sanjar omborida 1-3 milliard suv to`plandi. 7 ming kvadrat metr turar joy cho`chkachilik kompleksining birinchi navbati, Qizilqum massivida to`rtta molxona, shaxar aloqa uzeli va boshqa ko`pgina madaniy-maishiy ob'ektlar foydalanishga topshirildi. Qurilish maydonidagi barcha bo`linmalar, uchastkalar deyarlik xamma brigadalar yillik plan va yuksak Sotsialistik majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajardilar.

Qurilish maydonidagi barcha bo`linmalar, uchastkalar deyarlik xamma brigadalar yillik plan va yuksak Sotsialistik majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajardilar. Qurilish-montaj ishlari yillik pudrat planini 1984 yil 20 dekabrga muddatidan oldin bajarishga , mexnat unumdorligini 1 foiz oshirish, yillik plandan tashqari 400 ming so`mlik qurilish-montaj ishlarini bajarishga qaror qilindi. 50 ming kilovat quvvatga ega bo`lgan GES ning uchinchi va oltinchi.agregatlarini, umumiy maydoni 2 gektarlik teplisa kombinati shu yilning to`rtinchi kvadratida 600 o`rinli maktabni 20 avgustda Qizilqum massivida 90 o`rinli bolalar bog'chasini va boshqa ob'ektlarni to`rtinchi kvartalida foydalanishga topshirish ta'minlanadi.

1985 yil Suv tanqisligi sezilgan yillarda, ayni jazirama kunlarida ekinlarga suvni o`z vaqtida erlari miqdorda etkazib berib xosil taqdirini xal qilmoqda. Xozirgacha suv ombori xavzalaridan dalalarga 45 milliard kibometr obi-xayot etkazilib berildi. Amudaryo suvlarini boshqarish va uni suv omborlariga o`tkazib, tinitib qayta katallarga (dalalarga) oqizish shu regionga joylashgan dehqonchilik dalalarida xosildorlikni yanada oshirishda ayniqsa o`tgan xo`jalik yilida paxtadan va boshqa qishloq xo`jalik ekinlaridan yuqori xosil olishda katta foyda berdi.

Quyi Amudaryo suvlarini tarbiga solishning yana bir muxim axamiyatlaridan biri daryo etaklarida degish xavfining oldi olindi. Suv omborlaridagi tiniq suvlarni kanallarga oqizganda chiqindi loylar bo`lmaydi.Kanallar sayozlanib qolmaydi. Ularni tozalash ishlari keskin ozaytirildi. Katta axamiyatga molik bo`lgan bu tadbirlar faqat bizning oblastimizning o`zida 20 million so`m mablag'ni tejash imkonini berdi. Shu davr mobaynida gidroelektrostansiya 300 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqardi.

Tuyamo`yin gidrotexnik inshoatini qurilish bilan 4 ta "Kaparas", "Sulton Sanjar" va "Qo`shbuloq" katta suv omborlari bag'rida 7,8 milliarda kibometr suv saqlanish mo`ljallangan. Bu omborlar Amudaryo suv oqimi va undan foydalanish xajmining bir yil fasliga tartibga solib turish, "deyish" va suv toshqinlari oldini olish imkoniyatini yaratdi.

Ma'lumki, tarixiy rivojlanish davomida "deygish" Xorazm vohasi axolisi boshiga ko`p kulfatlar solgan, beqiyos talofatlargasabab bo`lgan. Bundan ming yillar ilgari "deygish" Xorazmshoxlar poytaxti Kat shaxrini butunlay yuvib yo`q qilib yuborgan. XX asrning 30-50 yillarida "deygish" To`rtko`l shaxrini xam yuvib, yo`q qilib yubordi. 1969 yilda "deygish" xodisasi natijasida Beruniy shaxrini yuvib ketganligi minglagan gektar ekinzorlarni unumdor erlarni yuvib kelganligi xam ma'lum.

Voxa taqdiri xamisha Amudaryoning xolatiga bog'liq bo`lganligini aloxida ta'kidlamoq zarur. Asov daryo voxa va uning axliga xamisha taxdid solib turgan. Axoli mutassil qo`rquv va taxlik ostida yashagan. Amuning boboshligi va injiqliklariga qarshi ko`p asrlar mobaynida sabr-matonat bilan kurash olib borilgan.

Bu jarayonda Asov daryoning tabiati, toshqin "deygish" va "deygish suv toshqini" xavfidan saqlanish, xar yili million-million kubometr xajmdagi qazish yumushlarini uddalash, soxil bo'ylab ko'pdan-ko'p suvdan ximoya vositalarini (Damba) bunyod etish uchun nixoyatda ko'p mablag' va ishchi kuchlari zarur bo'lgan.

Kanallarning boshlanish qismlarida xar baxor fasli 12 kunlik " begar" va "qazuv tadbirlari" o'tkazilganligi tarixdan ma'lum. Ko'rilgan tadbirlar qanchalik ko'p va keng qamrovli bo'lmasini, bari bir asosiy muammo-turli falokatlarga sabab bo'layotgan asov daryoni jilovlash va uni belgilangan o'zandan oqishga majbur etish borasidagi orzu-niyatlar echim topmay qolaverdi. Odamlar daryoni aynan tuyamo'yin yoki Toxiyotoshdagina jilovlash va ulkan suv omborini qurish bilan mummo echim topishini uzoq asrlar davomida idrok, etolmay kelishdi, idrok etish vaqti kelganda esa kuch va mablag'dan qiynalishdi. Buning ustiga g'oyat qudratli texnika vositalarisiz bu ulkan ishga qo'l urib bo'lmasdi.

Viloyat energetika bazasining mustaxkamlanishi xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lmish qishloq xo'jaligini jadal sur'atlarda mexanizatsiyalash va elektrlashtirish imkoniyatini yaratdi.

1950 yilda viloyatning faqat 13 ta jamoa xo'jaligida 194 KWT quvvatga ega bo'lgan kichik elektrostansiyalar mavjud edi. 1960 yilga kelib viloyatning 101 jamoa xo'jaligidan 80 tasida 5290 KWT quvvatga ega bo'lgan elektr qurilmalar barpo qilindi. Jamoa xo'jaliklarida dizel-elektr qurilmalari sonining o'sishiga qaramay, ular jamoa xo'jaliklarining elektr energeyasiga bo'lgan talablarini qondirmas edi.

Jamoa xo'jaligi a'zolari xonadonlarining aksariyat qismi elektr energiyasi va yorug'likdan maxrum edi.1959 yilda jamoa xo'jaligi a'zolarining 52200 xonadonidan faqat 7077 xo'jaligigina elektr energiyasidan foydalangan, xolos. Qishloq xo'jaligini elektrlashtirishdagi qoloqlikni bartaraf qilish maqsadida Respublika xukumati "Qishloq xo'jaligini elektrlashtirishning 1960-1965 yillarga mo'ljallangan rejasining bajarilishini ta'minlash tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Bu qarorni bajarish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

“O`zselekstrostroy” qurilish-montaj boshqarmasi Xorazm viloyati bo`limi va “Selektro” boshqarmasi tashkil qilindi. Qishloq xo`jaligini elektrlashtirish uchun 81,8 ming so`m kapital mablag’ ajratildi. Bu tadbirlar o`z samarasi o`laroq 1966 yilga kelib, 89 jamoa xo`jaligidan 35 tasi elektrlashtirildi. 1969 yilda esa 88 jamoa xo`jaligining xammasi, 3 sovxoz, 94 chorvachilik fermasi, 65,4 ming kolxoxchi xonadon (91 %) va boshqa ob’ektlar davlat elektr tizimiga ulashyo`li bilan elektrlashtirildi. 1971 yilga kelib viloyatdagi barcha kolxozlar va sovxozlar elektr energiyasidan foydalana boshladilar.

1970 yil yanvar oyida Respublika raxbariyati “Respublika kolxoz va sovxoxlarda ishlab chiqarish va uy ro`zg’orni elektrlashtirishni kengaytirish to`g’risida” maxsus qaror qabul qildi. Qarorda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishda elektr quvvatidan yanada kengroq foydalanish, ayrim mexnat jarayonlarini elektrlashtirishdan kompleks elektrlashtirishga va qo`l mexnati talab qiluvchi jarayonlarni elektromexanizattsiyalashga o`tish vazifalari ilgari surildi. Bu vazifalar to`la bo`lmasada, talaygina qismi malga oshirildi.

70-80 yillar Xorazm sanoati va energetika rivojlanishida yangi bosqich bo`ldi. Qator yirik sanoat korxonalari, jumladan, Urganch ip-yigiruv fabrikasi, yog’-ekstraksiya va ekskavator ta’mirlash zavodi, Xiva gilam kombinati, Urganch “Ko`rmamash” (“em-xashak o`rish mashinalari”) zavodi, poyafzal fabrikasi qurib ishga tushirildi. 1985 yilga kelib viloyatdagi sanoat korxonalarining soni 721-ga etdi. Bu davrning eng yirik inshootlaridan biri Tuyamo`yin gidrotexnik kompleksi qurilishi edi. 1969 yilda Respublika raxbariyati “Amudaryoda Tuyamo`yin gidrouzelini qurish xaqida” qaror qabul qildi.

Tuyamo`yinda 5,3 milliard kibometr foydali xajmga ega bo`lgan bir qancha suv omborlari (Ko`shbuloq, Kaparas, Sulton Sanjar) 150 ming KVT quvvatga ega bo`lgan gidroelektrostansiya (GES), ishlab chiqarish bazasi, quruvchilar shaxarchasi, balandligi 28 metr va uzunligi 141 metr bo`lgan temir beton xamda 550 metrga cho`zilgan er to`g’onlarini barpo qilish ko`zda tutilgan edi. Bundan tashqari, temirbeton to`g’onining ikki tomonida ikkala katta kanal Qoraqalpog’iston erlarini suv bilan ta’minlovchi, sekundiga 200 $m^3$ suv

o`tkazuvchi o`ng qirg'oq kanali va Xorazm xamda Shimoliy Turkmaniston erlarini sug'orishga mo`ljallangan, sekundiga 500 $m^3$ suv o`tkazadigan so`l qirg'oq kanali , daryo ustida avtomobil o`tadigan ko`prik va boshqa inshootlar barpo etish zarur edi.

Tuyamo`yin gidrouzelini qurishda 110 mln $m^3$ er va tosh-shog'al qazish xamda tshish ishlari bajarilishi 1,3 mln . $m^3$ beton va temirbeton yotqizish , Amudaryoni to`sish, gidrouzel to`g'oni, GES binosi qurish uchun 2 mln. $m^3$ tosh va shag'al yotqizish zarur edi. Xukumat tomonidan tasdiqlangan smetada Tuyamo`yin gidrouzelini qurib bitkazish uchun 334 mln so`m pul ajratildi.

Tuyamo`yin inshootini qurish 1970 yilda tashkil qilingan "Tuyamo`yingidrostroy" qurilish boshqarmasiga topshirildi.
1973 yilga kelib Tuyamo`yin gidrouzelida 2 mingga yaqin quruvchi va 250 injener-texnik mutaxassislar faoliyat ko`rsatdi. Qurilishning avtoxo`jaligida 40 ekskavator, 56 buldozer, 18 skreyper, 250 avtomashina bo`lib, er qazish, tekislash, tosh yotqizish ishlari to`la mexanizatsiyalashtirildi.
Tuyamo`yin zarbdor qurilish deb e'lon qilindi. Mamlakatning turli o`lkalari va respublikalaridan quruvchilar kela boshladi. Tuyamo`yin qurilishida 40 millat vaqillari ishtirok etdilar. Quruvchilarning aksariyat qismini yoshlar tashkil qilardi. Belgilangan vazifani sifatli, muddatidan avval bitkazish uchun qurilish brigadalari, sexlari va korxonalari, o`rtasida o`zaro musobaqa avj olib ketdi. Qudratli elektr ekskavatorlarning mashinistlari tatar yigiti M.O`razvaxtin, nemis yigitlari U, Gopp, A.Traitman, o`zbek yigiti I.Ollaberganovlar fidokorona mexnat qilib, qurilishning gvardiyachilari degan faxriy nomga sazavor bo`ldilar.

Qudratli yuk avtomabillari xaydovchilari X.O`rozov, M.Qlichev, A.Vaseev, Ten, F.Terskix, buldozerchilar X.Safaev, V.Ro`zimboev, N.Nurmatov, skreyperchi R.Xsanov, zemlesos mashinistlari A.Mo`minov, M.Ibraximov va boshqalar zarbdorchasiga ishlash namunalarini ko`rsatib, musobaqaning oldingi saflarida bordilar.

Tuyamo`yin qurilishi viloyatning yuzlagan yoshlari uchun turli quruvchilik kasblarini egallash maktabi bo`ldi. 1970-1981 yillar mobaynida Tuyamo`yin

qurilishida turli quruvchilik kasbiga ega bo`lgan 9839 ishchi kadrlar tayyorlandi. 4414 nafar quruvchi esa o`z malakasini oshirdi. Ko`p miqdorda malakali quruvchilar tayyorlashni qurilish ishlarini jadal sur'atlarda olib borish imkoniyatini tug'dirdi. Bu esa o`z navbida, qurilish oldida turgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishini ta'minladi. Yil sayin bajarilgan qurilish-montaj ishlari xajmi oshib bordi. Agar 1971 yilda 3 mln. So`mlik ish bajarilgan bo`lsa, 1972 yilda 11 mln.1973 yilda esa 15,2 mln so`mlik ish bajarildi.

1972-1973 yillarda xukumat Tuyamo`yin qurilishida ishlarni yanada jadallashtirish choralari to`g'risida bir qancha qarorlar qabul qildi bu qarorlarda beton yotqizish ishlarini jadallashtirishga aloxida e'tibor berildi.

Qurilish boshqarmasi beton yotqizish ishlarini V.F.Andrishenko boshliq 1-chi qurilish-montaj boshqarmasi binokorlariga topshirildi. Jadal suratlar bilan ish boshlagan betonchilar kuniga 900-1000 $m^3$ beton yotqizdilar. To`g'on tanasiga beton yotqizish kun sayin oshib bordi. 1970-1975 yillar mobaynida qurilishda 267067 $m^3$ beton yotqizildi. O`sha yillar davomida 61,8 mln.so`mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi.

Quriplishning sanoat ishlab chiqarish bazasi kompleksi barpo qilindi. Yiliga 3000 ming kubometr beton tayyorlovchi zavol ishga tushirildi. Armatura sexi, energetika xo`jaligi bazasi temir yo`l stantsiyasi foydalanishga topshirildi. Isitish sistemasi, avtobaza, kompressor stansiyasi, sement ombori, moddiy-texnika ta'minot bazasi va boshqa ob'ektlar qurilishi nixoyasiga etkazildi.

## 3.2. Xorazmda dehqonchilik ishlarining taraqqiy etishi

1976-1980 y Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishida xal qiluvchi davr bo`ldi. Bu yillar mobaynida binokorlar oldida bebosh Amudaryoni jilovlash suv omboralrini to`ldirish temir beton to`g'oni, GES binosi qurilishini jadallashtirish xamda GES gidroagregatlarini o`rnatish kabi muxim vazifalar turar edi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun yana qurilish brigadalari, sexlar, korxonalar o`rtasida o`zaro musobaqalar avj olib ketdi. Bu galgi musobaqada 5 mingdan ortiq

quruvchi ishtirok qildi. Zarbdor mexnat tez orada o`z samarasini berdi. 1979 yil dekabr oyida Amudaryoning oldi to`sildi. Shundan so`ng GES binosi qurish va GES agregatlarini o`rnatish uchun kurash avj olib ketdi.

"Spetsgidroeneogomontaj" boshqarmasi montajchilarining fidokorona mexnati tufayli, 1981 yil oktabriga kelib, GES ning birinchi agregti sinovdan o`tkazildi. O`zbekiston Melioratsiya va suv xo`jaligi vazirligiga qarashli "Tuyamo`yingidrostroy" tresti jamoasi boshqa subridrayt tashkilotlar bilan birgalikda 1985 yil boshlariga kelib, gidrouzelning asosiy inshootlarini qurish ishlarini nixoyasiga etkazdi. 3 ta katta suv ombori barpo qilindi, GES ning 150 ming KWT quvvatga ega bo`lgan 6 ta agregati xam ishga tushirildi. Quruvchilar shaxarchasi Do`stlik (xozirgi Pitnak) shaxari qad ko`tardi. Tuyamo`yin gidrotexnik majmuasi katta xalq xo`jalik axamiyatiga egadir.

U birinchidan, deygish va suv toshqinlari bilan olish imkoniyatini yaratdi.

Ikkinchidan, katta suv xavzasining bunyod etilishi Xorazm viloyati va Qoraqalpog'istonning shaxar va qishloqlariga ko`p kilometrlik suv quvurlari tortilib, axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyatini berdi.

Uchinchidan,Tuyamo`yin gidrouzeli 500 ming gektar mavjud erlarni sug'orishni yaxshilash xamda kelajakda sug'oriladigan er maydonlarini ancha ko`paytirish imkoniyatini tug'dirdi.

To`rtinchidan, sho`rini yuvish va paxta xosildorligini oshirish imkoniyatini yaratdi.

Beshinchidan, gidrouzel orqali o`tkazilgan avtomobil va temir yo`llar Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati aloqalarini osonlashtirdi.

Oltinchidan, To`g'on bag'rida qurilgan GES Amudaryo quyi oqimi energosistemasi quvvatini yanada oshirdi. Tuyamo`yin GESi va Taxiatosh GRESining ishga tushirilishi quyi Amudaryo xududlarini, jumladan, Xorazm viloyatini yoppasiga elektrlashtirish imkonini berdi.

Tuyamo`yin suv xavzalarining qurilishi quyi Amudaryo zonasida yashovchi axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosini xam xal qildi. Xorazm Tuyamo`yin suv xavzasidan Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi

shaxar va qishloqlariga ko`p kilometrlik suv quvurlari tortilgan. Ichimlik suvi asosan Kaparas suv omborlaridan olinadi. Chunki bu suv omborlarida baxorda yig'ilgan sifatli va sho`rlanmagan obi-xayot saqlanib, undan ichimlik suvi tarqatiladi.

Amudaryoda qurilgan katta to`g'on bebosh daryoni to`sib, suv oqimini tartibga solib, "dagishning xavfli" oqibatlarini betaraf qildi, kafolatlangan suv oqib turishini ta'minladi va oyoqdan suv olish imkoniyatini tug'dirdi. Bu esa 500 ming gektarga yaqin erlarni sug'orishni yaxshilash xamda kelajakda sug'oriladigan er maydonlarini 1 million 200 ming gektargacha etkazish imkoniyatini tug'dirdi.

Tuyamo`yin gidrouzeli er sho`rini yuvish va vegitatsiya davrida muntazam sug'orishni amalga oshirish xamda yangi sug'oriladigan erlarni o`zlashtirish xisobiga paxta xosildorligini gektaridan 1,3-3,9 tsentnerga, boshqa qishloq xo`jalik maxsulotlari xosildorligini bir necha martabaga oshirish imkoniyatini tug'diradi.

Tuyamo`yin gidrouzeli qurilish tufayli boshqariladigan sug'orish tizimiga o`tish faqat 1981-1983 yillarda (gidrouzelni vaqtincha ishga tushirilishi paytida) qishloq xo`jaligi maxsulotlaridan olingan sof foyda 290 mln so`mni tashkil etdi.

Tuyamo`yin gidrouzelning o`ng va so`l soxillarida bunyod etilgan ikkita yirik kanallar yilning turli fasllaridaya sug'orish tizimlari, kommunal maishiy xo`jaligi sanoat korxonalarini, qishloq xo`jaligini muntazam ravishda suv bilan ta'minlash kafolatini beradi. Undan tashqari magistral kanallarga, ariqlarga Tuyamo`yin suv omborlaridan kirayotgan tinitilgan suvlar ularning tagiga loyqa-qum o`rnashib qilishidan saqlaydi, xamda ularni tozalashga yil sayin sarflanadigan million-million pul mablag'larini tejab qolishiga imkon beradi.

Gidrouzel o`tkazilgan avtomobil va temir yo`llar Qoraqalpog'iston xududlari bilan Xorazm viloyati va Respublikaning boshqa viloyatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni yaqin va qulay yo`llar orqali amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. Shu bilan bu yo`llarni bunyod etilishi Amudaryoning o`rta oqimida

qimmatga tushadigan va xavfli paromlar orqali yuk va odamlarni tashish tartibiga chek qo`ydi.

To`g'on oldida barpo qilingan suv xavzalarida yiliga 600 tonna tovar baliq uchrashish va axolini tirik baliq bilan ta'minlash imkoniyati tug'ildi. Tuyamo`yin to`g'oni ustidan barpo etilgan 150 ming RVT quvvatga ega gidroelektrostantsiya Qoraqalpog'iston energosistemasi quvvatini ancha oshirdi. U arzon suv energeyasini elektr energeyasiga aylantirib yiliga 360 tonna shartli yoqilg'ini (316 $m^3$ tabiiy gazni) tejash imkoniyatini berdi.

Tuyamo`yin GESi qurilgach quyi Amudaryo zonasida elektr energiyasidan foydalanish ikki barobar, kommunal-maishiy xo`jalik extiyojlari uchun esa uch barobar oshdi.

Tuyamo`yin GESi va Taxiatosh GRES ning ishga tushirilishi Xorazm viloyatini yoppasiga elektrlashtirish imkonini berdi.

1986-1990 yillarda Xorazm viloyatida 5-20 KV quvvatli 311,8 ming kilometr uzunlikdagi, 90,4 KW quvvatli 544,2 ming kilometr uzunlikdagi elektr energiyasi uzatkich liniyalari qurildi[87] . Energetika xo`jaligining rivojlanishi va ko`p miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi Xorazm viloyatida yangi, zamonaviy texnologiya bilan jixozlangan og'ir sanoat korxonalarini keyingi paytlrada esa qo`shma korxonalar barpo etish imkoniyatini yaratdi.

Agar 1985 yilda viloyatda 721 sanoat korxonalari bo`lgan bo`lsa, 1991 yilga kelib ularning soni 933 ga etdi.[88]

Mustaqillik yillarid chet el investrlari bilan viloyatda o`nlagan zamonaviy qo`shma sanoat korxonalari ishga tushirildi. 1991 yilda viloyatda 588,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan, 1 milliard 441 million kilovat-soat elektr energiyasi tashqaridan olingan. Shundan 401,0 mln kilovat soat elektr energiyasi sanoat extiyojlari uchun, 114,9 mln kilovatt soat kommunal xo`jaligi,25,2 mln kilovatt soat trasport,415,5 mln kilovatt soat qishloq xo`jaligi uchun 144,8 mln kilovatt-soat kommunal xo`jaligi uchun va xakozalarga sarflangan. Sanoatda qishloq, xo`jaligida kommunal xo`jalikda elektr

[87] Karang: Narodnoe xozyaystvo Xorezmskoy oblasti v 1991 godu Statsbornik-Urganch, 1991, s.111.
[88] Karang: Narodnoe xozyaystvo Xorezmkoy oblasti v 1991 godu. Stat.Sbornik,71 s.

energiyasining ishlab chiqarish jarayonlariga kirib kelish ishchi, dehqon va xizmatchilarning og'ir jismoniy qo`l mexnatidan xolis qildi, ish sharoitlarini yaxshiladi, axoli xonadonlarida komfort sharoitlar tug'dirdi.

Masalan, ilgarilari qishloq xo`jaligida sigir sog'ish, ko`rakni sitish balandda joylashgan erlarga suv chiqarish mushkul ish bo`lgan. Xozirgi kunda bu ishlar elektr sigir sog'ish mashinasi, elektr kurak chopish mashinasi, elektr quvvati yordamida xarakat qiladigan nasoslar yordamida bajarilmoqda.

Shaxar atrofi xududlarida 5 shirkat, 208 ta fermer xo`jaliklari mavjud. Ekin maydonlari satxi 7074 gektarni tashkil qiladi. Axoli asosan paxta, sholi, bug'doy, zum, meva, sabzavot, poliz maxsulotlari etishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Qishloq xo`jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi zavod va yirik sexlar ishlab turibdi.

Umuman, Tuyamo`yin gidrouzelining qurilishi qishloq xo`jaligini rivojlantirishda, ayniqsa ,o`lkada paxtachilikni yuksalishida ijobiy ta'sir ko`rsatdi.

# XULOSA

Xopazm davlatida dexonchilik an'analari va cugorish tizimi ilk Temur davridan boshlab to bugungi kungacha O`rta Osiyo va Evro`pa davlatlari ichida o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayni XVIII-XIX asrlarga kelib bu yerdagi davlatlar feodal tarqoqlik, o'zaro urushlar, mamlakat ichkarisida taxt talashishlar va boshqa qator sabablarga ko'ra harbiy va iqtisodiy jihatdan sillalari qurib bo'shashgag, umumiy xavf paydo bo'lganda bir yoqadan bosh chiqarish va harakat qilish ularning asosiy an'analariga aylanib qolgan edi. Bu esa o`z navbatida dexqonchilik tiziminini rivojlanichida, ayniqsa engi shugorish inshoatlarini, kanollarni barpo qilish, dexqonchilik qilish ychyn engi ekin maydonlarini o`zlashtirish imkoniyatini berdi.

Rossiya davlati Petr I zamonlaridayoq, bu o'lkani zabt qilishga otlangandi. Jo'g'rofiy jihatdan juda yaqin – qo'shni bo'lgan va «otini boshqalardan oldinroq qamchilagani» (XVIII–XIX asrlarda amalga oshirilgan qator harbiy tayyorgarliklar, diplomatiya va savdo sohasidagi tadbirlar) uchun bo'lsa kerak Rossiya davlati o'z niyatiga XIX asrning 60-70- yillarida uzil-kesil erishdi va Turkiston Rossiya imperiyasining eng yirik mustamlakalaridan biriga aylandi.

SHunday qilib Xopazm o'lkasida mavjud bo'lgan dexqonchilik tizimi va irigatsiya sogorish inshoatlari o'zining yutuq-kamchiliklari, kuchli va kuchsiz tomonlari bilan tarixan qisqa vaqt ichida (XIX asr o'rtalarida 1917 yilgacha) ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, o'zgarishlarga boy dramatik amaliyot yo'lini bosib o'tdi. Bu yo'lni mohiyat va ko'lami bilan Hindistonni ingliz mustamlakachilari zabt etib, u yerda mavjud bo'lgan irrigatsiya sohasida yuz bergan o'zgarishlar Hindiston irrigatsiyasi mustamlaka sharoitida bosib o'tgan yo'l bilan taqqoslash mumkin. Ko'p hollarda o'zlaridan oldin Hindistonni zabt etgan boburiylarning tajribasini o'rganib ish yuritdilar. Rossiyalik fotixlar esa boshqacha ish tutdilar, ular o'z yurtlarida qo'llashga botinmagan yer va melioratsiya sohasidagi qonunlarni (irrigatsiya ishlarini shaxsiy sarmoya xisobiga bajarish, bunday ishlarga konsessiyalar berish, buning evaziga o'zlashtirilgan yer va suvning bir qismini shaxsiy mulk sifatida sarmoyadorga berish va xokazolar) Turkiston o'lkasi sharoitida qo'llashga urindilar, Rossiya imperatori esa Turkiston o'lkasida eng birinchi o'ta yirik yer-suv egasiga aylanib qoldi... Xolisona aytadigan bo'lsak, 1917 yil voqealari Xonliklar xalqlarining azaliy

xuquqlari – yer-suvga egalik kilish xuquqlarining poymol bo‘lishidan saqlab qoldi.

Irrigatsiya (suvdan foydalanish, ta'mirlash va boshqalar) ishlarini tashkil qilishda va boshqarishda o‘z-o‘zini boshqarish va xo‘jalik hisobi prinsiplarini qo‘llash, suvdan foydalanishni takomillashtirish uchun «Suv yoki irrigatsiya okruglari»ni tashkil qilish va ularni boshqarish maqsadida ma'lum vaqtga demokratiya yo‘li bilan saylanib qo‘yiladigan «Vakillar kengashi»ning xizmatidan foydalanishga o‘tish va shunga o‘xshash boshqa qator yangiliklar yaqin o‘tmishimizdan bizga meros bo‘lib qolgan tajribalar emasmi? Bu tajribalar (tashkiliy va texnologik usullar) o‘z vaqtida qay darajada qo‘llanilgan, kanchalar samara berganligi Xopazm tarixi saxifalarida o`z o`rnini topgan ligi bizga ma’lum.

Amudaryoning quyi oqmini , quyi qismini ilmiy asosda o`rganish xali rus imperatori Pyotr 1 davridan boshlangan edi. 1716-1717 yillard Shtabs kapitan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshliq, ekspeditsiya Volga daryosidan Kaspiy dengizi orqali Amudaryogacha bo`lgan suv yo`lini aniqlash hamda shu yo`l orqali Xindistonga borish masalasini hal qilish topshirig’i bilan safarga chiqadi. Biroq bu ekspeditsiya Xivaga etib kelgach Sherg’oziy xon tomonidan qirib tashlanadi.

1718 yilda Quyi Amudaryo tomon knyaz Urusov rahbarligida yana bir ekspeditsiya jo`natiladi. Bu ekspeditsiya ham xuddi birinchisi singari falokatga uchrab orqaga qaytadi. Keyingi tadqiqot ishlari 1878 yil suv toshqini voqealaridan keyingina davom etdi.

Bevosita Tuyamo`yin bilan bog’liq tadqiqot ishlari esa 1924 yili boshlandi. Xorazmdagi magistral kanallarining suv o`tkazish quvvatini aniqlash maqsadida tashkil etilgan izlash partiyasi o`sha yili ishga kirishadi. Ko`p vaqt o`tmay Amudaryo delta qismi boshqarmasi (UPRADIS) tuziladi. 1941 yili u Amudaryo miroblik kanallari boshqarmasi (UPRADIK) ga aylantiriladi. Qayta tuzilgan boshqarma zimmasiga loyiha-izlash, tadqiqot ishlari bilan birga, qurilish, foydalanish borasidagi yumushlar ham yuklatiladi.

O`rta Osiyo Respublikalarida suv inshootlari qurilishlari yuzasidan, loyiha tadqiqot ishlariga ixtisoslashgan eng yirik tashkilot “Sredazproiz” tresti (keyinchalik esa “Sazgiprovod” instituti) undan ham ilgari 1929 yildayoq, vujudga keltirilgan edi. Vohada sug’orish ishlarini yaxshilashga qarata Amudaryoning quyi

qismida ikkita yirik suv ta'minoti-Iuyamo`yin va Taxiatosh gidrouzelini qurish masalasini dastlab ana shu institut olimlari o`rtaga tashlaydilar va u Sobiq SSSR Gosplanining texnik-eksport kengashi tomonidan ham tasdiqlanadi.

Taklif etilgan loyihada chap qirg'oqdagi mavjud magistral kanallarining boshlanish tarmog'idagi barcha suv o`tkazish inshootlarıni bir nuqtaga jamlash zarurligi qayd etilgan edi. Tuyamo`yindagi bosh inshootlardan boshlanuvchi mazkur magistral kanallar jami 315 ming gektar erni obi-hayot bilan ta'minlashi, daryoga qurilgan gidroelektrostantsiya esa soatiga 2000 kilovatt amper nur energiyasi ishlab chiqaprish ko`zda tutilgandi. Bevosita Tuyamo`yin gidrouzelini bunyod ejtish sohasidagi dastlabki loyihalash ishlari esa 1932-1934 yillarda o`tkazildi. Dastlab suv inshootining sxematik loyihasi ishlab chiqildi. Biroq rus olimi V.M.Georgievskiyning bu sohadagi takliflari qog'ozda qolib ketdi.

XX asrning 30-yillari boshida Sulton Sanjar tuz koni va ko`li tadqiqotchi A.I.DZENS-litovskiy tomonidan o`rganib chiqildi. Jami 37 joyda burg'ulash ishlari o`tkazildi. Buning natijasida shu narsa ma'lum bo`ldiki ko`l tubining 0,75 dan 3,5 metrgacha bo`lgan qismi tuz bilan qoplangan. Tadqiqot ishlari 1937-1938 yillarda ham davom etdi.Urganchdan darg'on Otagacha bo`lgan 200 kilometrlik masofa tadqiqotchilar tomonidan damba-dam o`lchab va kuzatib chiqildi.

30-40 yillar oralig'ida vohada jami 10 ga yaqin turli ekspeditsiyalar ish olib bordi. Tadqiqot ishlari urushdan keyingi yillarda ham davom ettirildi. Urushgacha o`tkazilgan tadqiqotlar Amudaryoning Tuyamo`yin qismida O`rta Osiyoda eng katta sun'iy obi-hayot havzasi va katta gidroelektrostantsiya inshoatini bunyod etish bo`yicha yaxlit va aniq loyihalarning vujudga kelishiga asos bo`ldi.

XX asrning 60-yillari boshida bu yo`nalishdagi loyiha-tadqiqot ishlarini uyushtirish,yo`naltirish va muvofiqlashtirib borish sohasidagi vazifalar "O`zbekiston suv xo`jaligi qurilishi loyihasi" ("O`zgiprovodxoz") instituti zimmasiga yuklatildi.

1965-1970 yillarda Amudaryo suv inshootlarining uzil-kesil loyixasi ishlab chiqildi. Tuyamo`yin gidrouzeli-"O`zan", "Kaparaz", "Sulton Sanjar", "Qo`shbuloq" suv omborlarining loyiha topshirig'ini Butunittifoq "Gidroproekt" institutining samara bo`limi, texnik-ishchi loyiha hujjatlarini esa mazkur institutning O`rta osiyo bo`limi tadqiqotchilari tayyorlab berishdi.

1969 yilda Tuyamo`yin gidrotexnik kompleksini yaratish uchun ko`p minglik quruvchilar kollektivi asosiy ishlarni boshlab yubordilar. 1985 yilga kelib tuyamo`yindagi asosiy inshootlar qurilishi o`z nihoyasiga etdi.

Tuyamo`yin gidroinshooti o`zbek xalqining jon fidoiyligi,mashaqqatli mehnati jasorati bilan, qardosh xalqlarning yaqindan yordami bilan bunyod etildi. Bu gigant katta avlod mehnati va kurashining mevasidir. Ota-bobolarimiz bu inshootni kelajak uchun, farzand-nevaralarimiz uchun yaratdilar. Demak, otalar ishi farzandlar hayotida davom etmog'i va yaratuvchilik mehnatining eng yaxshi namunalari har ishda namoyon bo`lmog'i lozim. Tuyamo`yin inshooti Xorazm vohasi ravnaqi va istiqbolining muhim manbai. Mavjud 4-ta yirik suv omboralirda to`plangan 7,8 milliard kubometr obi-hayot bilan uchala Respublikaning endilikda sathi 1,5 million gektarga etgan ekinzorlarini bemalol suv bilan ta'minlash mumkin. Tuyamo`yinda bunyod qilingan GES ning 6 ta gidroturbinasi suv kuchi bilan harakatlanib har yiliga arzon 630 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda yangi Tuyamo`yin gidrouzeli bois.

Shahar-Pitnak shahari bunyod qilindi Bular har yili o`nlarcha million so`mlik moddiy boyliklar ishlab chiqaryapti. Magistral suv quvurlar orqali Tuyamo`yindan oqqan toza ichimlik suvi vohaning barcha shahar va tumanlariga, jumladan nukus hamda chekka taxtako`pir, Amudaryo tumanlarigacha etib bordi.

Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishi kechagi yuzlagan kolxozchi yoshlardan malakali ishchi kadrlar, gidroquruvchilar, texnik va muxandislar tayyorlash maktabi bo`ldi. Xozirgi kunda bu mutaxassis kadrlar O`zbekiston Respublikasi xalq xo`jaligining muhim sohalarida, xattoki rahbar organlarida ishlab kelmoqdalar.

Tuyamo`yin gidroinshooti ko`p ming sonli quruvchilar montajchilar muhandis-texnik xodimlar mehnatini mahsuli sifatida ularga qo`yilgan salobatli haykal, buyuk yodgorlik qiyofasida asrlar bo`yi mag'rur qad rostlab turajak, avlodlarga-ajdodlarning qaxramonona mehnatini abadul-abad eslatib turajak.

Tuyamo`yin gidrouzelini qurilishi Xorazm dehqonlarini har yili qilinadigan, ariqlarni tozalash, qazuv kabi og'ir jismoniy,bepul-mehnatdan ozod qildi. Bu og'ir mehnat asrlar davomida o`tkazilib dehqonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko`rsatgan.

XIX asr oxiriga kelib sug'oriladigan dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarda irrigatsiya sohasida, birinchi galda suvdan foydalanish va uni boshqarishning eng quyi pog'onasida (fermerlar, dehqon xo'jaliklari darajasida) turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'pchilik islohotlarning asosiy mohiyati suv resurslaridan foydalanish va boshqarish ishiga suvdan foydalanuvchilarning o'zlarini, ularning shaxsiy imkoniyatlari va mablag'larini imkon darajasida jalb qilishdan iborat.

## FOYDALANILLGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

I.1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

I.2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent., Ma’naviyat, 2008.

I.3. Karimov I. A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O’zbekiston, 2011.

**II.Adabiyotlar**

II.1. Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. – № 2-3. – Б. 83-89;

II.2. Абдурасулов У. Вакфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.

II.3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ёзувчи, 1993.

II.4. Avesto: Yasht kitobi (M.Isoqov tarjimasi)-T, 2001 y.

II.5. Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.

II.6. А. Архангельский, Геологические исследования в кизовьях Аму-Дарьи, -М.—Л., 1931, 144-бет.

II.7. В. В. Бартольд, К истории орошения Туркестана СПб., 1914. 71-бет

II.8. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.

II.9. Веселовский Н. И.. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – СПБ., 1890. Т.1. – 453 с.

II.10. Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.

II.11.Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.

II.12. Зиёев Ҳ. З. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Шарқ, 2005.–232 б.

II.13. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва., 1958. – С. 182.

II.14. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент., 1959. – 350 б.

II.15. Лебедев Д. М. География в России XVII века. –М–Л., 1949. –233 с.

II.16. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных 20-80-е годы XIX в. – Ташкент.: Фан, 1990. – 192 с.

II.17. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б. A.M.Mamedov. Razvitiya irrigatsii v Uzbekistane-T. Fan, 1967, 239 bet.

II.18. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII–первая половина XIX в.) – Т., Фан, 1982. – 92 с.

II.19. Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII– первой половине XIX века. Ремесло, торговля, пошлин. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.

II.20. Моргуненков Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

II.21. Муҳамаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

II.22. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998.

II.23. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

II.24. Георгиевский Б. М., Южннй Хорезм, Ташкент, 1937, 200 б.

II.25. Масальский В. И., Туркестанский край, Россия, т. XIX, СПб., 1913

II.26. Ц и н з е р л и н г В. В., Орошение на Аму-Дарье, М., 1927, 89-бет

II.27. Ко рж е н ев ский Н. Я., Физико-географический очерк Средней Азии, Ташкент, 1925, 65-бет;

II.28. Т о л с т о в С. П., Новые материали по истории культуры Древнего Хорезма М ВДИ, 1946, N6 1.

II.29.Jumanazarov R., A.Sobirov. Tuyamo`yin va Tuyamo`yinliklar-Urganch. "Xorazm", 2003 y.

II.30. A.M.Mamedov. Razvitiya irrigatsii v Uzbekistane-T. Fan, 1967, 239 bet.

II.31. O`zbek Sovet ensiklopediyasi. 2 tom, 428 bet.

II.32. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1965-1985 yillarda chiqarilgan sonlari.

II.33. "Xorezmskaya pravda" gazetasining 1980-1985 yillarda chiqqan sonlari.

II.34. Pravda Vostoka" gazetasining tegishli sonlari.

II.35. "Gidrostroitel" gazetasining 1975-1982 yil sonlari Bu ko`p tirajli gazeta Tuyamo`yinstroy boshqarmasi va portkomi organi bo`lib, 1975 yildan chiqarila boshlagan.

II.35. Narodnoe xozyaystvo Xorezmskoy oblasti v 1991 godu Statsbornik-Urganch, 1991, s.111.

II.35. Sovet O`zbekistani gazetasi, 1971, 17 noyabr

**III. Manbalar**

III.1. Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.

III.2. Страбон. География в семьнадцати книгах. Пер. статья и ком. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1964. – 943 с.

III.3. Девятилетнее странствование Филиппа Ефремова (70-е годы XVIII века) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, учёных и географов XVI-первая половина XIX в. –Ташкент., 1988.

III.4. Ҳофиз Таниш ибн Мир Мухаммад Бухорий. Абдулланома (Шарафномаи шоҳий) / Форсчадан С.Мирзаев таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. 1-2 китоб. –Т., 1999. – 416 б.

III.5. Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1957. – 326 с.

III.6. Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – СПб., 1849 – 282 с.

III.7. Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.

III.8. Гулямов Я.Г., К истории возникновення ирригации в низовьях Аму-Дарья » о археологическим данним, Сборник натериалов научной сессии АН УзССР. Ташкент, 1947.

**IV. Dissertasiya va avtoreferatlar**

IV.1. Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1990. – 195 с.

IV.2. Гуломов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII веке: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1984. – 177 с.

IV.3. Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.

**V. Internet saytlari**

V.1. www.vikipedia.ru.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид,

барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 137.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

3. Karimov I. A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – B. 27.

4. Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.; Бобылев Ф. Ф. Сближение Средней Азии с Европою. – Тифлис., 1858.–32 с.; Гулишамбаров С. О. Всемирная торговля в XIX веке и участие в ней России. –СПб., 1898. – 230 с.; Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыть сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905. – 130 с.; Довнар-Запольский М. В. Торговля и промышленность Москвы в XVI–XVII в. – М., 1910.; Ўша муаллиф. Русская история в очерках и статьях. В 3-томах. – Москва-Киев, 1912.; Курц Б. Г. Сочинение Кильбургера о русской торговле в царствование Алексея Михайловича. – Киев. 1915. – 606 с.

5. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.; Ўша муаллиф. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – СПБ., 1890. Т.1. – 453 с.; Ўша муаллиф. Иван Данилович Хохлов – русский посланник в Персии и Бухаре в XVII в // Журнал Министерство народного просвещения. 1891 г. январ. – С. 48–72.

6. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII–первая половина XIX в.) – Т., Фан, 1982. – 92 с.; Ўша муаллиф. Узбекистан в XVIII– первой половине XIX века. Ремесло, торговля, пошлин. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.

7. Михалева Г.А. Торговые и дипломатические связи России с Бухарским ханством через Оренбург в конце XVIII- начале XIX века: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1963. – 194 с; Пўлатов Ю. Русские-среднеазиатские отношения конца XVII-первой четверти XVIII века: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1968. – 252 с; Гаффоров Ф. Россия билан Қўқон ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар (XIX асрнинг биринчи ярми ва 60-70 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс. –Т.: Ўз ССР ФА ТАИ, 1970. – 226 б; Амитов А. Русско-хивинские отношения в первой половине XIX века: Дисс.... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1970. – 227 с; Гуломов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII веке: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1984. – 177 с; Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1990. – 195 с.

8. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент., 1959. – 350 б; Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б; Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масаласига доир. – Т.: Фан, 1965. – 301 б.

9. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных 20-80-е годы XIX в. – Ташкент.: Фан, 1990. – 192 с.

10. Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O`zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. – № 2-3. – Б. 83-89; Унинг ўзи. Вакфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O`zbekiston tarixi. – Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.

11. Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.; Ўша муаллиф. К истории торговли Бухари XVI–первой половини XIX века // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1991. – №9-10-11. – С.56–63.; Ўша муаллиф. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. – Т., 2000. – 52 б.; Ўша муаллиф. Среднеазиатские пути торговли и пути связивавшие их с Сибирью (первая половина XIX века) // История, проблемы обьективности и нравственности. – Ташкент. 2003. –С.54–58.; Ўша муаллиф.Волжско-Каспийский путь в XVI– первой половине XIX века // Тюркологический сборник. 2002. Россия и тюрксий мир. – Москва. 2003. –С.139-154.;

12. Зиёев Ҳ. З. Сибирь, Волга ва Урал бўйларидаги ўзбеклар. – Т.: Шарқ, 2003. – 320 б.; Ўша муаллиф. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Шарқ, 2005.–232 б.

13. Зияева Д. Ҳ. Важные сведения по истории Бухары в мемуарах зарубежных путешественников XIX века. // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. – Т., 2008. – Б. 175–178.

14. Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. –Т.: Академия, 2004. – 122 б.; Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б.

15. Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.

16. Сойманов Ф.И. Описание Каспийского моря. – Спб., 1763. – 380 с; Унинг ўзи. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времен. – Спб., 1765. – 74 с; Описание всех на российском государстве обитающих народов. Част 2. О народах татарского племени. – СПб., 1776. – 188 с; Савельев П. Бухара

в 1835 году. –СПб., 1836. – 26 с; Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – СПб., 1849 – 282 с; Хаников Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843; Попов А. Сношение России с Хивою и Бухарою при Петре Великом // Записки ИРГО. Кн.9. – Спб., 1853 – 188 с; Путешествия по Средней Азии совершенной в 1863 году Арминием Вамбери. – СПб., 1865. – 221 с; Девятилетнее странствование Филиппа Ефремова (70-е годы XVIII века) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, учёных и географов XVI-первая половина XIX в. – Ташкент., 1988.

17. Usmonov Q., Jo`rayev U., Norqulov N. O`zbekiston tariixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). – Toshkent., O`qituvcvhi, 2010. – B.49.

18. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998. – Б. 9.

19. Муҳамаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.

20. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 41.

21. Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.

22. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 89.

23. Кадыров А.А., Дерлятка Т.И. Разработать концепции функционирование и развитие эксплуатации гидромелиоративных систем в условиях рыночной экономики» (применительно к Республике Узбекистан). Ташкент, 1992. – С. 31.

24. Гулямов Я.Г. История орошения ... 1957. – С. 74.

25. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 47.

26. Ирригация Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1975. – С. 48.

27. Моргуненков Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

28. www.vikipedia.ru.

29. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 47.

30. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959. – Б. 80.

31. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. .... – Б. 81.

32. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. .... – Б. 154

33. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ёзувчи, 1993.

## E'lon qilingan ishlar ro`yxati

""

1. Kamolov P.K., Kamolova N.P. "Quyi Amudaryo xududi sugorish tizlari xaqida" , //Ijtimoiy fanlarning dolzarb muommolari.- Xopazm Ma'mun akademiyasi, Xiva,2008.-46-49 b.
2. Kamolova N.P., "Ne dopustitь opustыnivaniya zonы priaralьya" , // Xorezmskaya pravda, 25 oktyabrya 2014 goda, №85 (16987).
3. Kamolova N.P., "Orol bo`yi hududining: tarixi, buguni va kelajagi" , //"XXI asr-intellektyal avlod asri" shiori ostida yosh olimlar vatalabalarning xududiy ilmiy- amaliy konferensiyasi. –Hukus,2014
4. Kamolova N.P., " Markaziy Osiyo insoniyat sivilzatsiyasining ko`hna makoni", //Abu Rayxon Beruniyning jaxon ilm-fani taraqqiyotiga qo`shgan xissasi, Beruniy izdooshlarining zamonaviy tadqiqotlari. Beruniy tavalludining 1041 yilligiga bagishlab o`tkazilgan yosh olimlar va talabalarning ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Uranch,2014.-128-130 b.
5. Kamolov P.K., Kamolova N.P., "Quyi Amudaryo xududida ijtimoiy-ekologik vaziyat va uning oqibatlari, aypim echimlari xaqida muloxazalar", // Quyi Amudaryo regioni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining geografik echimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Uranch,2014.-22-25 b.
6. Raxmonova Yu.M., Kamolova N.P., "Osnovnыe otrosli ekonomiki goroda Xivы i ix razvitie vo vzaimosvyazi v XVI- nachale XXveka", //Molodoy uchyonыy ejemesyachnыy nauchniy jurnal. – Moskva, -2014, №7.-S.578-580

7. Raxmonova Yu.M., Kamolova N.P., “Arminiy Vamberi – issledovatelьssentralьnoy Azii”, //Molodoy uchyonыy ejemesyachnыy nauchniy jurnal. – Moskva, -2014, №7.-S.577-578

**Tuyamo`yin qurilishi bilan bog’liq muxim voqealar sanasi**

1.1966 yil Sobiq KPSS s’ezdi direktivlarid Amudaryoning quyi oqimida Tuyamo`yin gidrouzeli qurish masalasi qo`yilgan.

2.1969 yil oktabr Tuyamo`yin magistral kanali qurilishi nixoyasiga etdi.

3.1970 yil 7 may. O`zbekiston Vazirlar Kengashining 570 sonli qaroriga asosan “Tuyamo`yinsuvqurilish” boshqarmasi tashkil etildi.

4.1971 yil Sobiq KPSS s’ezdi direktivlarida Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini jadallashtirish tadbirlari ko`zda tutilgan. 1971 yil 18 noyabr Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini avj oldirish yuzasidan O`zbekiston xukumatining 545 sonli qarori qabul qilindi.

5.1972 yil 14 yanvar O`zbekiston raxbariyatining “Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini jadallashtirish qo`shimcha chora-tadbirlari xaqida” gi 2 sonli qarori e’lon qilindi.

6.1973 yil noyabr Asosiy inshshotlar poydevoriga dastlabki beton yotqizildi.

7.1973 yil 28 noyabr. “Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini yanada jadallashtirish to`g’risida” O`z KRMK va Respublika Vazirlar Kengashining 529 sonli qo`shma qarori qabul qilindi.

8.1974 yil 6 iyun “Tuyamo`yinsuvqurilish faollarining yig’ilishi” bo`ldi. O`zbekistonning Turkmaniston va Qoraqalpog’istonning raxbar xodimlari qatnashdilar.

9.1974 yil 11 sentabr “Tuyamo`yinsuvqurilish” boshqarmasi suv xo`jaliklari qurilish bosh boshqarmasit tarkibidan chiqarilib, Respublika Melioratsiya va suv xo`jaligi Vazirligi qaromog’iga o`tkazildi.

10.1975 yil oktabr.Tuyamo`yin qurilish boshqarmasi faollarining katta yig'ilishi bo`lib, unda O`zbekiston raxbari Sh.Rashidov nutq so`zladi.

11.1978 yil 30 yanvar. Shaxar tipidagi Shorlovuq posyolkasini viloyatga bo`ysinuvchi shaxarlar toifasiga o`tkazish va unga "Do`stlik" nomini berish yuzasidan O`zbekistogn Oliy Kengashi rayosatining farmoni e'lon qilindi.

12.1977 yil 24 avgust.Amudaryoda tuyamo`yin gidrouzelining birinchi navbatini ishga tushirishni tezlashtirish choralari xaqidagi qo`shma qaror e'lon qilindi.

13.1979 yil dekabr.Tuyamo`yinda bebosh Amudaryoning oldi to`sildi. Suv asosiy to`g'on orqali boshladi. "O`zan" suv omborida xajmi 150 mln.kibometrlik dastlabki xavzaga obi-xayot to`plash boshlandi. Gidrouzelning birinchi navbati ishga tushirildi.

14.1980 yil 16 iyun "Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishini tezlashtirish, suv omborlariga 1981 yilda 2,6 milliard" kubometr suv tashlash to`g'risida respublika partiya tashkiloti va O`zbekiston xukumatining 456-sonli qo`shma qarori qabul qilindi.

15.1982 yil 27 noyabr "Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishida birinchi darajali ishlarni tamomlash va suv omborlariga 5,3 milliard kibometr suv yig'ish to`g'risida" gi qo`shma qaror e'lon qilindi.

16.1987 yil. Mavjud suv omborlarida loyixada ko`zda tutilgan miqdorda (7,8 milliard kibometr) obi-xayot to`plandi. Tuyamo`yin gidrouzelini qurish rejasi muvoffaqiyatli bajarildi.

# ILOVALAR

Ilova1






11-расм. Чингизхон истелосидан олдин (XIII аср) Хоразмнинг суғориш тармоқлари ва гидрографиясининг схемаси. Шартли белгилар: 1-сув оқиб турган каналлар; 2—Амударёнинг ўша даврдаги ўзани; 3—ботқоқ ва тошқинлар; 4—шаҳарлар

Ilova2





23-расм. Қўл новаси



24-расм. Нова

Ilova3




Ilova3

Tuyamo`yin gidrouzeli qurilishda idora, tashkilot, korxona va muassasalar qatnashdi.

Tuyamo`yin qurilishida bosh pudratchilar bilan yonma-yon turib, muhim yumushlarni bajargan yordamchi pudratchilar ro`yxati:

1.Xorazm davlat xo`jaliklari qurilishi tresti.

2.”Spetsmontajvodstroy” tresti

3.”Soyuzvzro`vprom” birlashmasi

4.Respublika aloqa vazirligi

5.Melioratsiya ishlari ko`chma mexanizatsiyalashgan kolonnasi

6.Montaj va maxsus qurilishlar vazirligi

7.”Sredaztransstroy” tresti

8.”Gidromexanizatsiya” tresti

9.”Elektrosibmontaj” tresti

10."Sredazelektrosetstroy" tresti

11.Yo`l qurilishi va avtoyo`llardan foydalanish vazirligi

12.Respublika qurilish ishlari vazirligi

13."Ko`priksozlik" tresti

14."Gidromontaj" tresti

15. Gaz sanoati vazirligi.

16.Engergetika-montaj vazirligi

17."Promjilstroy" tresti

18."Kazmontajavtomatika" tresti

19.Xorazm suv xo`jaliklari qurilish tresti

20.O`zbekiston go`sht va suv sanoti vazirligi

21."O`zelektromontaj" tresti

22."Uzsantexmontaj" tresti

23."Sredasteplomantaj" tresti

24."Gazproventilatsiya" birlashmasi.

25."Gidrospenstroy" tresti

26.Yugkarakalpakvodstroy" tresti

27."Vodspetstremont" birlashmasi

28.O`zbekiston suv qurilishlari bosh boshqarmasi

29."Spetsigdroenergomontaj" tresti

30."Soyuzizbekgaz" birlashmasi

31.O`zbekiston davlat o`rmon xo`jaligi qo`mitasi

32."Zangori ekran" birlashmasi

33."Uzspetsvoddrenaj" tresti

34."Sersuvavtomatika" tashkiloti

35.RPMSO birlashmasi

36.MU-9 boshqarmasi[91].

[91] Ro`zimboy Jumanazarov, Abdulla Sobirov. Tuyamo`yin va Tuyamo`yinliklar.-Urganch-,2003 yil 107 bet.

Ilova4

| № | Boshqarma boshlig'ining ismi | yillar | |
|---|---|---|---|
| | | dan | gacha |
| 1 | Kornienko Aleksandr Aleksandrovich | 1970 | 1974 |
| 2 | Dixanin Viktor Grigorevich | 1974 | 1983 |
| 3 | Yusupov Iskandar Yusupovich | 1983 | |

**Boshqarma partiya Komitetining Sekretarlari**

| № | F.I.Sh. | Yillar | Yillar |
|---|---|---|---|
| 1 | Sherjanov Yusuf Sherjanovich | 1970 | 1972 |
| 2 | Muradov Sharif Muradovich | 1972 | 1974 |
| 3 | Xasanov Baxodir Xasanovich | 1974 | 1978 |
| 4 | Abdullaev Babaxon Abdullaevich | 1978 | 1979 |
| 5 | Yusupov Iskandar Yusupovich | 1979 | 1981 |
| 6 | Boltaev Odamboy | 1981 | 1985 |
| 7 | Darvishev Rustam Raximovich | 1985 | 1987 |
| 8 | Karimov Quvondiq Karimovich | 1987 | |

**Tuyamo'yin Gidrouzeli qurilish boshqarmasining amalga oshirgan ishlari (pul xisobida)**

| № | yillar | Bajarilgan ishlar (ming so'm xisobida) | |
|---|---|---|---|
| RR | | Bosh pudrat | O'z kuchi bilan |
| 1 | 1970 | 4,393 | 3,921 |
| 2 | 1975 | 22,300 | 16,281 |
| 3 | 1980 | 26,085 | 23,583 |
| 4 | 1985 | 42,786 | 39,263 |
| 5 | 1987 | 47,087 | 43,784 |

Ilova5

## QIZILQUM MASSIVINI O'ZLAShTIRISh

O'zbekiston Kompratiyasi Markaziy Komiteti, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Xorazm oblast qizilqum massivni kompleks o'zlashtirish haqidagi 1982 yil 21 iyun qaroriga asosan chul-quvarlar bu erda qisqa davr ichida ko'lamdor ishlarni amalga oshirdilar. Qarayib 2,5 ming gektar maydon kapital tekislandi. Shundan 1200 gektariga o'tgan yilning o'zida chorva ozuqasi uchun makkajo'xori, beda va boshqa ekinlar ekildi.

O'tgan yili tashkil etilgan "Gurlan", "Xazarasp", "Xiva", "Xonqa" don-chorvachilik sovxozlari, "Nukus" qorako'lchilik sovxozida 1200 boshdan ziyod

qoramol qarayib 800 bosh qo`y asralmoqda, sovxozlarning dastlabki yildanoq oziq-ovqat programmasini amalga oshirishga xissa qo`shib boshladilar. O`n birinchi besh yillikning to`rtinchi yilida bu xissa yanada ko`paytirildi, 100 tonnaga yaqin go`sht, 800 tonna sut ishlab chiqarildi. Sovxozlarning moddiy-texnika bazasi vujudga keltirilmoqda, ishchilarning moddiy va madaniy turmush farovonligi yaxshilanmoqda. Qisqa fursat ichida xar sovxozda 15-16 tadan 4 xonali 2 kvartirali zamonaviy uylar qurildi. Sovxozlar markazlari elektrlashtirildi, vodoprovod liniyalari tortildi, tabiiy gaz bilan ta'minlanmoqda. Sovxozlarda xar biri 200 boshga mo`ljallangan ikkitadan molxona qurib foydalanishga topshirildi, chorva-ozuqa bazasi mustaxkamlandi.

Gidroquruvchilar O`zbekiston SSR va O`zbekiston Kompartiyasining 60 yilligi sharafiga Sotsialistik musobaqalarini yanada avj oldirib ulug' Oktabr revolutsiyasining 67 yilligi arafasida, o`n birinchi besh yillikning to`rt yili plan topshiriqlarini muddatidan 70 kun ilgari bajardilar. O`tgan davr ichida qurilish bo`yicha 115,4 million so`m kapital mablag' o`zlashtirildi. Bu planda belgilangandian 1,2 million so`m ko`p demakdir. Planga nisbatan uch million so`mlik qo`shimcha qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. GES binosi qurilishi nixoyasiga etdi. Nurxonaning xamma agregatlari kuniga bir milliondan ziyod elektr energiya ishlab chiqarmoqda. Tuyamo`yin suv ombori 5,3 milliard kubometr obi-xayot sig'adigan qilib tayyorlanmoqda. Gidroquruvchilar shaxri Drujba o`z qiyofasini yildan-yilga o`zgartirib, xam eniga, xam bo`yiga o`smoqda. Bu erda ko`plab turar joy binolar, madaniy-maishiy ob'ektlar,maktab va bolalar muassasalari qad ko`tarmoqda. Bu do`stlik shaxrida 30 dan ortiq millat vakillari bir oila farzandlaridek yashab va mexnat qilib kelmoqdalar.

Tuyamo`yin gidroquruvchilari Ulug' Oktabr sotsialischtik revolyuttsiyasining 67 yilligini mexnatda yangi zafarlar bilan qarshilamoqdalar. Jonajon Respublikamizning 60 yillik muborak yubileyiga gidrouzel suv inshootlaridagi asosiy ishlar poyoniga etkazildi. Suv omborlari 5,3 milliard xajmdagi suv sig'dira oladigan qilib tayyorlandi. Gidrouzelelektrostantsiyaning xamma oltita agregatlari to`liq ishga tushirildi.

Ilova 6

## Қуйи Амударё минтақасида суғориладиган ерлар

- Умумий майдон: 1,060,000 га
- Аҳоли: 3.5 млн.
- Сув таъминот манбаси – Туямуюн сув омбори
- Ташауз (Туркменистан): 310,000 га суғориладиган ер
- Каракалпакстан (Ўзбекистан): 500,000 га суғориладиган ер
- Хоразм (Ўзбекистан): 270,000 га суғориладиган ер




Ilova 7

**XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА МИНТАҚАДА СУҒОРИШНИ ЖАДАЛ РИВОЖЛАНТИРИШ (Мирзачўл, Қарши, Жиззах, Шеробод, Марказий Фарғона чўлларини, Қорақум ва Қизилқум каналлари районларини ўзлаштириш) СИРДАРЁ ВА АМУДАРЁДАН СУВ ОЛИШ МИҚДОРИНИ КЕСКИН ОРТИШИГА ОЛИБ КЕЛДИ.**



Ilova 8




Ilova 9



Ilova 10




Ilova 13




Ilova 14




Ilova 15




Ilova 16


ЭГАТЛАРГА СУВ ТУПРОҚ ОСТИДАН
ТАҚСИМЛАНАДИГАН ТИЗИМНИНГ КЎРИНИШИ
d
2
40...45
60...90
1
35...45
2
3
1
қувур; 2 – 3–9 мм диаметрли сув чикаргич; 3 – суғориш
эгати. (Ўлчовлар см хисобида).

Ilova 17


ДДН-100 УЗОҚҚА ОТАР ЁМҒИРЛАТИБ СУҒОРИШ
МАШИНАСИ
7
5
4
6
3
2
1
1 - тракторнинг осма тизими тортқиси; 2 - рама; 3 - сувни сўрувчи линия;
4 - ёмғирлатгич аппаратини ҳаракатлан-тирувчи механизм; 5 - ёмғир-
латгич аппарати; 6 - ўғит арапаштиргич;
7 -эжекторли қурилма.

Ilova 18

**ППА-165У УНИВЕРСАЛ КЎЧМА СУҒОРИШ АГРЕГАТИ:**



1 - суғориш қувурларини масофадан йиғиштириб олиш учун арқон; 2 - рамка; 3 - ролик; 4 - лебедка; 5 - гидромотр; 6 - барабан-контейнер; 7 - суғориш қувури; 8 - газ оқимли вакум аппарат; 9 - кожух; 10 - шланг; 11 - редуктор; 12 - кўтариш механизми; 13 - сув сўрувчи қувур; 14 - таянч; 15 - бурилиш муфтаси; 16 - тирсак; 17 - насос; 18 - рама таянчи; 19 - тескари клапан; 20 - тескари клапанни очиш учун арқон; 21 - босимли патрубок; 22 - узиш муфтаси; 23 - лонжерон; 24 - кронштейн; 25 - маҳкамлаш тахтачаси; 26 - гидроцилиндр; 27 - сурилувчан рама; 28 - арқон йиғгич.

Ilova 19

**ТУПРОҚ ЎЗАНЛИ КАНАЛ**



Ilova 20



Ilova 21

**ТИЗИМНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ (1000 ГА МАЙДОН, 2012 Й.)**



Ilova 22

## Спутник расмларидан олиш мумкин бўлган параметрлар




Ilova 23

## 1. Ерларни лазер нивелирида текислаш – тупроқни кўчириш эмас, балки сувни тежашдир

Лазер нивелирида ерларни текислаш – дала юзасини ±2 см фарқигача текислащдир





Tarix fakulteti II kurs magistratura yo`nalishini bitiruvchisi Kamolova Nargizaning "Xorazmda dehqonchilik an'analari va sug'orish tizimi tarixi" mavzusidagi magistrlik ishiga

Taqriz

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, erkin tafakkurga ega va milliy g'oya ongi va qalbiga singdirilgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Tarix "... millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy xotira haqida fikr yuritar ekan: "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi,"[1] – deya haqli tarzda qayd etgan edi.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o'sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyunda bo'lgan uchrashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Tarix fakulteti II kurs magistratura yo`nalishini bitiruvchisi Kamolova Nargiza tanlagan "Xorazmda dehqonchilik an'analari va sug'orish tizimi tarixi" mavzusi dolzarb mavzulardan biri bo`lib, hozirgacha to`la hajmda, har taraflama tadqiq qilingan emas. Bu mavzuda maxsus yozilgan asarlar yo`q.

---

Magistrlik ishi kirish, 3 ta bobdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar bo'limlari asosida 105 bet, 3ta rasmiy, 35 adabiyot, 8 ta manbalar, 3 ta dissertasiya va avtoreferatlar, 33 ta Internet saytlari ma'lumotlaridan foydalanilgan holda rejalashtirilgan masalalar to`laligicha va to`g'ri tahlil qilingan. Ish hajm, shakl va mazmun jihatidan talabga javob beradi. Ish Prezident Islom Karimov asarlari, O`zbekiston hukumati qarorlari, arxiv manbalari, ko`p tirajli "Gidrostroitel" Tuyamo`yin qurilish boshqarmasi gazetasi materiallari , quruvchilarning xotiralari asosida xolisona bayon qilingan. Shu bilan birga ishda ayrim, jiddiy bo`lmagan kamchiliklar, grammatik, stilistik xatolar, mantiqiy uzilishlar ham uchraydi. Lekin bu kamchiliklar ishning ahamiyatini pasaytira olmaydi.

Men Kamolova Nargizaning magistrlik ishini " a'lo" ga baholab davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilishga tavsiya etaman.

Xorazm Ma'mun akademiyasi
ilmiy xodimi: t.f.n. Abdurasulov A.

IMZONI TASDIQLAYMAN
"11" мая 2015 y.
Xodimlar bo'li